

K.M.KURBONOV

QURILISH MEXANIKASI VA KONSTRUKSIYALARI

I-qism

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVASIYALAR VAZIRLIGI
NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI

**“QURILISH MEXANIKASI VA
KONSTRUKSIYALARI”**

(I-qism)
fani bo‘yicha

O‘QUV USLUBIY MAJMUA

Namangan 2024

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVASIYALAR VAZIRLIGI

NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI

NamMQI
Ro'yhatga olindi
O'quv-uslubiy boshqarma
№ _____
2024 y. " ____ " _____
№ 87
«30» 09 2024 y.

“Tasdiqlayman”
O'quv ishlari bo'yicha prorektor
_____ 2024 y
DEVONXONA
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVASIYALAR VAZIRLIGI
NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI

K.M.KURBONOV

"QURILISH MEXANIKASI VA
KONSTRUKSIYALARI"

(I-qism)
fanidan

O'QUV USLUBIY MAJMUA

Mazkur o'quv-uslubiy majmua O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim, fan va innovasiyalar vazirligi namangan muhandislik-qurilish instituti O'quv uslubiy birlashmalari faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashining 2024 yil 07.03 dagi 241-son bayonnomasi bilan ma'qullangan va ro'yhatga olingan "Qurilish mexanikasi va konstruksiyalari" fanining o'quv reja va dastur asosida tayyorlandi.

Tuzuvchi: K.M.Kurbonov- NamMQI Muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi va montaji kafedrasida katta o'qituvchisi, PhD

Taqrizchi: Sh.S.Yuldashev- NamMQI "Mexanika" kafedrasida professori t.f.d.
M.U.Karabayeva- NamMQI "Mexanika" kafedrasida dotsenti v.b.

MUNDARIJA

№	Nomlanishi	bet
1.	O‘quv materiallari	5
1.1.	Ma’ruza materiallari	7-
1.2.	Amaliy mashg‘ulot materiallari	90
2.	Mustaqil ta’lim mashg‘ulotlari	146
3.	Glossariy	148
4.	Ilovalar	
4.1	Fan dasturi	160
4.2.	Ishchi fan dasturi	175
4.3.	Tarqatma materiallar	184
4.4.	Testlar	190
4.5.	Foydalanilgan adabiyotlar	219

1. O'quv materiallari

So'z boshi

“Qurilish mexanikasi va konstruksiyalari” fani umummuhandislik (Nazariy mexanika, Materiallar qarshiligi, Me'morchilik, Qurilish konstruksiyalari) fanlarini asosiylikdan biridir. Fanni o'qitishdan maqsad, muhandis-pedagoglarda qurilish inshootlari va uning elementlarini mustahkam, chidamli, tejimli bo'lishini hisoblash va muqobil shakllarini aniqlash hamda inshoot konstruksiyalarining hisobiy modellarini to'g'ri tanlash, konstruksiya elementlarini turli xil yuklarga bardoshligini hisoblash, amaliy masalalarni yechishda zamonaviy hisoblash texnikasi va uslublaridan yaxshi foydalanish ko'nikmalarini hosil qilish ko'zda tutiladi.

Hozirgi kunda qurilish industriyasini jadal rivojlanishi, yangi axborot kommunikatsiyalarini kirib kelishi, muhandis-pedagoglar oldiga pedagogik, psixologik bilimlarga ega, atrof-muhit muhofazasini doimiy ta'minlashga qaratilgan masalalarning mohiyatini chuqur anglagan, ekologik toza texnologiyalar bilan tanishgan, qurilishni boshqarish, modellashtirish, avtomatlashtirish, shuningdek, kam sarf-harajatli arzon, mustahkam uzoqqa chidamli qurilish konstruksiyalari ishlab chiqaruvchi texnologiyalarni zamonaviy pedagogik, axborot texnologiyalari asosida olib boradigan yetuk mutaxassis kadrlar bo'lishlikni taqozo etmoqda.

“Qurilish mexanikasi va konstruksiyalari” fani predmeti va vazifalari. qurilish mexanikasi, statik kuch, dinamik kuch, juft kuch, taralgan kuch, to'plangan kuch, hisob sxemasi, muvozanat tenglamalari, tayanch turlari, tayanch reaksiyalari, kinematik analiz, tayanch reaksiyasi, murakkab sharnir, geometrik o'zgaruvchan sistema, geometrik o'zgaruvchan sistema, oniy o'zgaruvchan sistema, kinematik analiz, yassi sistema, erkinlik darajasi, oddiy sharnir, haraktlanuvchi kuch, ta'sir chizig'i, reaksiya kuchining ta'sir chizig'i, ko'ndalang kuch ta'sir chizig'i, eguvchi moment ta'sir chizig'i, tugunlar orqali yuk uzatilish, uzatuvchi chizig'i, tugun orqali yukni uzatilganida zo'riqishlar ta'sir chiziqlarini qurish, inshootga yig'iq kuchlar qo'yilganida ta'sir chizig'i yordamida zo'riqishlarni aniqlash, inshootga yoyiq kuchlar qo'yilganida ta'sir chizig'i yordamida zo'riqishlarni aniqlash, inshootga juft kuchlar qo'yilganida ta'sir chizig'i yordamida zo'riqishlarni aniqlash, ko'p oraliqli balka, ko'p oraliqli balka turlari, hisoblash tarxi, asosiy balka, osma balka, osma balka tayanch reaksiyasining ta'sir chizig'i, asosiy balka tayanch reaksiyalarining ta'sir chiziqlari, osma balka ko'ndalang kesimidagi kesuvchi kuchlar ta'sir chiziqlari, asosiy balka ko'ndalang kesimidagi eguvchi moment ta'sir chiziqlari, osma balka ko'ndalang kesimidagi eguvchi moment ta'sir chiziqlari, asosiy balka ko'ndalang kesimidagi kesuvchi kuch ta'sir chiziqlari, ferma, fermalar turlari, fermalar hisoblash usullari, moment nuqtasi, ajratib olingan tugun muvozanat tenglamalari, ferma tayanch reaksiyasining ta'sir chizig'i, ferma sterjenidagi zo'riqishlar ta'sir chizig'i, ta'sir chizig'ining o'ng va chap chiziqlari, uzatuvchi chiziq, Shprengelli ferma sterjenlaridagi zo'riqish kuchlarini ta'sir chiziqlarini qurish, s'ringilli ferma, shringil, birinchi kategoriyalik sterjen, ikkinchi kategoriyalik sterjen, uchunchi kategoriyalik sterjen, sh'ringilli ferma, uch sharnirli sistema, uch sharnirli arka, uch sharnirli rama, kerki (rasor), arka ko'ndalang kesimidagi kesuvchi kuch, arka ko'ndalang kesimidagi eguvchi moment, arka ko'ndalang kesimidagi bo'ylama kuch, arka o'qining eng maqbul shakli, tayanch reaksiyalar ta'sir chizig'i, ko'ndalang kuch ta'sir chizig'i, eguvchi moment ta'sir chizig'i, bo'ylama kuch ta'sir chizig'i, ko'chish, deformatsiya, tashqi kuch bajaradigan ish, ichki kuchlar bajaradigan ish, ishlarning o'zaro bog'liqligi, ko'chishlarning o'zaro bog'liqligi. Ichki kuchlar bajaradigan ish, ishlarning o'zaro bog'liqligi, ko'chishlarning o'zaro bog'liqligi. (Mor formulasi), Vereshchagin usulida aniqlash, tashqi kuchlardan hosil bo'ladigan zo'riqishlar, birlik kuch ta'siridan hosil bo'ladigan zo'riqish, Mor integrali, balka va ramalar uchun Mor formulasi, fermalar uchun Mor formulasi, egriligi kichik arkalar uchun Mor formulasi, tashqi kuchlardan hosil bo'ladigan zo'riqishlar, birlik kuch ta'siridan hosil bo'ladigan zo'riqish, Mor integrali, balka va ramalar uchun Mor formulasi, fermalar uchun Mor formulasi, egriligi kichik arkalar uchun Mor formulasi, 6-semestrda statik aniqlik darajasi, ortiqcha bog'lanishlar, bog'lanishlar, kanonik tenglamalar, yopiq konturlar, asosiy sistema, kuchlar usulining noma'lumlari, birlik eguvchi moment epyurasi, statik

aniqmaslik darajasi, birlik epyuralarni chizish, simmetrik ramalarni kuchlar usulida hisoblash, sistemalarni simmetrikligidan foydalanish, kanonik tenglamalar koeffisientlari, kanonik tenglamalar ozod hadlari, simmetrik ramalar, nosimmetrik ramalar, simmetrik kuchlar, kanonik tenglamalar koeffisientlarini aniqlash, kanonik tenglamalar ozod hadlarini aniqlash, teskari simmetrik kuchlar, noma'lumlarni guruhlash, natijaviy eguvchi moment epyurasi, deformatsion tekshirish, statik tekshirish, tutash balkalar, tutash balkalar asosiy sistemasi, soxta (fiktiv) yuk, soxta (fiktiv) reaksiya kuchi, chap va o'ng fokslar nisbatini, chap va o'ng fokslar nuqtasi, doimiy kuch, vaqtinchalik kuch., statik aniqmas arkalar, bir sharnirli statik aniqmas arka, ikki sharnirli statik aniqmas arka, sharnirsiz statik aniqmas arka, statik aniqmas arkalar, bir sharnirli statik aniqmas arka, ikki sharnirli statik aniqmas arka, sharnirsiz statik aniqmas arka, statik aniqmas arkalar, bir sharnirli statik aniqmas arka, ikki sharnirli statik aniqmas arka, sharnirsiz statik aniqmas arka, statik aniqmas ferma, statik aniqmas fermalarni aniqmaslik darajasi, tashqi statik aniqmas fermalar, ichki aniqmas fermalar, ramalarni ko'chishlar usulida hisoblash, ramalarni ko'chishlar usulida qabul qilingan noma'lumlar, ko'chishlar usulining asosiy sistemasi, ko'chishlar usulining kanonik tenglamasi, bir oraliqli statik aniqmas balka, balkalarning sxemalari, balkalarning sxemalari yuklanishlariga qarab moment va reaksiya qiymatlari, birlik reaksiyalarni o'zaro bog'lanish g'aqida teorema, birlik reaksiya bilan birlik ko'chishning o'zaro bog'lanish teorema, Statik usul, epyuralarni ko'paytirish usuli, ramalarni M, Q va N epyuralarni qurish, kanonik tenglama koeffisientlari, ozod hadlar, epyuralarni ko'paytirish usuli, Ramalarni M, Q va N epyuralarni qurish va ular bilan ishlash namunaviy misollar asosida tushuntirib o'tilgan.

“Qurilish mexanikasi va konstruksiyalari” fanini o'zlashtirish jarayonida bakalavr olgan bilimini fan sohalarida, ishlab chiqarish va ta'limda qo'llash xususiyatlari, kompyuterni dasturiy ta'minoti, loyiha hisoblarini o'timallashtirish va umumlashtirish, kompyuter texnologiyalari yutuqlarini zamonaviy hisoblash tizimlarining matematik va dasturiy ta'minotida qo'llash, dasturlash texnologiyalarini, tatbiqiy va hisoblash matematikasi masalalarini yechish ulardan foydalana olish, tadbiqiy masalalarni yechish algoritmini tuzish, matematik (komp'yuter) modelini qurish va uning dasturiy ta'minotini foydalanish, ko'nikmalariga ega bo'ladi.

1.1.Ma'ruza materiallari

1-mavzu. Qurilish mexanikasi faniga kirish.

Reja:

1. Qurilish mexanikasi fanining mohiyati va usullari.
2. Qurilish mexanikasi fanining qisqacha rivojlanish tarixi va boshqa fanlar bilan uzviy bog'liqligi.

Tayanch so'z va iboralar:

Loyihalash, ichki kuchlar, kuchlanish holati, konstruksiya, inshoot, mustakamlík, bikrlík, ustivorlik, ratsional shakl, haqiqiy shakl, to'liq shakl, hisob sxemasi, sterjenli sistemalar, plastinka, qobiq, massiv sistemalar, yassi va fazoviy sistemalar, yuklar, tayanchlar, reaksiya.

Qurilish mexanikasi faniga kirish.

Qurilish mexanikasi - konstruksiya va inshootlarning mustahkamligi, bikrligi va ustivorligini hisoblash printsiplari hamda metodlari to'g'risidagi fandır. Unda inshootlarning mustahkamligini hisoblash bilan birga ularning tashqi kuchlarga chidamli bo'lishini tahminlash masalasi tekshiriladi.

Inshootlarning ustivorligini hisoblashda konstruksiyalarning aynan o'rni va muvozonat holidagi shaklini deformatsiyalangandan keyin ham saqlab qolish qobiliyati aniqlanadi.

Inshootlarning katta ko'chish (siljish) tebranishlar ta'siriga chidamliligini, ulardan normal foydalanishni aniqlash maksadida bikrlikga hisoblanadi.

Inshootlarning mustahkamligi, bikrligi va ustivorligi masalalarini hal qilish uchun tashqi kuchlar ta'siridagi sistemalarda hosil bo'ladigan ichki zo'riqishlar va deformatsiyalarni aniqlash metodlarini bilish kerak.

Qurilish mexanikasining asosiy vazifalaridan biri-inshootlarda hosil bo'ladigan ichki zo'riqish kuchlari va deformatsiyalarini aniqlashdan iborat.

Agar inshoot elementlarining materiali va o'lchamlari ma'lum bo'lsa aniqlangan ichki zo'riqish kuchlari va deformatsiyalar miqdoriga ko'ra har bir element va butun inshootning mustahkamligi, bikrligi va ustivorligini tekshirish mumkin.

Qurilish mexanikasi statik va dinamik kuchlar ta'sirida bo'lgan inshootlarni hisoblash nazariyalari to'g'risida ma'lumot beradi.

Qurilish mexanikasining yana bir vazifasi – inshootlarning tuzilishi, uning elementlarining bir-biriga biriktirilishi qonunlarini tekshirish va ularning eng ratsional (havfsiz, tejimli) shakllarini yaratishdan iborat.

Inshootlar va ularni konstruksiyalarini hisoblashda har qanday muhandis 2 ta omilni: inshootga ta'sir qiluvchi kuchlarni va uning ta'siridan inshoot va uning elementlarida hosil bo'ladigan ichki zo'riqishlarni aniqlashni bilishi muhim ro'l o'ynaydi.

Qurilish mexanikasi fanining qisqacha rivojlanish tarixi

XIX asrning boshlariga kelib sanoat, temir yo'l transporti va gidrotexnika inshootlarning rivojlanishi quruvchilar oldiga yangi injenerlik masalalarini qo'ydi. Bu davrda temirdan tayyorlangan temir yo'l ko'priklari, katta oraliqli (proletli) fermalar qurilishi keng tarqaldi.

Rus mexanigi I.P.Kulibin (1735 — 1813) bu sohada o'zining bir qancha ixtirolarini e'lon qildi. U 1776 yilda Neva daryosiga mo'ljallangan, prolyoti 300 metrli arka tipidagi yog'och ko'priknı hisoblash nazariyasini yaratdi. Arka modelini (10 marta kichraytirilgan) 3500 pudli yuk bilan tekshirib sinab qurdi.

Rus ko'priksunos injeneri D. I. Juravskiy (1821 — 1891) o'z nazariyalari va eksperimental ishlari bilan qurilish mexanikasining rivojlanishiga katta xissa qo'shdi. U 1855 yilda tashqi kuchlar ta'sirida ferma elementlarida hosil bo'ladigan zo'riqishlarning qonunini aniqladi va ferma modelida tekshirib qurdi. Birinchi bo'lib balkalarni mustahkamligini faqat normal kuchlanishlariga emas, balki urinma kuchlanishlariga ham bog'liqligini, ularni aniqlash nazariyasini yaratadi. XIX asrning oxirida va XX asrning boshlarida konstruksiyalarning

murakkablashuvi mos holda ularning hisoblash sxemalarini murakkablashuviga sabab bo'ldi. Bu sohada ma'lum bo'lgan grafik metod ko'p masalalarni yechish imkonini bera olmas edi. Bunday sistemalarni hisoblash uchun yangi analitik metodlar yaratila boshladi.

Bu davrda qurilish mexanikasining rivojlanishiga buyuk olimlar D.Maksvell (1831 — 1879), O.Mor (1835 — 1918), D.Reley (1842 — 1919), S.P.Timoshenko (1878 — 1972) va boshqalar katta xissa ko'shdilar. Professor X.S.Golovin (1844 — 1904) arkalarni hisoblashda elastik nazariyasini tadbiq etdi qurilish mexanikasiga oid kitobini nashr qildi. Bulardan tashqari X.S.Golovin ko'p panjarali fermalarni taqribiy hisoblash usulini va qurilish mexanikasida eng kichik ish printsiptini yaratdi.

Professor F.S.Yasinskiy (1856 — 1899) yaratgan sterjenlarining ustuvorlik nazariyasi va fazoviy hamda panjarali simmetrik fermalarni hisoblash sohasidagi ishlari, olim va pedagog V.L. Kirpichevning grafostatikaga tegishli va statik aniqmas sistemalarni hisoblash nazariyasi, professor L.D.Prosquryakovning (1859 — 1926) grafik va grafoanalitik hisoblash metodlari va Rossiya fanlar akademiyasining faxriy a'zosi V.G.SHuxovning (1853 — 1939) ko'pgina asarlari giperbolik shaklidagi po'lat minoralari va boshqa ishlari qurilish mexanikasining rivojlanishiga katta xissa qo'shdi. Statik aniqmas sistemalarni hisoblash nazariyasining rivojlanishda B. G. Golyorkin, I. M. Rabinovich, N. S. Streletskiy, A. A. Gvozdev, B. N. Jemochkin, N. I. Bezuxov, I. P. Prokofg'ev, A. P. Filin, V. A. Kiselyov va boshqa ko'pgina olimlarning asarlari, O'zbekistonlik olimlar M. T. O'rozboev, X. A. Raxmatulin, V. K. Qobulov, T. R. Rashidov, T. SH. SHirinqulov, K. S. Abdurashidov va boshqalarning ishlari salmoqli bo'lib ko'shildilar.

Inshootlarning dinamikasi hamda ustuvorlik nazariyalariga ta'luqli masalalar A. N. Dinnik, K. S. Zavriev, N. V. Kornousov, N. K. Snitko, A. F.Smirnov, V. V.Bolotin, I. P.Prokofg'ev, Ya. M. Ayzenberg, A.I.TSeytlin va boshqa olimlarning asarlarida rivojlantirildi. V. Z. Vlasovning tadqiqod ishlarida qobiqlarni hisoblash nazariyasi to'la bayon etildi va injenerlik masalarini yechishda ularni amaliy tadbiq qilish yo'llari ko'rsatildi.

Elastik asosda yotuvchi sistemalarni hisoblash nazariyasining rivojlanishiga A. N. Krqlov, N. P. Puzqryovskiy, G. D. Dutov, B. N. Gorbunov, A. A. Umanskiy va boshqa olimlarning ishlari katta hissa bo'lib ko'shildi. A.A. Ilyushin, A. A.Gvozdeev, N. S.Streletskiy, N. N. Golg'denblat va boshqa olimlar yaratgan chekli holat uslubi qurilish normalari va qoidalariga (SNIP) kiritildi.

2-mavzu. Inshootlar hisoblash sxemalari va ularning turlari

Reja:


1. Inshootlar hisoblash sxemalarini tanlash.
2. Inshootlar klassifikatsiyasi.
3. Inshootlarga ta'sir etuvchi yuklar va ularning klassifikatsiyasi

Tayanch so'z va iboralar:


Loyihalash, ichki kuchlar, kuchlanish holati, konstruksiya, inshoot, mustakamlik, bikrlilik, ustuvorlik, ratsional shakl, haqiqiy shakl, to'liq shakl, hisob sxemasi, sterjenli sistemalar, plastinka, kobiq, massiv sistemalar, yassi va fazoviy sistemalar, yuklar, tayanchlar, reaksiya.

Inshoot va tuzilmalar (konstruksiyalar)ining hisobini osonlashtirish uchun ularning haqiqiy sxemasi hisoblash sxemasi bilan almashtiriladi.

Inshootlarning asosiy xususiyatlarini hisobga oluvchi uning soddalashtirilgan tasviri (sxemasi) hisoblash tasviri deyiladi. Hisoblash tasviri imkoni boricha ko'proq haqiqiy tasvirni ifodalashi zarur. 1.1, 1.2—rasmlarda ba'zi inshootlar, ularning to'liq va hisoblash tasvirlari ko'rsatilgan.



1.1.-rasm




1.2 — rasm

Inshootlar va ularning hisoblash sxemalari elementlarning geometrik shakliga ko‘ra quyidagicha klassifikatsiyalanadi (turlanadi):

Sterjenlar birikmasidan tashkil topgan inshootlar (1.3a—rasm) sterjenli sistemalar deyiladi.


Plastinka, plita va qobiqlar hamda ularning birikmasidan tashkil topgan inshootlar (1.3b — rasm).

Uch o‘lchami bir-biriga yaqin bo‘lgan inshootlar (1.3a—rasmda) massiv sistemalar deyiladi.



1.3-rasm

Inshootlar elementlarning joylashuviga ko‘ra yassi va fazoviy sistemalarga bo‘linadi (1.4 — rasm).



1.4 – rasm

Inshootlarning fizik hisoblash modeli tanlangandan so'ng hisoblash usuli (metodi) tanlanadi va uning yordamida hisoblash modeli o'rganiladi.

Tashqi yuklar va ularning turlari

Yuklarning uchta asosiy guruhi bo'lishi mumkin:

1. Foydali yuklar — inshoot qabul qilishi lozim bo'lgan yuklar. Masalan, odamlar, asbob-uskunalar, avtomobillar va hokozo.
2. Inshootlarning xususiy og'irligi.
3. Qor va shamol (atmosfera) yuklari (ta'siri).

Yuklarning ko'yilishiga qo'ra ular to'plangan va taralgan (yoyilgan) bo'ladi.

Yuklar ta'sir qilish vaqtiga ko'ra doimiy va muraqqat yuklarga bo'linadi. Ta'sir qilish harakteriga ko'ra statik va dinamik bo'ladi.

Statik kuchlar ta'siridan inshoot qisimlarida inersiya kuchi hosil bo'lmaydi.

Inshootga ta'sir qiluvchi yuklar kuzgalmas va harakatlanuvchi yuklar guruhiga bo'linadi.

Inshootlar tayanchlarining cho'kishi va tashqi haroratning o'zgarishi natijasida ham ularga ta'sir etuvchi qo'shimcha yuklar hosil bo'lishi mumkin.

Inshootga ta'sir qiluvchi yuklar ko'zgalmas va harakatlanuvchi yuklar guruhiga bo'linadi.

Inshootlar tayanchlarining cho'kishi va tashqi haroratning o'zgarishi natijasida ham ularga ta'sir etuvchi qo'shimcha yuklar hosil bo'lishi mumkin.

Tashqi yuklarning turlari materiallar qarshiligida o'rganilgan turlarga aynan mosdir. SHu bilan birga qurilish mexanikasida qo'yilish nuqtasiga qarab quyidagi turlarga bo'linadi:


1. Qo'zgalmas yuklar – bu yuklar inshootga ta'sir qilish davrida o'z o'rnini o'zgartirmaydi.
2. Qo'zgaluvchan yuklar – inshootga qo'yilgan o'rnini o'zgartiradigan yukdir.

Inshootga bir necha turdagi yuklar ta'sir qilganda ularni birgalikda qarash uchun asosiy va maxsus birikmalar qaraladi. Buning natijasida hisobiy zo'riqishlar aniqlanadi. So'ngra shu zo'riqish asosida konstruktiv yechimlar tanlanadi. Bunda qo'llanadigan koeffisientlar inshootning va materialning turiga muvofiq qurilish meyorlarida va qoidalarida keltirilgan bo'ladi.

Tayanch va ularning turlari

Inshootlarni asos bilan biriktiruvchi va ularning ko'chishini cheklovchi qurilmalar tayanchlar deb ataladi.


Tekis inshootlar tayanchlari asosan quyidagi turlarda bo'ladi: 1. SHarnirli qo'zgaluvchan tayanch (1.5 — rasm). 2. SHarnirli qo'zgalmas tayanch (1.6 — rasm).



1.5 - rasmi

1.6 - rasmi

3. Qistirib mahkamlangan tayanch (1.7 — rasm):



1.7 — rasm

Mustaqil ishlash va nazorat savollari:

1. Qurilish mexanikasi fani nimani o'rgatadi?
2. Qurilish mexanikasi fanining rivojlanishi qaysi davrdan boshlandi?
3. Fanni rivojlanishiga hissa qo'shgan qaysi o'zbekistonlik olimlarni bilasiz?

4. Inshootlar hisoblash sxemasi deganda nima tushuniladi? Uni tanlashda qanday fikr mulohazalarga tayanish kerak?
5. Qanday sistemalar sterjenli sistema deyiladi?
6. Qanday sistemalar tekis yoki fazoviy sistemalar deyiladi?
7. Qanday ta'sirlar inshootlarga qo'yilgan yuk bo'ladi?
8. Yuklarning turlarini ayting?
9. Tayanchlar qanday vazifani bajaradi?
10. Tayanch reaksiyalari nima?

3-mavzu. Inshootlar hisoblash sxemalarining kinematik analizi

Reja:

1. Tayanchlar va ularning turlari.
2. Geometrik o'zgarimas, o'zgaruvchan va oniy o'zgaruvchan sistemalar. Sistemalarning erkinlik darajasi.
3. Sterjenli sistemalarning geometrik o'zgarimasligining zaruriy sharti.


Tayanch so'z va iboralar:

Loyihalash, ichki kuchlar, kuchlanish holati, konstruksiya, inshoot, mustakamlik, bikrlík, ustuvorlik, ratsional shakl, haqiqiy shakl, to'liq shakl, hisob sxemasi, sterjenli sistemalar, plastinka, qobiq, massiv sistemalar, yassi va fazoviy sistemalar, yuklar, tayanchlar, reaksiya.

Inshootlar sxemalarining kinematik analizi

Kinematik analizdan kuzlangan maqsad bir-biri bilan sharnirli yoki tashqi yuklar ta'sirida o'zining shakli va holatini o'zgartirmasligi lozim.

Bunday talabni qanoatlantiruvchi inshoot geometrik o'zgarimas sistema bo'ladi. Inshoot shakli yoki holatining o'zgarishi uni tashqil etuvchi elementlarning deformatsiyalanishi tufayliga sodir bo'lishi mumkin. Har bir inshootni hisoblashdan oldin uning sxemasini geometrik o'zgarimaslik shartlariga asosan kinematik alaliz qilish kerak. Masalan, 1.6-rasmda tasvirlangan sistemaning sterjenlaridagi zuriqishlari aniqlash mumkin emas, chunki oz miqdordagi P kuchning ta'siri ham uning shakli va holatini o'zgartiradim. Demak, berilgan sistema geometrik o'zgaruvchan sistema, ya'ni mexanizmdir. Sistema geometrik o'zgarimas bo'lishi uchun unga qo'shimcha bog'lovchi element (masalan, BC)ni kiritish kerak (1.6-rasm,b).



1.6 - rasm


Sistemani asosiy hamda yordamchi elementlarga ajratishda va ularning bir-biri bilan qanday bog'lanishda ekanligini tekshirishda kinematik analizning ahamiyati katta. Kinematik analiz yordamida sistemaning geometrik o'zgarimas yoki o'zgaruvchi ekanligi bilib olinadi. Faqat geometrik o'zgarimas inshootlarga tashqi yuklarni qabul qilib, ularga qarshilik ko'rsatishi, ya'ni yuklar ta'sirida ishlashi mumkin.

Yassi sistemalarning erkinlik darajasi.

Har qanday yassi jism yoki yassi jismlar sistemasining tekislikda olgan urnini tula aniqlab beruvchi, bir-biriga bog'liq bo'lmagan geometrik parametrlar miqdori shu sistemaning erkinlik

darajasi soni deb ataladi. Tekislikda olingan biror A nuqtaning ixtiyoriy qabul qilingan qo'zg'almas koordinatalar o'qiga nisbatan olgan urni ikkita koordinata X_A, U_A bilan aniqlanadi. Shuning uchun nuqtaning o'zi yotgan tekislikdagi erkinlik darajasi soni ikkiga teng bo'ladi.

Har qanday geometrik o'zgaras tekis sistema disk deb ataladi. Masalan: sterjen, plastinka, balka va fermalarni disk deb qabul qilish mumkin. Tekislikdagi biror diskning koordinatalar uqiga nisbatan olgan o'rni uchta parametr X, U va φ_{AV} bilan aniqlanadi (1.7-rasm). Demak, har bir disk o'zi yotgan tekislikda uchta erkinlik darajasiga ega bo'ladi. Diskning erkin harakatini, ya'ni erkinlik darajasini turli qurilmalar yordamida cheklash mumkin. Bitta erkinlik darajasini cheklovchi qurilma kinematik bog'lanish deiladi. Bunga misol qilib, ikkita diskni bir-biri bilan bog'lovchi sterjenni ko'rsatish mumkin (1.8 - rasm,a). Bu sterjen ikkinchi



1.7 -rasm

diskning birinchi diskka nisbatan chiziqli ko'chishiga qarshilik ko'rsatadi. Ikki disk bir-biri bilan silindrik sharnir vositasida bog'langanda birinchi diskka nisbatan ikkinchi disk ikkita erkinlik darajasini yuqotadi. Demak, silindrik sharnir ikkita sterjenga ekvivalentdir. Inshootlarning hisoblash sxemalari, asosan, geometrik tekis elementlar (disklar)dan iborat bo'lgan kinematik zanjirlardan tuziladi. Bu disklar (elementlar) bir-biriga sharnirlar yordamida, yerga esa tayanch sterjenlar orqali bog'lanadi.

Bunday murakkab sistemaning erkinlik darajalari soni quyidagicha aniqlanadi. Sistemadagi disklar soni D bo'lsa, uning erkinlik darajasi soni $3D$ bo'ladi, chunki har bir disk uchta erkinlik darajasiga ega. Bu disklar bir-biri bilan SH ta oddiy sharnirlar bilan bog'langan bo'lsa, sistemaning erkinlik darajasi $2SH$ ga kamayadi, chunki har bir sharnir ikkita erkinlik darajasini yuqotadi. Sistemani yerga bog'lovchi har bir tayanch sterjen uning bitta erkinlik darajasini yuqotadi. Demak, murakkab sistemaning erkinlik darajasi soni W quyidagi ifodaga asosan to'g'ri keladi:

$$W = 3D - 2SH - C_T,$$

bunda D - disklar soni, SH - diskarni o'zaro bog'lovchi oddiy sharnirlar soni, C_T - tayanch sterjenlar soni.

Agar berilgan sistema uchun $W > 0$ bo'lsa, sistema geometrik o'zgaruvchidir; $W = 0$ bo'lsa, sistema geometrik o'zgaras; $W < 0$ bo'lganda esa sistema geometrik o'zgaras bo'lish bilan birga, o'z tarkibida ortiqcha bog'lanishlariga ega bo'ladi. Ortiqcha bog'lanishlarga ega bo'lgan sistemalar statik anikmas sistemalar deyiladi.

Agar berilgan sistemaning biror sharnirli tugunida bir necha disklar bir bilan bog'langan bo'lsa, bunday sharnir murakkab sharnir deb ataladi. Murakkab sharnirli sistemalarning erkinlik darajalari soni (1.1) formula bilan aniqlanadi; lekin murakkab sharnirlar sonini oddiy sharnirlar soni bilan almashtirish kerak.

Agar murakkab sharnirda n ta disklar bir biri bilan bog'langan bo'lsa, uning oddiy sharnirlar soni bog'langan disklar sonidan bitta kam $(n-1)$ bo'ladi.

Inshootlar geometrik strukturasi analiz. Tekis sistemalarning geometrik o'zgaras ekanligi ishonch hosil qilish uchun $W < 0$ shart bajarilishi bilan birga uning geometrik tuzilishini analiz qilish kerak.

Agar berilgan sxema uchun $W < 0$ shart bajarilgan bo'lsa, u geometrik o'zgaruvchan bo'lishi ham mumkin. Masalan, 1.11- rasm, a va b da ko'rsatilgan ikki sistemadagi disklar soni $D=3$, oddiy sharnirlar soni $SH=2$ va tayanch sterjenlar soni $C_T=5$ bir xildir. U holda ularning erkinlik darajasi (1.1) formulaga asosan:




1.11 -rasm

$$W = 3 \cdot 3 - 2 \cdot 2 - 5 = 0$$

Birinchi sxema (1.11-rasm,a) geometrik o'zgar emasdir. Lekin 2-sxemaning 3-prolyotidagi S sharniri pastga yoki yuqoriga erkin ko'chishi mumkin. Demak, balkaning VSD qismi geometrik o'zgaruvchan va AV qismi esa ortiqcha tayanch bog'lovchiga ega.

Inshootlar geometrik strukturasi tahlili.

Tekis sistemalarning geometrik o'zgar emas ekanligiga ishonch hosil qilish uchun $W \leq 0$ shart bajarilishi bilan birga uning geometrik tuzilishini analiz qilish kerak. Masalan, 2.5 – rasmda $W \leq 0$ sharti bajarilgan bo'lsa ham, geometrik o'zgaruvchan bo'lgan balka ko'rsatilgan.




2.5 — rasm

Erkinlik darajasi $W = 3 \cdot 3 - 2 \cdot 2 - 5 = 0$.


Inshootni hisoblash sxemasi geometrik o'zgar emas bo'lish uchun ular yer bilan va o'zaro quyidagi shartlarga asosan bog'langan bo'lishi kerak.

1) Bir disk va uch sterjenlardan iborat bo'lgan sistema (2.6 — rasm)



2.6 — rasm


2) Ikki disk, bir sterjen' va bitta oddiy sharnirdan yoki 3ta sterjendan iborat sistema (2.7 — rasm).



2.7 — rasm

Demak, ikki disk o'zaro geometrik o'zgar emas bo'lish uchun ular bitta sharnir va bitta sterjen bilan bog'langan yoki bir nuqtada kesishmovchi 3 ta sterjen bilan bog'langan bo'lish kerak.

3) Uchta diskni geometrik o'zgar emas qilib bog'lash uchun bir to'g'ri chiziqda yetmagan uchta oddiy sharnir yoki 6ta sterjen kerak bo'ladi (2.8— rasm). Aks holda hosil bo'lgan sistema oniy o'zgaruvchan bo'ladi.




1.8 — rasm

Demak, $W \leq 0$ shart sistemaning geometrik o'zgarimas bo'lishi uchun zarur, lekin yetarli emas ekan. SHuning uchun $W \leq 0$ bo'lishidan tashqari sistemaning elementlari bir-biri bilan yuqorida keltirilgan shartlarga binoan bog'likligini tekshirish kerak.

Demak, $W \leq 0$ shart sistemaning geometrik o'zgarimas bo'lishi uchun zarur, lekin yetarli emas ekan. SHuning uchun $W \leq 0$ bo'lishidan tashqari sistemaning elementlari bir-biri bilan yuqorida keltirilgan shartlarga binoan bog'liqligini tekshirish kerak.

Bir to'g'ri chizig'da yotgan ikkita to'g'ri chizig'dan iborat sistema, oniy o'zgaruvchi sistema bo'ladi (2.9 — rasm).



2.9 — rasm


Oniy o'zgaruvchi sistemalarda tashqi yuklar ta'siridan yoki ularning ta'sirisiz cheksiz katta zo'riqishlar yoki noaniqlikka ega bo'lgan zo'riqishlar hosil bo'ladi. Bu bunday sistemalarning statik belgisi bo'ladi. 2.9-rasmda ko'rsatilgan oniy o'zgaruvchi sistemaning hisoblash sxemasini (2.9-rasm) qaraylik:

$$\sum y = 0, 2X \cdot \sin \alpha - R = 0, X = R / 2 \sin \alpha$$

Agar $\alpha \rightarrow 0$ bo'lsa, noma'lum kuch X katta yoki cheksiz qiymatlarga teng bo'ladi.

Bundan tashkari, oniy o'zgaruvchanlikni aniqlash uchun yuklanmagan sistemalar o'rganiladi. Agar sistema oniy o'zgaruvchi bo'lsa, u holda tayanch reaksiyalari noaniqlikka teng bo'ladi.

Ferma konstruksiyasi uch burchakdan iborat bo'lganligi sababli geometrik o'zgarimas sistemalariga kiradi (2.10-rasm).



2.10 — rasm

SHarnirli-sterjenli sistemalarning (fermalarni) erkinlik darajasi quyidagi formula yordamida aniqlanadi.


$$W = 2Y - C - C_{\text{tayanch}} \quad (1.2)$$

Bu yerda Y – tugunlar soni, S – sterjenlar soni, S_t – tayanch sterjenlar soni.

Tayanchlardan ajratilgan sistemalar uchun (2.10 – rasm).

$$V = W - 3 = 2Y - C - 3 \text{ geometrik o'zgarimaslik sharti } V = 0 \text{ bo'ladi yoki } 2Y - C = 3 \text{ bu yerdan } C = 2Y - 3$$

Agar $C < 2Y - 3$ bo'lsa sistema geometrik o'zgaruvchan bo'ladi (2.11a – rasm).



2.11 — rasm

$C \geq 2Y-3$ sharti zaruriy bo'lsa ham, lekin yetarli emasdir (2.11 b, v – rasmlar).

Mustaqil ishlash va nazorat savollari:

1. Qanday sistema geometrik o'zgarimas deyiladi?
2. Qanday sistema geometrik o'zgaruvchi deyiladi?
3. Tekis sterjenli sistemalarning erkinlik darajasi deb nimaga aytiladi?
4. «Disk» deganda nimani tushunasiz?
5. Kinematik bog'lanishlarning vazifasi nima?
6. Oniy o'zgaruvchi sistema deb, qanday sistemaga aytamiz?
7. Tayanchlarning kinematik va statik xususiyatlari qanday?
8. Oddiy tsilindrlik sharnir nima degani va u nechta kinematik bog'lanishga teng kuchli?
9. Karrali (murakkab) sharnir qanday sharnir? Oddiy sharnirlar soni orqali karrali sharnirlar qanday aniqlanadi?
10. Turli sistemalarning erkinlik darajasini aniqlash formularini yozing.
11. Sistemaning erkinlik darajasiga bog'lik uchta mumkin bo'lgan holatni ayting.
12. Inshootlar oniy o'zgaruvchanligining statik belgilarini ayting.

4-mavzu. Oddiy va konsol balkalarda zo'riqishlarning ta'sir chiziqlari

Reja:

1. Harakatlanuvchi yuklar va ta'sir chiziqlari haqida tushuncha.
2. Tayanch reaksiyalarning ta'sir chizig'i.
3. Oddiy va konsol balkalarning biror kesimi uchun ichki zo'riqishlarning ta'sir chizigini chizish.
4. Ta'sir chiziqlari yordamida zo'riqishlarni aniqlash

Tayanch so'z va iboralar:


Harakatlanuvchi yuklar, harakatlanuvchi birlik kuch, ta'sir chizig'i, reaksiyaning ta'sir chizig'i, eguvchi moment va kesuvchi kuchlarning ta'sir chiziqlari, statik usul, $R=1$ kuchining xolatlari, oddiy balkalarda ta'sir chiziqlarini qurish, konsolli balkalarda ta'sir chiziqlari, harakatlanuvchi to'plama kuchlar, chiziqli taralgan kuchlar, juft kuchlar ta'siri, zo'riqishlarni aniqlash formulalari, yuklarni tugunlar orqali ta'siri, asosiy balka, ko'ndalang va bo'ylama, yordamchi balkalar, tugun orqali uzatilish holati, $R=1$ kuchi asosiy balka tugunida, $R=1$ bo'ylama yordamchi balkada, R_A va R_B reaksiyalar, M_C va Q_C zo'riqishlar ta'siri chiziqlari

Harakatlanuvchi kuchlar sistemasi qo'yilgan balkalarni hisoblash uchun ularni avval birlik ko'chma kuch ($P=1$) ta'siriga hisoblash kerak. Balkaning tayanch reaksiyalari, eguvchi moment va ko'ndalang kuchlarning miqdorlari uning ustida harakatlanuvchi birlik kuchning vaziyatiga bog'liq (2.1-rasm):

$$A = f_1(x); \quad B = f_1(x); \quad M = f_3(x); \quad \text{va} \quad Q = f_2(x); \quad (2.1')$$

Ta'sir chizig'ini qurish uchun birlik kuch ($P=1$) balka ustidagi ma'lum nuqtalarga ketma-ket qo'yilib, bizni qiziqtirayotgan miqdorning o'zgarish qonunini ifodalovchi funksiya (2.1) aniqlanadi. So'ngra bu funksiyaning grafigi chiziladi.

Oddiy balka tayanch reaksiyalarining ta'sir chizig'i. Chap tayanch reaksiyasining ta'sir chizig'ini qurish uchun balka ustida harakatlanuvchi birlik yukni ($P=1$) chap tayanchdan x masofada joylashtiramiz va statikaning muvozanat tenglamasini yozamiz (2.1-rasm):



2.1-rasm

$$\sum M_B = 0, Al - P(1-x) = 0.$$

Bundan,

$$A = P \frac{l-x}{l} \quad \text{yoki} \quad A = \frac{l-x}{l} \quad (2.2)$$

(2.2) ifoda tayanch reaksiyasi A ning ta'sir chizig'i tenglamasidir. O'zgaruvchan absissa x birinchi darajali bo'lgani uchun (2.2) ifoda to'g'ri chiziq tenglamasi bo'ladi.

Tayanch reaksiyasi A ning ta'sir chizig'ini chizish uchun (2.2) tenglamadagi absissa x ga $0 \leq x \leq l$ oraliqda qiymatlar beramiz ($P=1$) yuk chap va o'ng tayanchlar orasida harakatlanadi). $x=0$ da $A=1$ va $x=l$ bo'lganda $A=0$ bo'ladi.

Koordinatalar sistemasida A tayanchning tagiga biror masshtabda birga teng bo'lgan ordinatani $x=0$ da $A=1$, B tayanchning tagiga esa nolga teng bo'lgan ordinatani $x=l$ da $A=0$ qo'yib, hosil bo'lgan nuqtalarni to'g'ri chiziq bilan birlashtiramiz (2.2-rasm, b). Bu grafik reaksiya A ning ta'sir chizig'i bo'ladi. Uni qisqacha A t.ch. deb belgilaymiz

A ta'sir chizig'ining har bir ordinatasi harakatlanuvchi birlik kuch shu ordinataga to'g'ri kelgan kesim ustida turgan vaziyatida hosil bo'lgan A tayanch reaksiyasining qabul qilingan masshtabdagi miqdorini ifodalaydi.

O'ng tayanch reaksiya B ning ta'sir chizig'ini quramiz. Birlik yuk ($P=1$) ni chap tayanchdan x masofada balka ustida turgan vaziyati uchun statikaning $\sum M_A = 0$ muvozanat tenglamasini yozamiz (2.1-rasm):

$$-Bl + Px = 0, \quad \text{bundan} \quad B = \frac{x}{l}. \quad (2.3)$$

(2.3) tenglik B tayanch reaksiyasining ta'sir chizig'i tenglamasidir, bunda $0 \leq x \leq l$ $x=0$ da $B=0$ $x=l$ da esa $B=1$ bo'ladi.

B tayanch reaksiyasining ta'sir chizig'ini chizish uchun koordinatalar sistemasida o'ng tayanch ostiga birga teng bo'lgan ordinatani, chap tayanch tagida esa nollik ordinatani qo'yib nuqtalarni to'g'ri chiziq bilan birlashtiramiz. Bu grafik (2.2-rasm, v) B reaksiyaning ta'sir chizig'i

(V t.ch.) bo'ladi.


(2.2) va (2.3) ifodalarga ko'ra, A va B tayanch reaksiya ta'sir chiziqlarining ordinatalari musbat ishorali bo'lib, o'lchamsiz miqdordir.

Ko'ndalang kuchning ta'sir chizig'i. Balkaning berilgan kesimi C dagi ko'ndalang kuch Q_c ning ta'sir chizig'ini qurish uchun birlik kuch ($P=1$) ning ikki vaziyatini tekshirish kerak (2.2-rasm).

Birinchi vaziyat. Birlik ko'chma kuch ($P=1$) C kesimdan chap tomonda harakat qiladi, ya'ni $0 \leq x \leq a$. Balka o'ng tomoning muvozanatini ko'rib Q_c^{uan} ni aniqlaymiz:

$$\sum Y = 0, \quad \text{bundan} \quad Q_c^{uan} = -B = -\frac{x}{l}. \quad (2.4)$$

Ikkinchi vaziyat. Birlik ko'chma kuch C kesimdan o'ng tomonda harakat qilsin. Unda $0 \leq x \leq 1$ (2.2-rasm). Balka chap qismining muvozanatini tekshiramiz: $Q_C^{uan} = -A = -\frac{x}{l}$. (2.4')



2.2 - rasm

(2.4) ga asosan, Q_C^{uan} chap chiziq ordinatalari chap tayanchdan C kesimgacha balkaning B tayanch reaksiyasi ta'sir chizig'ining teskari ishora bilan olingan ordinatalari qiymatiga va (2.4') ga asosan, Q_C^{yuz} chiziq esa C kesimdan balkaning oxirigacha A reaksiyaning ta'sir chizig'iga mos keladi. Q_c ning ta'sir chizig'ini chizish uchun chap tayanch ostiga biror masshtabda musbat birlik ordinata qo'yib, uni o'ng tayanch tagidagi nollik ordinata bilan tutashtiramiz (bu o'ng chiziq deb ataladi), so'ngra o'ng tayanch ostiga manfiy birlik ordinata ko'yib, uni chap tayanch tagidagi nollik ordinata bilan tutashtiramiz (bu o'ng chiziq deb ataladi), so'ngra o'ng tayanch ostiga manfiy birlik ordinata qo'yib, uni chap tayanch tagidagi nollik ordinata bilan tutashtiramiz (chap chiziq).


O'ng va chap chiziqlar bir-biriga parallel bo'ladi. Chap chiziq balkaning chap tayanchidan C kesimgacha, o'ng chiziq esa C kesimdan o'ng tayanchgacha Q_c ning o'zgarishini ifodalaydi (2.2-rasmdagi shtrix chiziq). Ko'ndalang kuch ta'sir chiziqlarining ordinatalari yuqorida keltirilgan tenglamalarga asosan o'lchamsiz miqdordir.

Eguvchi momentning ta'sir chizig'i. Balkaning C kesimida hosil bo'ladigan eguvchi moment ta'sir chizig'ini qurish uchun ham birlik kuchning ikki holatini tekshiramiz (2.3-rasm).

Birinchi holat. ($P=1$) kuch C kesimning chap tomonida harakatlanadi. ($0 \leq x \leq a$) a deb faraz qilib (2.3-rasm.), M_C^{uan} eguvchi moment tenglamasini balkaning o'ng tomoni muvozanatiga asosan yozamiz:

$$M_C^{uan} = B(1-a) = x/l \quad (2.5)$$

Bu tenglama $P=1$ yuk chap tayanchdan kesimgacha harakatlanganda M_C eguvchi moment qiymatining o'zgarishini ifodalaydi. Uning grafigini (chap chiziq deb ataladi) chizish uchun, o'ng tayanch ostiga $1-a$ o'zgarmas songa teng ordinata qo'yib, A tayanch ostidagi nollik ordinata bilan birlashtiramiz.



2.3 - rasm

Ikkinchi holat $P=1$ ko'chma kuch C kesimning o'ng tomonida (2.3-rasm, b) harakat qiladi ($a \leq x \leq 1$) deb, M_C^{yuz} ni aniqlaymiz. Balka chap tomonining muvozanatini tekshiramiz, bunda:

$$M_C^{yuz} = A \cdot a = (1 - x/1) \cdot a \quad (2.5')$$

Demak, M_C^{yuz} chiziq bu chegarada A reaksiyaning ta'sir chizig'i ordinatorini a o'zgarmas so'ngra ko'paytirib chizilganiga to'g'ri keladi. Bu chiziq o'ng chiziq deyiladi (2.3-rasm,).

Chap chiziq bilan o'ng chiziq C kesim tagida kesishadi, chunki $X = a$ ni (2.5) va (2.5') ifodalarga qo'ysak M^{uan} va M^{yuz} ordinatorlarning tengligini ko'ramiz. M_C ta'sir chizig'ining ordinatasi $P=1$ ko'chma yuk shu ordinata ustida turganida C kesimda hosil bo'lgan eguvchi momentning miqdorini qabul qilingan masshtabda ifodalaydi. (2.5) va (2.5') formulalarga asosan, bu ordinatorning o'lchov birligi metr bo'ladi.


Ikki konsolli balka uchun ta'sir chizig'ini qurish. Ikki konsolli balka uchun tayanch reaksiyalari va uning biror kesimidagi Q_C hamda M_C ning ta'sir chiziqlarini chizishda oddiybalka uchun olingan formulalardan foydalaniladi. Masalan, balka chap tayanch reaksiyasi A ning ta'sir chizig'ini chizish uchun birlik yukni A tayanchdan o'ng tomonda x masofada joylashtiramiz (2.4 - rasm,a). $\sum M_B = 0$ tenglamadan $A = 1 - x/1$ ni hosil qilamiz. Demak, bu ifodadagi absissa x ga $-a \leq x \leq 1+b$ oraliqda qiymatlar beramiz:

$$x = 0 \text{ da } A = 1, \quad x = 1 \text{ da } A = 0, \quad x = 1+b \text{ da } A = -b/1 \quad x = -a \text{ da}$$

$$A = \frac{l+a}{l} = 1 + \frac{a}{l}$$

Bu ordinatorlar yordamida chizilgan A ning ta'sir chizig'i 2.4-rasm,b da ko'rsatilgan. B tayanch reaksiyasining ta'sir chizig'i ham (2.3) formuladan foydalanib chiziladi (2.5-rasm,v):

$$B = \frac{x}{l}$$



2.4 - rasm

Demak, konsolli balka tayanch reaksiyalarining ta'sir chiziqlari oddiybalka tayanch reaksiyalari ta'sir chiziqlar kabi chizilib, so'ngra ular konsolning uchlarigacha davom yettiriladi.

Konsolli balkaning oraliqida C kesimidagi Q_C va M_C larning ta'sir chizig'i oddiybalkalardagi ko'ndalang kuch va eguvchi momentning ta'sir chiziqlari kabi chizilib, so'ngra chap chiziqni chap tomondagi konsolning oxirigacha, o'ng chiziqni esa o'ng tomondagi konsolning oxirigacha davom yettiriladi (2.4 - rasm, g va d). Konsolli balkaning konsol qismidagi kesimi uchun ko'ndalang kuch va eguvchi momentning ta'sir chiziqlarini quramiz. Masalan, berilgan C_1 kesim balkaning chap konsolida bo'lsin (2.4-rasm,a). Birlik yuk $P=1$ bu kesimdan chap tomonda harakatlanganda ($0 \leq x_1 < a$), konsol qismining muvozanatini ko'ramiz. Bunda $Q_{c_1}^{uan} = -P = -1$ bo'ladi. Demak, $Q_{c_1}^{uan}$ ning chap chizig'i konsol uchidan kesimgacha sanoq o'qiga parallel bo'ladi (2.4 - rasm, e).

Birlik yuk $P=1$ C_1 kesimdan o'ng tomonda bo'lsin [$a_1 \leq x \leq a$] Bunda ham konsol chap qismining muvozanatini ko'ramiz: $Q_{c_1}^{yhz} = 0$ Demak o'ng chiziq nol bo'lib sanoq chizig'ining ustida yotadi (2.4- rasm, e)

M_{c_1} ta'sir chizig'ini qurish uchun ham birlik yukning ikki holatini tekshiramiz. Birlik yuk C_1 kesimdan chap tomonda harakat qiladi

($0 \leq x_1 < a$), U holda $M_C^{uan} = -P(a_1 - x_1)$ va $x_1 = 0$ da $M_{c_1}^{uan} = -a$ va $x = a$ da $M = 0$ bo'ladi. Chap chiziqni chizish uchun koordinatalar sistemasida $x_1 = 0$ kesimdagi ordinata a_1 ni masshtabda ko'yib, $x = a$ kesimdagi nol ordinata bilan birlashtirish kerak (2.4-rasm,j). Birlik yuk C kesimdan o'ng tomonda bo'lganda esa $M_{c_1}^{uan} = 0$ bo'ladi. Demak, o'ng chiziq nolinni bo'lib, sanok chizig'i ustida yotadi. M_{c_1} ta'sir chizig'ining chap o'ng chiziqlari C kesimning tagida kesishadi. Agar C_2 kesim balkaning o'ng konsolida bo'lsa, u holda Q_{c_2} va M_{c_2} uchun ta'sir chiziqlar yuqoridagi kabi chiziladi.

Yuk tugunlar orqali uzatilganda ta'sir chiziqlarini chizish, ta'sir chizig'i yordamida zo'riqlashlarni aniqlash.


Qo'zg'almas yuklar qo'yilgan inshootning zo'riqlash, ya'ni eguvchi moment, ko'ndalang kuch va tayanch reaksiyalari miqdorini ta'sir chizig'i yordamida aniqlashni ko'ramiz. Masalan, vertikal qo'zg'almas yuklar ta'sirida bo'lgan inshootning biror S zo'riqlashi uchun ta'sir chizig'i qurilgan bo'lsin (2.5-rasm). Bu zo'riqlash ta'sir chizig'ining har bir u_i ordinasida birlik yuk $P=1$ shu ordinata ustida bo'lganida S zo'riqlashning miqdorini ifodalaydi.

1. Inshootga to'plangan kuchlar sistemasi ko'yilgan bo'lsin. Agar S zo'riqlash ta'sir chizig'ining y_1 ordinasida ustiga biror P_1 kuch qo'yilgan bo'lsa, u holda zo'riqlashning miqdori $P_1 \cdot y_1$; P_2 kuch ta'sirida esa S zo'riqlashning miqdori $P_1 \cdot y_2$ bo'ladi; boshqa to'plangan kuchlardan ham zo'riqlashning miqdori shunga o'xshash aniqlanadi (2.5 - rasm).

Agar inshootga n ta to'plangan kuchlardan iborat yuklar sistemasi qo'yilgan bo'lsa, hosil bo'lgan to'la zo'riqlashning miqdori, kuchlar ta'sirining mustaqilligi prinsipiga asosan quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$S = P_1 y_1 + P_2 y_2 + \dots + P_n y_n = \sum P_i y_i \quad (2.6)$$

bunda y_i - ta'sir chizig'idan P_i kuch ostida olingan ordinata.



2.5 - rasm

(2.6) formulada ordinatalar S_3 ishoralari bilan olinadi.

Tashqi kuchlar sistemasi ta'sirida inshoot zo'riqishlarining miqdorini (2.6) formulaga asosan aniqlashda, uning ta'sir chizig'ining har bir to'g'ri chizikli uchastkasiga to'g'ri kelgan tashqi kuchlarni ularning teng ta'sir etuvchisi orqali ifodalash mumkin. Masalan, S zo'riqish ta'sir chizig'ining ab uchastkasida tashqi kuchlar sistemasi qo'yilgan bo'lsin (2.6 rasm). Bu kuchlar sistemasidan hosil bo'lgan S zo'riqishning miqdorini (2.6) formulaga asosan hisoblaymiz:

$$S = P_1 y_1 + P_2 y_2 + \dots + P_n y_n$$

Bu yerdagi y_1, y_2, \dots, y_n ordinatalarni rasimga ko'ra quyidagicha ifodalaymiz:

$$y_1 = x_1 \operatorname{tg} \alpha; \dots y_n = x_n \operatorname{tg} \alpha;$$

u holda

$$S = (P_1 x_1 + P_2 x_2 + \dots + P_n x_n) \operatorname{tg} \alpha$$


qavs ichidagi yig'indi K nuqtaga nisbatan kuchlar sistemasidan olingan momentlarning yig'indisini ifodalaydi. Kuchlar sistemasi momentlarning yig'indisini ularning teng ta'sir etuvchisi momenti orqali belgilaymiz; ya'ni:

$$S = x_R \operatorname{tg} \alpha;$$

bunda R kuchlar sistemasining teng ta'sir etuvchisi; x_R - teng ta'sir etuvchi kuchlardan K nuqtagacha bo'lgan masofa. 2.6 -rasmdan

$$y_R = x_R \operatorname{tg} \alpha; \quad (2.7)$$

ekanligini e'tiborga olsak $S = R y_R$



2.6 -rasm

(2.7) formulada y_R - teng ta'sir etuvchi R ga mos kelgan ordinata (2.6-rasm). Demak, to'g'ri chizikli uchastkaga qo'yilgan kuchlar sistemasini ularning teng ta'sir etuvchisi R orqali almashtirish yo'li bilan hisoblanayotgan zo'riqish miqdorini (2.7) formulaga asosan aniqlash mumkin.


2. Inshootga taralgan yuk $q(x)$ ko'yilgan bo'lsin. S zo'riqishning to'la miqdorini aniqlash uchun taralgan yuk uzunligini elementar bo'lakchalarga bo'lamiz (2.7-rasm). Biror elementar bo'lak dx ga mos kelgan taralgan yukni elementar to'plangan kuch $q(x) \cdot dx$ orqali ifodalaymiz. U holda bu elementar kuchdan hosil bo'lgan elementar zo'riqish (2.6) formulaga asosan aniqlanadi.

$$dS = q(x) dx y = q(x) d\omega$$


bunda $d\omega = y dx = S$ ta'sir chizig'idagi dx oraliqqa mos kelgan elementar yuza.

Hamma taralgan yukdan hosil bo'lgan zo'riqish miqdorini aniqlash uchun (a) ifodani integrallaymiz.

$$S = \int_{\epsilon}^{\omega} q(x) d\omega$$



2.7 - rasm



2.8- rasm

Agar inshootga tekis taralgan yuk qo'yilgan bo'lsa, ya'ni $q(x) = q = const$ da (2.8) formula soddalashadi

$$S = q\omega, \quad (2.9)$$

bu yerda q – taralgan yuk intensivligi, ω – tekis taralgan yuk qo'yilgan oraliqqa mos keluvchi ta'sir chizig'idan olingan yuza (2.7- rasm,b).

Agar inshootga har xil intensivlikdagi bir necha tekis taralgan yuk qo'yilgan bo'lsa, u holda kuchlar ta'sirining mustaqillik prinsipiga asosan S zo'riqishni (2.9) ifodadan foydalanib quyidagicha aniqlash mumkin:


$$S = \sum_{i=1}^n q_i \omega_i \quad (2.9')$$

bu yerda n – har xil intensivlikdagi tekis taralgan yuklar soni.

3. Inshootga juft kuchlar qo'yilgan bo'lsin, momenti M bo'lgan juft kuchlar qo'yilgan inshootning biror zo'riqishi uchun ta'sir chizig'i chizilgan (2.8-rasm). Momentdan hosil bo'lgan

S zo'riqishning miqdorini uning ta'sir chizig'i yordamida aniqlash uchun momentni juft kuchlar bilan almashtiramiz (2.9 - rasm,b):

$$M_i = P_i dx \quad \text{yoki} \quad P_i = \frac{M_i}{dx}$$




5.3.- rasm.

Bunda φ -juft kuch qo'yilgan ko'ndalang qismining burilish burchagi.

Ish tushunchasini umumlashtirish uchun elastik sistemaga qo'yilgan har kandy faktorlarini (P, M va xokazo) umumlashtirilgan kuch deb qaraymiz. Elastik sistemaning deformatsiyalangan holatini to'la aniqlaydigan va o'zaro bog'liq bo'lmagan ko'chishlar umumlashtirilgan ko'chishlar deb ataladi.

Umumlashtirilgan ko'chishlar umumlashtirilgan ko'chishlarga mos bo'lishi kerak, ya'ni ularning ku'aytmasining yarmi umumlashtirilgan kuch bajargan ishni berishi lozim. SHunga ko'ra umumlashtirilgan kuch P_i ga umumlashtirilgan koordinata Δ_{ip} va umumlashtirilgan juft kuch momenti M_i qo'yilgan bo'lsa, unga mos kelgan umumlashtirilgan koordinata bo'ladi.

Bundan keyin umumlashtirilgan kuchlarni P_i umumlashtirilgan koordinatalarni Δ_{ip} deb belgilaymiz.



5.4 -rasm.

To‘plangan kuchlar P_i dan hosil bo‘lgan zo‘riqishni (2.6) formulaga asosan aniqlaymiz:

$$S = P_i(y_i + dy_i) - P_i y_i = P_i dy_i$$

Bu formuladagi P_i kuchni moment orqali ifodalasak:

$$\boxed{} = M_i \operatorname{tg} \alpha_i, \quad (2.10)$$

bunda y_i - moment qo‘yilgan nuqtada ta’sir chizig‘iga o‘tkazilgan urinmaning absissa o‘qi bilan hosil qilgan burchagining tangensi.

Agar inshootga to‘plangan kuch, tekis taralgan yuk va momentlar qo‘yilgan bo‘lsa, unda hosil bo‘lgan zo‘riqishlar miqdori ta’sir chizig‘i yordamida (2.6), (2.9) va (2.10) formulalarga asosan umumiy holda quyidagicha aniqlanadi:

$$S = \sum P_i y_i = \sum q_i \omega_i = \sum M_i \operatorname{tg} \varphi \quad (2.11)$$

Bu formuladan foydalanishda quyidagi ishoralar qoidasiga rioya qilish kerak:

1. Agar to‘plangan kuch P_i va taralgan yuk pastga yo‘nalgan bo‘lsa, ular musbat olinadi.
2. Moment M_i ning yo‘nalishi soat strelkasining yo‘nalishiga mos kelsa, uni musbat deb qabul qilinadi.
3. Ordinata y_i va yuza ω_i ning ishorasi ta’sir chizig‘i ishorasi bo‘yicha olinadi.
4. Agar birlik yuk ($P=1$) tekshirilayotgan uchastkada chapdan unga harakat qilganida ta’sir chizig‘ining ordinatasi ortib borsa, $\operatorname{tg} \varphi_i = y_i$ musbat deb qabul kilinadi, aks holda y_i manfiy bo‘ladi.

Mustaqil ishlash va nazorat savollari:

1. Harakatlanuvchi yuklarga hisoblashda qanday masala qo‘yiladi?
2. Ta’sir chiziqlari nima degani?
3. Ta’sir chiziqlari bilan epyura orasida qanday orasi bor?
4. Ta’sir chiziqlarini qurishda qaysi usullar qo‘lanadi?
5. Ta’sir chiziqlarini statik usulda qanday quriladi?
6. Ta’sir chiziqlarda chap o‘ng to‘g‘ri chiziqlari qanday chiziqlar?
7. Ko‘p oraliqlik sharnirli balkalarda ta’sir chiziqlari qurish qoidasini ayting?
8. Ta’sir chiziqlari yordamida zo‘riqishlar qanday tartibda aniqlanadi?
9. Yuklarni tugun orqali qanday uzatiladi?
10. Yuklar tugunlar orkali uzatilganda ta’sir chiziqlari qanday quriladi?

5-mavzu. Ko‘p oraliqli statik aniq balkalarni qo‘zg‘almas yuklar ta’siriga hisoblash

Reja:


1. Ko‘p oraliqli statik aniq balkalar uchun qavatlararo sxemalarini chizish.
2. Ko‘p oraliqli balkalarni qo‘zg‘almas yuklar ta’siriga hisoblash.

Tayanch so‘z va iboralar:

Ko‘p oraliqli to‘sin (balka)lar, ko‘p oraliqli sharnirli balka, geometrik o‘zgarimas, geometrik o‘zgaruvchi, o‘zaro ta’sir sxemasi, sharnirlarni joylashtirish qoidalari, asosiy balka, osma balka, tayanch reaksiyalari, osma balkaning asosiy balkaga ta’siri, eguvchi moment va kesuvchi kuch epyuralari

Bir necha oddiy balkalarni bir-biriga sharnirlar yordamida tutashtirib, ko'p prolyotli statik aniq va geometrik o'zgaras sistema hosil qilish mumkin. Bunday balkalar ko'p prolyotli statik aniq balkalar deyiladi. qurilish praktikasida, asosan (2.14-rasm), a, b va v da ko'rsatilgan balkalar ko'p uchraydi.

Ko'p prolyotli statik aniq balkalarni hisoblash nazariyasi injener G.Semikolenov tomonidan 1871 yilda tavsiya etilgan. Ko'p prolyotli balka statik aniq sistema hisoblanadi, chunki muvozanat tenglamalaridan tashqari unda qancha oraliq sharnirlar bo'lsa, shuncha qo'shimcha tenglamalar tuzish mumkin bu tenglamalar balkaning oraliq sharniri markazdan o'ng yoki chap tomonda unga qo'yilgan hamma kuchlarning




2.14 - rasm

momentlar yig'indisi 0 ga tenglik shartiga asosan tuziladi.

SHunday qilib, chap chiziq $P=1$ ko'chma yuk A tayanchdan 3-tugunchaga harakatlaganda, o'ng chiziq esa ko'chma yuk 3-tugundan fermaning oxirgi tugunigacha harakatlanganda O_{2-3} zo'riqishning ta'sir chizig'ini ifodalaydi. Fermaning yuqorigi yoki pastki belbog' sterjenlardagi zo'riqish ta'sir chiziqlarini shu fermaga mos keladigishan oddiy balka kesimlaridagi eguvchi moment ta'sir chiziqlariga o'xshashligidan foydalanib ham qurish mumkin. Haqiqatdan, (a), (b), (v) va (g) formulalarni birlashtirib umumiy holda quydagicha yozish mumkin.

$$S_1 = \pm \frac{M_k^o}{r_1}, \quad (3.4)$$

chunki (a), (b), (v) va (g) formulalarning surati oddiy balka eguvchi momentining ta'sir chizig'i tenglamasini va maxraji esa, zo'riqish yelkasini ifodalaydi. Bunda S_i pastki yoki yuqoriga belbog' sterjenlaridagi zo'riqish. (3.4 formula bo'yicha S_i ta'sir chizig'i qurish uchun, avval fermaning K nuqtasiga mos kelgan oddiy balka kesmidagi eguvchi momentining ta'sir chizig'ini qurib so'ngra uning ordinatalarini o'zgarmas miqdor $1/r_1$ ga ko'paytirish kerak.

Ferma panjarasini tashqil etuvchi sterjenlarda hosil bo'ladigan zo'riqishlar ta'sir chiziqlarini qurishni ko'raylik I-I kesim bilan kesilgan 2-3 sterjendagi D_{2-3} zo'riqishning ta'sir chizig'ini quramiz:

a) Ko'chma $P=1$ yuk 2-tugundan chap tomonda ($0 \leq X \leq 2d$) harakatlanadi deb ferma o'ng qismini muvozanatini tekshiramiz. D_{2-3} zo'riqishning moment nuqtasini cheksizlikda bo'lganligi uchun fermaning o'ng qismiga qo'yilgan kuchlarning vertikal o'qqa proeksiyalari yig'indisi 0 ga tengligidan foydalanamiz:

$$\sum Y = 0. \quad V + D_{2-3}^{\pm an} \cdot \sin \alpha = 0,$$

bundan
$$D_{2-3}^{\pm an} = -\frac{B}{\sin \alpha}.$$

Bu ifodadan ksrinib turibdiki, sng chiziqni qurish uchun oddiy balka A tayanch reaksiyasini ta'sir chizig'ini qurib uning ordinatalarini o'zgarmas miqdor $1g \cdot \sin \alpha$ ga ko'aytirish kerak. Uning

kerakli qismi $3d \leq X \leq l$ oraliqda bsladi. $R=1$ yuk 3-panel bo'yicha harakatlanayotganda, D_{20-3} zo'riqish 2-3 uzatuvchi chiziq qonuni bo'yicha o'zgaradi. Bu uzatuvchi chiziqni chizish uchun kesimdagi chap tomondagi 2 tugunni chap chiziqqa, 3-tugunni o'ng chiziqqa proleksiylab, olingan nuqtalar to'g'ri chiziq bilan birlashtiriladi (3.12 rasm,g). V_{5-50} ustun zo'riqishining tasir chizig'ini quramiz. Fermaning II-II kesimi bilan ikki qismga bo'lamiz. V_{5-50} zo'riqishlarining moment nuqtasi cheksizlikda bo'ladi.

1-holat. $R=1$ yuk kesimidan chap tomonda ($0 \leq X \leq 4d$) harakatlanadi deb, fermaning chap qismi uchun muvozanat tenglamasini yozamiz:

$$\sum Y = 0, V_{5-5'}^{+an} + B = 0 \quad \text{va} \quad V_{5-5'}^{+an} = -B,$$

ya'ni V_{5-50} ning chap chizig'i V tayanch reaksiyasi ta'sir chizig'ining teskari ishora bilan olinganiga teng.

2-holat. $R=1$ yuk kesimdan o'ng tomonda ($5d \leq X \leq l$) harakatlanadi. Fermaning chap qismi uchun muvozanat tenglamasi.

$$\sum Y = 0, A - V_{5-5'}^{yhz} = 0 \quad \text{va} \quad V_{5-5'}^{yhz} = A.$$

Demak, o'ng chiziq oddiy balka A tayanch reaksiyasining ta'sir chizig'i kabi chiziladi. Chap va o'ng chiziq'larga fermaning tegishli tugunlarini tushurib, uzatuvchi chiziqni o'tkazamiz (3.12 rasm, d). Endi 3.13 rasmda ko'rsatilgan ferma sterjenlaridagi o'riqishlarning ta'sir chiziq'larini quramiz. D_{1-20} zo'riqishning ta'sir chizig'ini qurish uchun fermanni I-I bo'yicha kesamiz. D_{1-20} zo'riqishning moment nuqtasi O_{10-20} va U_{1-2} zo'riqishlarning yo'nalishlari kesishgan K_{1-20} nuqtada bo'ladi (3.14 rasm, a);

a) $R=1$ yuk kesmdan chap tomonda ($0 \leq X \leq d$) harakatlanadi, deb fermaning o'ng qismi uchun muvozanat tenglamasini tuzamiz:

$$M_{k_{1-2}} = 0, D_{1-2'}^{+an} r_{1-2'} - B(6d + a) = 0$$

va



Bu ifodaga asosan, A tayanch ostidagi 0 va V tayanch tagidagi $\frac{(6d + a)}{r_{1-2}}$ ordinatalarini birlashtirib, D_{1-20} zo'riqishning chap chizig'i hosil qilinadi. Uning ish qismi $0 \leq X \leq d$ oraliqda bo'ladi;

b) $P=1$ yuk kesimdan o'ng tomonda ($2d \leq X \leq l$) harakatlanadi deb, fermaning chap qismi muvozanat tenglamasini tuzamiz:

$$M_{k_{1-2}} = 0, -D_{1-2'}^{yhz} r_{1-2'} - Aa = 0$$

Bu tenglamadan $D_{1-2'}^{yhz} = -A \frac{a}{r_{1-2}}$. Bu ifodaga asosan, D_{1-20} ning o'ng chizig'i V tayanch ostidagi 0

ordinata bilan A tayanch ostida olingan $-\frac{a}{r_{1-2}}$ ordinatani birlashtiradi va u $2d \leq X \leq l$ oraliqda bo'lib

davomi K_1 moment nuqtasi ostida chap chiziq bilan kesishadi (3.14 rasm, b). Chap va o'ng chiziq'larga fermaning tegishli tugunlarini proeksiyalab, uzatuvchi chiziqni hosil qilamiz.

V_{5-50} ustun zo'riqishning ta'sir chizig'ini qurishni ko'ramiz. Fermanni II-II bo'yicha kesamiz. $P=1$ ko'chma yuk fermaning pastki belbog'i bo'yicha harakatlansin. V_{5-50} zo'riqishning moment nuqtasi K_2 bo'ladi.

a) $P=1$ yuk kesimdan chap tomonda ($0 \leq X \leq 4d$) deb, fermaning o'ng qismi uchun muvozanat tenglamasini tuzamiz.

$$\sum M_{k_2} = 0, Bb + V_{5-5'}^{+an'} r_{5-5'} = 0$$

yoki

$$V_{5-5''}^{an'} = -B \frac{b}{r_{5-5'}}$$

Bu ifodaga asosan A tayanch ostiga 0, V tayanch ostiga esa $-\frac{b}{r_{5-5'}}$ ordinatalarni qo'yamiz va ularni birlashtirib, chap chiziqni o'tkazamiz (3.13 rasm, v).

b) P=1 yuk kesimdan ung toomnda harakatlanadi ($5d \leq X \leq l$) deb, fermaning chap qismi uchun muvozanat tenglamasini tuzamiz:


$$\sum M_{k_2} = 0, A(b + 6d) + V_{5-5''}^{yn2} r_{5-5'} = 0$$

bundan

$$V_{5-5''}^{yn2} = A \frac{(b + 6d)}{r_{5-5'}}$$

Bu ifodaga asosan, o'ng chiziqni o'tkazamiz. Chap va o'ng chiziqlar moment nuqtasining ostida kesishadi.(3.13 oasm, v).

Yuk fermaning pastki bel bog'i bo'yicha harakatlangani uchun, II-II kesimning chap va o'ng tomonlaridagi fermaning pastki tugunlari tegishli



3.13 rasm

chiziq'larga proeksiyalanadi va 4-5 uzatuvchi chiziq o'tkaziladi. Ta'sir chizig'ining kerakli qismi 3.13 rasm, v da shtrixlangan. Bu ta'sir chiziq P=1 yuk pastki bel bog'i bo'yicha harakat qilingan hol uchun chizilgan .

Agar P=1 yuk fermaning yuqorigi belbog'i bo'yicha harakat qilsa, V_{5-5_0} zo'riqishning ta'sir chizig'i avvalgi qurilgan ta'sir chizig'idan faqat uzatuvchi chiziqning holati bilan farq qilidi, ya'ni bu hol uchun II-II kesimdan chap va o'ng tomondagi fermaning yuqorigi tugunlarini ularga mos chap va o'ng chiziq'larga proeksiyalaymiz hamda 5-6 uzatuvchi chiziqni o'tkazamiz. Harakat yuqoridan bo'lgan hol uchun qurilgan V_{5-5_0} zo'riqishning ta'sir chizig'i 3.13-rasm, g da ko'rsatilgan. V_{3-3_0} zo'riqishning ta'sir chizig'ini ko'ramiz. Bunday sterjenlardagi zo'riqishlarning ta'sir chizig'ini qurishda tugunlarni kesish usulidan foydalanamiz. Fermaning 3-tugunini kesib, uning ikki holatini tekshiramiz (3.13-shakl, d).

1-holat. R=1 yuk 2-3 va 3-4 panellardan tashqarida harakatlanadi. Bu hol uchun muvozanat tenglamasi $\sum Y=0$, ni yozib , V_{3-3_0} ni olamiz.

2-holat. R=1 yuk 3- tugun ustiga qo'yilgan holni ko'ramiz (3.13 rasm, b) $\sum Y=0$, bundan $V_{3-3_0}=1$. Demak , R=1 yuk 0, 1,2, 4,5,6 va yuqorigi bel bog'dagi hamma tugunlarga qo'yilganda ham V_{3-3_0} zo'riqish 0 ga teng. 3-tugunga qo'yilganda esa $V_{3-3_0}=1$ bo'ladi. Tugunlar ostiga V_{3-3_0} ning hisoblangan ordinatalarini qo'yib, uzatuvchi chiziq'lar bilan birlashtiramiz. Hosil bo'lgan V_{3-3_0} zo'riqishning ta'sir chizig'i 3.13 rasm, e da ko'rsatilgan.

Mustaqil ishlash va nazorat savollari:

1. Katta oraliqlarni qoplashda tekis balka nima sababdan iqtisodiy noqulay bo'ladi?
2. Ferma tuzilmalari qaysi soha va joylarda ko'p ishlaydi?
3. Ferma qanday tuzilma? Ferma sterjenlarida qanday zuriqish hosil bo'ladi va nima sababdan?
4. Balkasimon ferma reaksiyalari qanday topiladi?
5. Ferma elementlari qanday farqlanadi?

6. Moment nuqtasi deb nimaga aytiladi? Misollar keltiring?
7. Qachon ferma elementlaridagi zo'riqishlarni aniqlashda moment nuqtasi usulini qo'llash qulay bo'ladi?
8. Tugun kesish usuli qachon va qanday qo'laniladi? Uning afzallik va kamchiliklari nimadan iborat?
9. Qanday sterjenlar zo'riqishsiz (nulli) deyiladi? Misollar keltiring.
10. Qachon proektsiya usulini qo'llash qulay bo'ladi? Uning mazmuni nimadan iborat?

9-mavzu. Shprengelli fermalarni hisoblash

Reja:

1. Shprengelli fermalarni hisoblash.
2. Shprengelli fermalarni sterjenlaridagi zo'riqishlar ta'sir chiziqlarini qurish

Tayanch so'z va iboralar:

Shprengelli ferma, bir yarusli shprengelli ferma, kategoriya sterjenlar, ikki yarusli shprengelli ferma

Agar ferma belboglari tugunlarining orasidagi masofa katta bo'lsa, belbogning har bir sterjenini mustaqil fermacha bilan almashtirish mumkin (3.14-rasm,a). Bunday fermalar shprengelli fermalar deyiladi. Shprengel asosiy ferma panelining ikki tomonidagi tugunlar tiralgan bo'lib (3.14-rasm,b), ko'prik-ko'ndalang balkalar fermadagi asosiy va shprengeldagi qo'shimcha tugunlarga tayanadi.

Shprengelli fermalar bir va ikki yarusli bo'lishi mumkin. 3.14-rasm, v da bir yarusli shprengelli ferma tasvirlangan. Bunday fermalarda shprengelning pastki (yuqoriga) qo'shimcha tugunlariga qo'yilgan yuk uning pastki (yuqorigi) asosiy tugunlariga uzatiladi.


Agar shprengelning pastki (yukori) tugunlariga qo'yilgan yuk fermaning yukoridagi (pastki) asosiy tugunlariga uzatilsa, u holda bunday sxemaga ega bo'lgan fermalar ikki yarusli shprengelli fermalar deyiladi (3.14- rasm,g).

Bir yarusli shprengelli fermalarni hisoblashda ularning elementlari quyidagi uchta kategoriyaga bulinadi:

1). Faqat asosiy fermaga tegishli bo'lgan sterjenlar birinchi kategoriyali sterjenlar deb ataladi. 3.14-rasm, v da ko'rsatilgan 1-1', 1'-3', 2'-3', 3-3' va shunga o'xshash boshqa sterjenlar 1-kategoriyali sterjenlar jumlasidandir. Ulardagi zo'riqish shprengelni e'tiborga olmasdan, asosiy fermani hisoblash orqali topiladi.

2). Faqat shprengelga tegishli bo'lgan sterjenlar ikkinchi kategoriyali sterjenlar (2'-3, 4'-5, 5-6', 4-4' va boshkalar) deb ataladi. Ulardagi zo'riqishni aniqlash uchun har bir shprengel asosiy fermadan ajratib olinib, uning muvozanati mustaqil ravishda tekshiriladi.

3). Bir vaqtning uzida asosiy ferma bilan shprengelga tegishli bo'lgan, eelementlari birlashgan sterjenlar uchinchi kategoriyali sterjenlar deb ataladi. Ular 3.14-rasm, v da punktir chiziq bilan ko'rsatilgan. Masalan, 1-2, 2-3, 3-4' va shunga uxshash sterjenlar shular jumlasidandir.



3.14- rasm.

Ikki yarusli shprengelli fermalarning sterjenlari turt kategoriyaga bulinadi. Ulardan uchtasi yukorida kurilgan shprengelli ferma sterjenlarning kategoriyalariga mos.

Turtinchi kategoriyali sterjenlar fermaning asosiy sterjenlari kabi (1-kategoriyali) bo'ldi, lekin harakat aslida yukoridan bo'lganda yukning ta'siri pastga yoki harakat pastdan bo'lganda yukning ta'siri yukoriga uzatiladi (3.14 -rasm, g).

Shprengelli ferma sterjenlardagi zo'riqishning ta'sir chizigini qurishdan oldin tekshirilayotgan sterjen qaysi kategoriyaga tegishli ekanligini aniqlash kerak.

Parallel belbog'li bir yarusli sh'ringelli fermaning 3.15-rasmda ko'rsatilgan sterjenlaridagi zo'riqishlarning ta'sir chiziqlarini quramiz (harakat pastdan).

$V_{3-3'}$ zo'riqishning ta'sir chizigi. 3-3' sterjen 1-kategoriyali bo'lgani uchun $V_{3-3'}$ zo'riqishning ta'sir chizigini qurishda shprengel-fermachalar e'tiborga olinmaydi. U holda 3.15-rasm,b da ko'rsatilgan shprengelsiz (asosiy) fermani tekshirish kerak. I-I kesim o'tkazib, $P=1$ yukning kesimning chap va ung tomonlaridagi hollari uchun muvozanat tenglamalarini yozamiz: $\sum U=0$, $V_{3-3'}^{+an} = B$ va $V_{3-3'}^{yh2} = -A$ ning ta'sir chizigi 3.15-rasm, v da ko'rsatilgan.


$D_{5-6'}$ zo'riqishning ta'sir chizigi. Fermaning 5-6' sterjeni III kategoriyali. II-II kesimni o'tkazib, ko'chma $P=1$ yukning undan chap va o'ng tomonlardagi harakatini tekshiramiz. $P=1$ yuk II-II kesimdan o'ng tomonda harakatlanadi deb, fermaning chap qismi uchun muvozanat tenglamasini yozamiz:

$$\sum Y = 0, A + D_{5-6'}^{yh2} \sin \alpha = 0 \text{ va } D_{5-6'}^{yh2} = -\frac{A}{\sin \alpha}$$

shunga o'xshash,

$$D_{5-6'}^{+an} = \frac{B}{\sin \alpha}$$

Bu tenglamalarga asosan, chap va ung chiziqlarni chizamiz (3.15-rasm, g). Sterjen III kategoriyali bo'lganligi sababli shprengelni hisobga olamiz. Chap chiziqdagi 5-tugunga tegishli va ung chiziqdagi 6-tugunga tegishli ordinatalarni tutashtiruvchi uzatuvchi chiziqni o'tkazamiz.



edik. U holda shprengel fermachaning ishlashini hisobga oluvchi avs uchburchaklik hosil bulmasdi. Demak, $D_{5-6'}$ ning ta'sir chizigida hosil bo'lgan avs uchburchaklik, ko'chma birlik kuch turtinchi paneldagi 5- va 7-tugunga tiralgan fermacha bo'yicha harakatlanganda III kategoriyali 5-6 sterjendagi $D_{5-6'}$.

$$\sum X=0, U_{1-2} - U_{2-3} = 0, \quad \sum M_{1'} = Ad - U_{2-3}^{yh2} h = 0,$$

$$U_{2-3}^{yH2} = \frac{Ad}{h}.$$

U_{2-3} ta'sir chizigining chap va ung chiziqlarini o'tkazib, so'ngra shprengelning ishlashini hisobga olamiz. 2-tugun kesimning chap tomonda bo'lgani uchun, uni chap chiziqqa, 3-tugunni esa o'ng chiziqqa proeksiyalaymiz va yes uzatuvchi chiziqni utkazamiz.

$U_{2-3} = U_{1-2}$ ta'sir chizigidan avs uchburchakli ham shprengelni e'tiborga oolinganligini ko'rsatadi (3.15 -rasm, d).

$V_{8-8'}$ zo'riqishning ta'sir chizigi. Fermaning 8-8' sterjeni II kategoriyali bo'lganligi uchun, fermadan 7-8'-9 shprengelni ajratib olib, uni mustaqil ikki tayanchli fermacha deb qaraymiz (3.15 -rasm, e).

$P=1$ yuk 8-tugunda deb, uning muvozanat tenglamasini yozamiz:

$$\sum Y=0, \quad V_{8-8'} - P = 0, \quad \text{bundan } V_{8-8'} = 1$$

Agar yuk 7- va 9-tugunlarda bo'lsa, $V_{8-8'}$. Zo'riqish nolga teng bo'ladi, bu aniqlangan ordinatalar bo'yicha.

Mustaqil ishlash va nazorat savollari:

1. Bir yarusli shprengelli fermalarda sterjenlarning nechta kategoriyasi bo'ladi? Har bir kategoriya sterjenlari uchun zo'riqishlarning ta'sir chiziqlari qanday quriladi?
2. Ikki yarusli shprengelli ferma sterjenlari zo'riqishlarining ta'sir chiziqlarini qurishda shprengelli ferma qaysi kategoriya sterjeni alohida qaraladi va ular uchun ta'sir chiziqlari qanday quriladi?
3. Uch sharnirli arka va arkasimon fermalarda tayanch reaksiyalarining vertikal tashkil etuvchilarini ta'sir chiziqlari balka reaksiyalarining ta'sir chiziqlaridan farq qiladimi?

10-mavzu. Uch sharnirli arkalarni qo'zg'almas va harakatlanuvchi yuklar ta'siriga hisoblash


Reja:

1. Umumiy tushunchalar.
2. Uch sharnirli sistemalarda analitik usulda eguvchi moment, ko'ndalang va bo'ylama kuchlarni aniqlash.
3. Uch sharnirli arkalarni qo'zg'almas yuklar ta'siriga hisoblash
4. Uch sharnirli arkalarni ichki zo'riqishlar kuchlarining ta'sir chiziqlarini chizish.
5. Ta'sir chiziqlari orqali uch sharnirli sistemalarni hisoblash
6. Uch sharnirli sistemalarda normal kuchlanishlarni yadro momentlari orqali aniqlash.
7. Uch sharnirli ramalarni hisoblash

Tayanch so'z va iboralar:

Reaksiyalarning ta'sir chiziqlari, siljувchi kuchning ikki xolati, muvozanat tenglamalari, eguvchi momentning ta'sir chizig'i, analitik ifoda, nol nuqtasi, grafik usul, uch sharnirli arkaning maqbul o'qi. Uch sharnirli arka, rama, vertikal reaksiya, keruvchi reaksiya, ko'tarilish balandligi, tortkich, statika tenglamalari, kesimning momenti, oddiy balka uchun kesimning momenti, kesuvchi kuch, kesimning urinmasi, kesimning normali, oddiy balka kesimining kesuvchi kuchi, urinmaning gorizontaal bilan hosil qilgan burchagi, ratsional o'q, parabola.

O'zaro bitta sharnir vositasida ulangan va fundementga ikkita qo'zgalmas sharnirli tayanchlar yordamida tiralgan ikki egri brusdan tuzilgan geometrik o'zgarimas sistema uch sharnirli arka deyiladi (4.1-rasm). Uch sharnirli arkaga kaday vertikal kuchlar ta'sir etishidan qat'iy nazar, uning tayanchlarida doim gorizontaal yo'nalgan keruvchi reaksiya kuchlari bo'ladi. Bu gorizontaal reaksiyalar havon deyiladi.



4.1 - shakl.

$$\sum X = 0, \sum Y = 0, \sum M = 0, \sum M_c^{uan} = 0, \text{ va } \sum M_c^{yh2} = 0 \quad 4.1$$

$$W=3D-2SH-S_T.$$

Uch sharnirli arkada $D=2$; $SH=1$; $S=4$. U holda erkinlik darajasi $W=3*2-2*1-4=0$ bo'ladi va uchala sharnirli bir to'g'ri chiziqdayotmagani uchun sistema ikki sharnirli arka deb ataladi (4.2-rasm, a). bunday arka to'rtta noma'lum tashqil etuvchi tayanch reaksiyalariga ega bo'lib, uning statik anikmaslik darajasi birga teng. Uchlari qistirilgan va oraliq sharnirli bo'lmagan arka sharnirsiz arka deb ataladi (4.2 -rasm, b).

SHarnirsiz arkada doim oltita noma'lum tashqil etuvchi tayanch reaksiyalarini hosil bo'ladi. Bu reaksiyalarni aniqlash uchun uchta muvozanat tenglamasidan tashqari yana uchta ko'shimcha tenglamalar tuzish kerak. Demak, bu sistema uch marta statik aniqmasdir.

Arka ko'ndalang kesimlarning og'irlik markazidan o'tuvchi ASV egri chiziq arka o'qi deyiladi. Arka o'qi parabolik, aylana, ellips va boshqa shakldagi egri chiziqlardan iborat bo'lishi mumkin. A va V tayanch sharnirlar orasidagi masofa arka prolyoti (t) deyiladi. Agar tayanchlar har xil balandlikda joylashgan bo'lsa, ular orasidagi gorizontaal masofa arka prolyoti hisoblanadi.

A va V tayanch sharnirlar tovon sharnir, oraliq S sharnir esa qulf sharnir deb ataladi. AV tayanch chizigidan arka o'qining eng yuqorigi nuqtasigacha bo'lgan masofa arkaning ko'tarilish cho'o'qisi deyiladi va u f harfi bilan belgilanadi (4.1-rasm).

Agar tayanch sharnirlarni tortiki deb ataluvchi sterjen bilan birlashtirsak (4.3 -rasm, a), u holda arkaning xavon reaksiyasini tortiki uziga qabul qiladi. Bunday arka tortikli uch sharnirli arka deyiladi. Tortikli arkada ikkiala tayanchni qo'zgalmas, ikkinchisini esa ko'zgaluvchan sharnirli tayanch bo'ladi. Tortqidagi zo'riqishni aniqlash uchun uni kesib, oraliq sharnir S ga nisbatan momentlar tenglamasini yozamiz:

$$\sum M_c^{uan} = 0 \quad \text{yoki} \quad \sum M_c^{yh2} = 0$$

Tortikli arka tayanchlarining tuzilishiga ko'ra sistema deb hisoblanadi.

Agar egri bruslar siqli sterjenlar bilan almashtirilsa, uch sharnirli rama hosil bo'ladi (4.3-rasm,b).

Uch sharnirli arkalarni ko'zgalmas yuklar ta'siridan analitik usulda hisoblash.

Tayanch reaksiyalarini aniqlash. Uch sharnirli arkaga vertikal yuklar ta'siri qilayotgan xol uchun tayanch reaksiyalarini aniqlaymiz (4.3-rasm).

Og'ma tayanch reaksiyalari R_A va R_V ni vertikal va gorizontaal tashqil etuvchilar V_A, V_V, P_A va P_V ga ajratamiz. Ularning qiymatini topish uchun muvozanat tenglamasi hamda qo'shimcha to'rtinchi tenglama $\sum M_c^{uan} = 0$ yoki $\sum M_c^{yh2} = 0$ tuziladi.


Chap tayanch reaksiyaning vertikal tashqil etuvchisi V_A ni aniqlash uchun arkaning o'ng tayanchi Vga nisbatan muvozanat momentlar tenglamasi yoziladi:

$$\sum M_B = 0,$$


$$V_A l - P_1(l - a_1) - P_2(l - a_2) - P_3(l - a_3) - q \frac{l^2}{8} = 0$$

bundan


$$V_A = \frac{1}{l} \left[P_1(l - a_1) + P_2(l - a_2) + P_3(l - a_3) + q \frac{l^2}{8} \right] \quad (a)$$



4.2-rasm.



4.3-rasm



4.3- rasm

O'ng tayanch reaksiyaning vertikal tashqil etuvchisini aniqlash uchun tayanch A ga nisbatan muvozanat momentlar tenglamasini yozamiz:

$$\sum M_A = 0, \quad P_1 a_1 + P_2 a_2 + P_3 a_3 + q \frac{l}{2} * \frac{3}{4} l - V_B l = 0$$

bundan

$$V_B = \frac{1}{l} (P_1 a_1 + P_2 a_2 + P_3 a_3 + q \frac{l}{2} * \frac{3}{4} l^2)$$


(a) va (b) ifodalardan uch sharnirli arka tayanch reaksiyalarining vertikal tashqil etuvchilari xuddi shunday prolyoti va arka kabi yuklangan oddiy balkaning tayanch reaksiyalariga teng ekanligini quramiz (4.3-rasm, b) ya'ni: $V_A = A_{\text{balka}}$ $V_B = B_{\text{balka}}$

Uch sharnirli arka tanyach reaksiyalarining gorizontali tashqil etuvchilari Na va Nv rasidagi munosabtni aniqlash uchun o'nga ta'sir etayotgan hamma kuchlarning gorizontali o'qqa proeksiyalari yiginlisini nolga tenglashtiramiz:

$$\sum X=0.$$

Agar arkaga faqat vertikal yuklar qo'yilgan bo'lsa, u holda doim $N_A=N_V=N$ bo'ladi.

Keruvchi reaksiya kuchi N ni aniqlash uchun, uch sharnirli arkaning oraliq sharniri S dan chap yoki o'ng tomonda ta'sir etayotgan hamma yuklar va tayanch



4.3- rasm

O'ng tayanch reaksiyaning vertikal tashqil etuvchisini aniqlash uchun tayanch A ga nisbatan muvozanatlik momentlar tenglamasini yozamiz:

$$\sum M_A = 0, \quad P_1 a_1 + P_2 a_2 + P_3 a_3 + q \frac{l}{2} * \frac{3}{4} l - V_B l = 0$$

bundan

$$V_B = \frac{1}{l} (P_1 a_1 + P_2 a_2 + P_3 a_3 + q \frac{l}{2} * \frac{3}{4} l^2)$$

(a) va (b) ifodalardan uch sharnirli arka tayanch reaksiyalarining vertikal tashqil etuvchilari xuddi shunday prolyoti va arka kabi yuklangan oddiy balkaning tayanch reaksiyalariga teng ekanligini quramiz (4.3-rasm, b) ya'ni: $V_A = A_{balka}$ $V_B = B_{balka}$

Uch sharnirli arka tanyach reaksiyalarining gorizontaal tashqil etuvchilari N_A va N_V orasidagi munosabtni aniqlash uchun unga ta'sir etayotgan hamma kuchlarning gorizontaal o'qqa proeksiyalari yiginlisini nolga tenglashtiramiz:

$$\sum X=0.$$

Agar arkaga faqat vertikal yuklar qo'yilgan bo'lsa, u holda doim $N_A=N_V=N$ bo'ladi.

Keruvchi reaksiya kuchi N ni aniqlash uchun, uch sharnirli arkaning oraliq sharniri S dan chap yoki o'ng tomonda ta'sir etayotgan hamma yuklar va tayanch

$$M_K = [V_A x_K - P_1(x_K - a_1) - P_2(x_K - a_K)] - H y_K. \quad (4.4)$$

bu ifodada o'rta qavs ichidagi miqdor xuddi arkaga qo'yilgan yuklar ta'sirida bo'lgan oddiy balkaning shu K kesimdagig eguvchi momenti M^o_K ning miqdoriga teng (4.3-rasm,b). U holda (4.3) ifoda quyidagi ko'rinishga keladi:

$$M_K = M^o_K - y_K. \quad (4.4)$$

Demak, arkaning K kesimdagig eguvchi moment shu arkaga tegishli bo'lgan oddiy balkaning xuddi shu mos kesimdagig eguvchi moment M^o_K va keruvchi kuchdan olingan moment Nu_K ayirmasiga teng.

Bo'ylama kuchni hisoblash. Arkaning istalgan ko'ndalang kesimdagig bo'ylama kuch, kesimdan bir tomonda joylashgan hamma kuchlarining arka o'qining K nuqtasiga o'tkazilgan urinmaga proeksiyalarining algebraik yigindisiga teng. Agar bu kuchlar proeksiyalarining algebraik yigindisi arka kesimida siquvchi kuch hosil qilsa, bo'ylama kuchni musbat deb qabul qilamiz. Arkaning K kesimidan chap tomonda joylashgan hamma kuchlarning shu nuqtaga o'tkazilgan urinmaga tushirilgan proeksiyalar tenglamasini tuzib, bo'ylama kuch ifodasini yozamiz:

$$N_K = (V_A - P_1 - P_2) \sin \varphi_K + H \cos \varphi_K.$$

bu formulada qavs ichidagi ifoda arkaga ta'sir qilayotgan yuklar bilan yuklangan oddiy balkaning K kesimdagig ko'ndalang kuchga teng (4.3-rasm, b):

$$Q_K^0 = V_A - P_1 - P_2, \quad (4.6)$$

$$\text{u holda } N_K = Q_K^0 \sin \varphi_K + H \cos \varphi_K. \quad (4.7)$$

Ko'ndalang kuchni hisoblash. Arkaning ixtiyoriy K kesimidagi ko'ndalang kuch Q_k bu kesimdan bir tomonda joylashgan hamma kuchlarning arka o'qining shu nuqtasiga o'tkazilgan normalga tushirilgan proeksiyalarining algebraik yig'indisiga teng.

Ko'ndalang kuchning ishorasi materiallar qarshiligi kursida qabul qilingan qoida bo'yicha aniqlanadi. Yuqoridagi ta'rifga asosan (4.3-rasm,v):

$$Q_k = (V_A - P_1 - P_2) \cos \varphi_k - P \sin \varphi_k$$

yoki

$$Q_k = Q_k^0 \cos \varphi_k - P \sin \varphi_k \quad (4.8)$$

$$\text{bunda } Q_K^0 = V_A - P_1 - P_2.$$

(4.4),(4.7) va (4.8) formulalarga asosan M_k ; N_k ; va Q_k epyuralarni qurish mumkin.

Eguvchi momentlar epyurasini qurish

Vertikal yo'nalgan tashqi kuchlar ta'siridagi uch sharnirli arka uchun eguvchi momentlar epyurasini quramiz (4.4-rasm,a). (4.4) formulaga asosan, uch sharnirli arkaning eguvchi moment epyurasi prolyoti shu arka prolyotiga teng bo'lgan oddiy balkaning eguvchi moment epyurasi bilan $Nu(x)$ epyurasining ayirmasiga teng:

$$M(x) = M^0(x) - y(x). \quad (4.4')$$

Uch sharnirli arkaning eguvchi moment epyurasini qurishda shu ifodadan foydalanish mumkin. Buning uchun arkaga qo'yilgani kabi yuklar bilan yuklangan oddiy balkaning eguvchi momenti $M^0(x)$ epyurasi bilan (4.4-rasm,v) arkaning har bir kesim og'irligi markazi ordinatisini keruvchi kuch N ga ko'paytirib, $Nu(x)$ epyurasini quramiz (4.4-rasm,g). (4.4') formulaga asosan, uch sharnirli arkaning har bir kesimidagi eguvchi moment ordinatasi qurilgan $M^0(x)$ va $Nu(x)$ epyuralardan olingan tegishli ordinatalarning ayirmasiga teng bo'ladi (4.4-rasm,d). Masalan:

$$M_1 = M_1^0 - Hy_1; M_2 = M_2^0 - Hy_2; M_C = M_C^0 - Hy_C = 0 \text{ va hokazo.}$$

Bu usul bo'yicha qurilgan arkaning eguvchi moment epyurasi 4.4-rasm, d da shtrixlab ko'rsatilgan.

Arka eguvchi moment epyurasidagi siniq chiziq A-1-2-S-3-4-V arkaning bosim ko'pburchagi deyiladi. Bosim ko'pburchagining har bir tomoni (A-1,1-2,2-S,.....) arka ko'ndalang kesimidagi zo'riqishlar teng ta'sir etuvchisining yo'nalishini ko'rsatadi (4.5-rasm,a). Masalan, arkaning K kesimidan chap yoki qng tomonga joylashgan kuchlarning teng ta'sir etuvchisi R_{1-2} bo'ladi. Uni N_k va Q_k tuzuvchilarga ajratib, kesim og'irlik markaziga ko'chiramiz (4.5-rasm,b). U holda eguvchi moment M_k ning miqdori quyidagicha bo'ladi:


$$M_k = N_k e_k$$

bunda e_k - bo'ylama kuchning ekstsentrisiteti.

Agar teng ta'sir etuvchi R_k arka o'qidan yuqoridan o'tsa, arkaning pastki tolalari chizilgan bo'ladi, u holda eguvchi moment musbat hisoblanadi, agar pastda o'tsa M_k manfiy bo'ladi.

Uch sharnirli arka taralgan yuklar ta'sirida bo'lganda, uning bosim ko'pburchagi o'rniga egri chiziq hosil bo'ladi. Bu egri chiziq bosim egri chizig'i deyiladi. Bosim egri chizig'i arkaning zo'riqish holatini aniq ko'rsatib beradi va u arka o'qiga qanchalik yaqinlashsa, uning ko'ndalang kesimlaridagi eguvchi moment miqdori uncha kamayib boradi.

Arka o'qining ratsional shaklini tanlash. Agar vertikal taralgan yuklar ta'sirida bo'lgan uch sharnirli arkaning bosim chizig'i arka o'qiga mos kelsa, arkaning istalgan ko'ndalang kesimidagi eguvchi moment nolga teng bo'ladi. Bunday xususiyatga ega bo'lgan arka o'qi arkaning ratsional o'qi deyiladi. Ratsional o'qli arkalarining istalgan ko'ndalang kesimda faqat bo'ylama zo'riqish kuchi hosil bo'lib, arka siqilishga ishlaydi. Bunday arkalarining ko'ndalang kesim o'lchamlari eng ratsional ravishda aniqlangan bo'ladi.



4.6-rasm.

Arka o'qining ratsional shaklini tanlash uchun misol tariqasida tekis taralgan yuklar ta'siridagi uch sharnirli arkani ko'rib chiqamiz (4.6- rasm,a). bunday arkaning o'qi rasional shaklli bo'lishi uchun uning istalgan ko'ndalang kesimidagi eguvchi moment nolga teng bo'lishi kerak:

$$M(x) = M^0(x) - Nu(x) = 0. \quad (4.9)$$

bundan

$$u(x) = M^0(x)N$$

ushbu ifoda arka o'qining ratsional shaklini umumiy holda ifodalovchi tenglamadir. Bunda $M(x)$ -oddiy balkaning ixtiyoriy kesimidagi eguvchi momenti (4.6-rasm,b).

$$M^0(x) = Ax - q \frac{x^2}{2} = \frac{q}{2}(l-x)x \quad (4.10)$$

(4.2) formulaga asosan, keruvchi reaksiya kuchi N ni aniqlaymiz:

$$P = \frac{M_c^0}{f} = \frac{1}{f} \left(q \frac{l^2}{4} - q \frac{l^2}{8} \right) = \frac{ql^2}{8f}. \quad (4.10')$$

(4.10) va (4.10') formuladagi $M^0(x)$ va N ning qiymatini arkaning rasional o'qi tenglamasi (4.9)ga qo'yamiz:

$$y(x) = \frac{8f}{ql^2}(l-x)x \frac{q}{2} = \frac{4f}{l^2}(l-x)x$$

Demak,

$$u(x) = \frac{4f}{l^2}(l-x)x$$


bo'lgani uchun ushbu holda tekis taralgan yuk ta'siridagi arka o'qining ratsional shakli paraboladir.

Uch sharnirli arkalarda ta'sir chiziqlar qurish.

Arkaning K kesimidagi N_k ning ta'sir chizig'ini nolinchi ordinata usuli bilan quramiz. Arkaning K kesimidagi bo'ylama kuchi $N_k = 0$ bo'lishi uchun $P=1$ yuk arkaning K kesimidan o'ng tomonga qo'yilganda R_A tayanch reaksiyasi arka o'qining K nuqtasiga o'tkazilgan urinmaga perpendikulyar ravishda yo'nalgan bo'lishi kerak. Demak, N_k ning ta'sir chizig'i nolinchi nuqta yordamida qo'yidagi tartibda chiziladi (4.14-rasm, a).


1. R_A tayanch nuqtasini K kesimga o'tkazilgan urinmaga perpendikulyar qilib yo'naltiramiz. R_B tayanch reaksiyasi avvalgidek C sharnir orqali o'tib, D nuqtada R_A reaksiya yo'nalishi bilan kesishadi. Agar $P=1$ yuk D nuqtadan o'tgan vertikal bo'yicha yo'nalib, arkaning $K-C$ qismiga ta'sir qilsa, K kesimda $N_k = 0$ bo'ladi. Bu ordinata $P=1$ yuk tagida (d nuqtada) bo'lishi kerak (4.12 -rasm,b).
2. d nuqta orqali dab chiziq o'tkazamiz. Unda A tayanch ostidagi ordinata $aa_1 = \sin \varphi_K$ V tayanch ostidagi ordinata esa, $bb_1 = \frac{l}{2f} \cos \varphi_K$ bo'ladi. Bu chiziqning K_1S_1 qismi $P=1$ yuk K kesim bilan C sharnir orasida harakatlenganda N_k ning o'zgarshini ifodalaymiz.

3. Bu chiziq ordinatalari $P=1$ yuk A tayanch bilan K kesim orasida harakatlanganda kesimdagi N_k zo'riqishning o'zgarishini ko'rsatadi. K kesim ostida N_k ning ta'sir chizig'i doim K_1K_2




4.10 -rasm.

ma'lum masshtabda qo'yib, d nuqta orqali ab to'g'ri chiziq o'tkazamiz. U holda V tayanch ostidagi ordinata bb_1 bo'ladi. Chiziqning K_1dc_1 qismi $P=1$ yuk K kesimdan C sharnirgacha bo'lgan



2.12 -rasm

Ta'sir chizig'ining AS oralig'ida bo'lgan kuchlarning teng ta'sir etuvchisini $R^{chap} = \sum P_{chap}$ deb, VS oralig'idagi kuchlarning teng ta'sir etuvchisini $R^{o'ng}$ va eng katta ordinata ustidagi kuchni R_{kr} (kritik yuk) deb qabul qilamiz. Kuchlar sistemasining bu vaziyatida (2.14) shartlarning qanoatlantirishi tekshiramiz. 2.12-rasmda ifodalangan kuchlar sistemasi o'ng yoki chap tomonlarga Δx masofaga siljitganda (2.15) va (2.16) formulalarga asosan aniqlangan ΔS orttirma (2.14) shartni qanoatlantirishi kerak. Bunda kuchlar sistemasi o'ng tomonga Δx masofaga siljisa, R_{kr} kuch o'ng kuchlarning teng ta'sir



2.13 -rasm

etuvchisiga, va aksincha, chap tomonga siljiganda esa chap kuchlarning teng ta'sir etuvchisiga qo'shiladi:

$$\Delta S_{o'ng} = R^{chap} \Delta x \operatorname{tg} \alpha - (R^{o'ng} + R_{kr}) \Delta x \operatorname{tg} \beta < 0$$

$$\Delta S_{chap} = -(R^{chap} + R_{kr}) \Delta x \operatorname{tg} \alpha + R^{o'ng} \Delta x \operatorname{tg} \beta < 0 \quad (2.14')$$

2.13-rasmdan $\operatorname{tg} \alpha = \frac{h}{a}$; $\operatorname{tg} \beta = \frac{h}{b}$ bo'ladi. Bu ifodalarni (2.14) tengsizlikka qo'yib hamda uni h va Δx larga qisqartirib, quyidagini olamiz

$$\frac{R^{an}}{a} - \frac{R^{yh} + P_{kp}}{b} < 0 \quad \text{yoki} \quad \frac{R^{an}}{a} < \frac{R^{yh} + P_{kp}}{b} \quad (2.18)$$

$$\frac{R^{an} + P_{kp}}{a} + \frac{R^{yh}}{b} < 0 \quad \text{yoki} \quad \frac{R^{an} + P_{kp}}{a} > \frac{R^{yh}}{b}$$

(2.18) tengsizliklar harakatlanuvchi kuchlar sistemasining noqulay vaziyatini belgilovchi sharlardir.

Agar qabul qilingan kritik kuch R_{kr} (2.18) tengsizlikni qanoatlantirmasa, boshqa kuchni R_{kr} deb qabul qilib (2.18) shartlar yana tekshirib ko'riladi. R_{kr} kuch aniqlangandan keyin, kuchlar sistemasi S ta'siri chizig'i ustiga joylashtiriladi va inshootda hosil bo'ladigan zo'riqishning eng katta miqdori S_{max} (2.6) formulaga asosan xisoblanadi.

$$S_{max} = \sum y_i - R^{chap} y_1 = R^{ung} y_2 = R_{kr} y_{max} \quad (2.19)$$

Mustaqil ishlash va nazorat savollari:

1. Uch sharnirli sistema turlarini aytib bering?
2. Uch sharnirli sistemalarda tortqich nima uchun qo'yiladi?
3. Uch sharnirli rama (arka)larda tayanch reaksiyalari va tortqichlardagi zo'riqishlar qanday aniqlanadi?
4. Topilgan reaksiyalarning to'g'riligi qanday tekshiriladi?
5. Uch sharnirli rama (arkalar) da qanday ichki zo'riqishlar bo'ladi?
6. Sterjenning eguvchi moment ekstremal qiymatlariga erishgan kesimlarida kesuvchi kuch nimaga teng bo'ladi?
7. To'plama kuch qo'yilgan kesimlarda eguvchi moment va kesuvchi kuch qanday o'zgaradi? Misollar keltiring.
8. Uch sharnirli arkalar ichki zo'riqishlari formulalaridagi oddiy balka uchun eguvchi moment va kesuvchi kuchlar nima?
9. Kesimga juft kuch (moment) qo'yilgan kesimda eguvchi moment va kesuvchi kuch qanday o'zgaradi?
10. Tashqi moment quyilmagan sharnirda eguvchi moment nimaga teng?

11-mavzu. Elastik sistemalardagi ko'chishlarni aniqlash

Reja:

1. Ko'chishlar haqida tushuncha, ko'chishlar va ularni belgilash.
2. Tashqi kuchlarning bajargan ishi, ichki ko'chlarning bajargan ishi

Tayanch so'z va iboralar:

Kuchning bajara oladigan ishi, ko'chish, berilgan holat, birlik holat, mumkin bo'lgan ko'chish, tashqi yuklar ta'siridan ichki zo'riqishlar, birlik kuch ta'siridan ichki kuchlar, Mor

formulasi, rama va balkalarda ko'chish, chiziqli ko'chish, burchakli ko'chish, ishoralar, epyuralarni ko'paytirish, haroratni o'zgarishi, qatlam tolachalarining harorati, chiziqli kengayish koeffitsenti, epyuralar yuzi, cho'kish, reaksiya kuchi

Tashqi kuchlar, temperatura o'zgarishi yoki tayanchlarning qo'zgalishi ta'sirida inshoot elementlarining geometrik ulchamlari o'zgaradi va bu o'zgarishi deformatsiyasi deyiladi. Inshoot deformatsiyalanganda uning deyarli hamma nuqtalari uzining koordinatalarini o'zgartirib, yangi vaziyatni oladi.

Deformatsiya natijasida inshoot nuqtalarining berilgan holatda yangi holatga utishi ko'chish deyiladi. Masalan, 5.1-rasmda ko'rsatilgan siniq sterjen tashqi kuchlar (yuklar) ta'sirida deformatsiyalanib, yangi holatni egallaydi. O'ng tayanch V holatdan V₁ holatga ko'chsin. Bu VV₁ ko'chish gorizontol ko'chish deyiladi. A kesim biror burchakka buriladi, S va D tugunlar ham gorizontol ko'chish bilan birga biror burchakka buriladi. Inshoot nuqtalarining ko'chishlari va kesimlarining burilishi burchagini bilan belgilaymiz. Birinchi indeks kesim ko'chishining yo'nalishini, ikkinchi indeks esa bu ko'chishning hosil bo'lish sababini ko'rsatadi. Masalan, 5.1-

rasmda ko'rsatilgan sxemada bir necha nuqtalarning ko'chishlarni belgilaymiz: Δ₁-V qismning 1-1 yo'nalishi bo'yicha tashqi (R va q) kuchlar ta'sirida ko'chishi; Δ_{2r} - D tugunning gorizontol 2-2 yo'nalish bo'yicha tashqi (R va q) kuchlar ta'sirida ko'chishi; Δ_{3r} -A kesimning 3-3 yo'nalish bo'yicha R va q kuchlar ta'siridan ko'chishi; Δ_{4r} -S tugunning 4-4 yo'nalish bo'yicha R va q kuchlar vujudga keltirgan burilish burchagi.

Deformatsiyalanuvchi sistemalar quyidagi xususiyatlarga ega deb qabul qilinadi: 1) sistemaning materiali ideal elastik va chiziqli deformatsiyalanuvchi; 2) yuklar ta'sirida sistemaning asosiy o'lchamlari deyarli o'zgarmaydi; 3) kuchlar ta'siri mustaqillik printsipiga bo'ysunadi; 4) materialning istalgan nuqtasidagi kuchlanish proporsionallik chegarasidan oshmaydi.


Birlik kuch (R=1) ta'siridan vujudga kelgan ko'chishni bilan belgilaymiz va u birlik ko'chish deb ataladi. 5.2-rasmda birlik kuch ta'sirida vujudga kelgan birlik ko'chishlar ko'rsatilgan; δ₁₁-birlik R₁ kuch yo'nalishi bo'yicha R₁=1 ta'siridan hosil bo'lgan ko'chish; δ₂₁ - ikkinchi birlik kuch yo'nalishi bo'yicha R₁=1 ta'siridan vujudga kelgan ko'chish; δ₃₁ -uchinchi birlik kuch yo'nalishi bo'yicha R₁=1 ta'siridan vujudga kelgan ko'chish. Kuchlar ta'sirining Mustaqillik 'rintsi'ga asosan R₁, R₂, R₃, ... , R_n kuchlardan biror yo'nalish bo'yicha hosil bo'lgan to'la ko'chish Δ_{ip} har bir kuch ta'siridan shu yo'nalish bo'yicha alohida aniqlangan ko'chishlarning yig'indisiga teng:

$$\Delta_{ip} = \delta_{i1}p_1 + \delta_{i2}p_2 + \dots + \delta_{in}p_n = \sum_{k=1}^n \delta_{ik}p_k \quad 5.1$$

Bu formulada to'la ko'chish - tashqi kuchlarga nisbatan chiziqli funktsiyadir.

Tashqi kuchlarning bajargan ishi.

Agar elastik sistemaga qo'yilgan kuchlar noldan boshlab asta-sekin, bir me'yorda ortib borsa, bunday kuchlar statik qo'yilgan kuchlar deyiladi. Bu tarzda qo'yiladigan kuchlar miqdorining asta-sekin ortishi natijasida elastik inshoot qismlarida hosil bo'ladigan deformatsiyaning ushish tezligi juda kichik bo'ladi. SHuning uchun inshootning harakatlanaetgan massalarida hosil bo'ladigan inersiya kuchlarini hisobga olmasa ham bo'ladi. Bu shartga kura, deformatsiyalanish jaraenida tashqi kuchlar bilan ichki elastik zo'riqishlar orasida doim muvozanat saqlanadi.



5.1-rasm.

5.3-rasm, ada tasvirlangan sitema statik qo'yilgan R_i kuchning ta'sirida deformatsiyalanadi. Elastik sistemada har qanday nuqtalarning ko'chishi (Guk qonuniga asosan) uni hosil qiluvchi tashqi kuch miqdoriga to'g'ri 'ro'rtsionaldir(5.3-rasm,b):


$$\Delta_i = \alpha \cdot i \quad (5.2)$$

bunda Δ_i -kuch P_i dan shu kuch yo'nalishi bo'yicha hosil bo'lgan ko'chish. Bu ko'chish haqiqiy ko'chish deyiladi. α - inshoot elementlari va o'lchamlariga va uning materialiga bog'liq bo'lgan koeffisient.

Agar tashqi R_i kuch miqdoriga cheksiz kichik dR_i ortirma berilsa, kuch qo'yilgan nuqta qo'shimcha $d\Delta_i$ miqdorga kuchadi va $P_i + dP_i$ kuch o'zi qo'yilgan nuqta bilan shu miqdorga siljib ish bajaradi. Bu kuchning $d\Delta_i$ ko'chishda bajaragan elementar ishi:

$$dA = (P_i + dP_i) d\Delta_i = P_i d\Delta_i + dP_i d\Delta_i$$

Bu ifodada $dP_i d\Delta_i$ ikkinchi tartibli cheksiz kichik miqdor bo'lgani uchun uni e'tiborga olmasa ham bo'ladi. U holda:



5.2 -rasm.


$$dA = P_i d\Delta_i = \alpha P_i dP_i \quad (5.3)$$

Bu ifodani integrallab, statik qo'yilgan R_i kuchning tula bajaragan ishi miqdorini aniqlaymiz:

$$A = \alpha \int_0^{P_i} P_i dP_i = \frac{\alpha P_i^2}{2} = \frac{P_i \Delta_{ip}}{2} \quad (5.3)$$

A -tashqi kuchning haqiqiy bajaragan ishi deb ataladi. SHunday qilib, tashqi kuchning haqiqiy bajaragan ishi shu kuchni,uning yo'nalishi bo'yicha hosil bo'lgan ko'chish miqdoriga ko'paytmasining yarmiga teng. Agar sistemaga moment Mga teng bo'lgan juft kuch statik ravishda qo'yilgan bo'lsa, uning bajaragan haqiqiy ishi yuqorida baen etilgan mulohazaga asosan aniqlanadi (5.3-rasm,v):

$$A = \frac{M\varphi}{2} \quad (5.3')$$




5.3.- rasm.

Bunda φ -juft kuch qo'yilgan ko'ndalang qismining burilish burchagi.

Ish tushunchasini umumlashtirish uchun elastik sistemaga qo'yilgan har kandy faktorlarini (R , M va xokazo) umumlashtirilgan kuch deb qaraymiz. Elastik sistemaning deformatsiyalangan holatini to'la aniqlaydigan va o'zaro bog'liq bo'lmagan ko'chishlar umumlashtirilgan ko'chishlar deb ataladi.

Umumlashtirilgan ko'chishlar umumlashtirilgan ko'chishlarga mos bo'lishi kerak, ya'ni ularning ko'paytmasining yarmi umumlashtirilgan kuch bajargan ishni berishi lozim. Shunga kura umumlashtirilgan kuch R_i ga umumlashtirilgan koordinata Δ_i va umumlashtirilgan juft kuch momenti M_i qo'yilgan bo'lsa, unga mos kelgan umumlashtirilgan koordinata bo'ladi. Bundan keyin umumlashtirilgan kuchlarni R_i umumlashtirilgan koordinatalarni Δ_i deb belgilaymiz.



5.4 -rasm.

Agar inshootga statik umumlashtirilgan kuchlar gruppasi qo'yilgan bo'lsa (5.4 -rasm), u holda uning bajargan to'la ishi har bir umumlashtirilgan kuchning o'ziga mos kelgan umumlashtirilgan ko'chishida bajargan ishlar yigindisiga teng bo'ladi.

$$A = \frac{P_1 \Delta_{1p}}{2} + \frac{P_2 \Delta_{2p}}{2} + \dots + \frac{P_5 \Delta_{5p}}{2}, \text{ ya'ni } A = \sum \frac{P_i \Delta_{ip}}{2} \quad (5.4)$$

Demak, elastik sistemaga statik qo'yilgan tashqi kuchlar o'z yo'nalishlari bo'yicha shu kuchlardan hosil bo'lgan ko'chishlarda (5.4) ifoda bilan aniqlanadigan ish bajariladi. Bu ish tashqi kuchlarning bajargan haqiqiy ishi deb atalib, ko'chishlar yo'nalishi ularni vujudga keltiruvchi kuchlar yo'nalishiga mos kelgani uchun hamma vaqt musbat ishorali bo'ladi.


Elastik sistemaga statik ravishda qo'yilgan tashqi kuchlardan va tem'eraturaning o'zgarishidan hosil bo'lgan ko'chishlarni aniqlash formulasini keltirib chiqarish yukorida qurilgan kuchning bajara oladigan ishlar teoremasiga asoslangan.

Masalan, 5.12-rasm, a da tasvirlangan tashqi kuchlar ta'siridagi sistemaning biror V nuqtasidan vertikasi yo'nalishi bo'yicha chiziqli ko'chishi Δ_i ni aniqlash kerak bo'lsin. Bu masalani hal qilishda kuchning bajara oladigan ishlar teoremasini tatbiq etamiz. Buning uchun sistemaning ikki holatini tekshiramiz: I holatda berilgan sistema tashqi kuchlar ta'sirida bo'ladi (berilgan holat); II holatda esa berilgan sistema tashqi kuchlar ta'siridan ozod qilinadi, unga faqat izlanaetgan ko'chish yo'nalishi bo'yicha birlik kuch $R_i = 1$ qo'yilgan bo'ladi (5.12-rasm,b).

Birlik kuch qo'yilgan II holatni asosiy holat deb qabul qilamiz va tashqi kuchlar ta'siridan hosil bo'lgan I holatdagi ko'chishlarni mumkin bo'lgan ko'chish deb, (5.20) tenglikni tatbiq etamiz. Bunda ikkinchi holatdagi $R_i = 1$ birlik kuchning I holatdagi tashqi kuchlardan hosil bo'lgan ko'chishda bajara oladigan ishi $A_{II,I}$ ga II holatga ichki zo'riqish kuchlarining birinchi holatda hosil bo'lgan ko'chishlarda bajara oladigan ishi II,I ga teng bo'ladi. Bu bajarilishi


mumkin bo'lgan ishlarni aniqlaymiz. II holatdagi birlik kuch $R_i=1$ izlanayotgan ko'chish Δ_i bo'yicha yo'nalganligi sababli, uning bajara oladigan ishi

$$A_{II,I} = 1 * \Delta_i \text{ bo'ladi.} \quad (5.12)$$



5.12-rasm.

II holatdagi ichki zo'riqish kuchlarning bajara oladigan ishi II,I ni aniqlash uchun I va II holatlardan ixtieriy x masofada cheksiz kichik dx uzunlikdagi elementlarni ajratib, ularga tegishli ichki kuchlar ta'sir ettiramiz (5.13-rasm, a va b). I holatdagi ajratilgan elementga tashqi kuchlarning ta'siridan hosil bo'lgan eguvchi moment M_r , bo'yлама kuch N_r va ko'ndalang kuch Q_r qo'yilgan bo'ladi. Bu zo'riqishlarning har birining elementga ta'sirini tekshiramiz. Eguvchi moment M_r ta'sirida ikki ko'shni kesimlar bir-biriga nisbatan



5.13-rasm.

$\Delta\varphi$ burchakka buriladi va uning miqdori (5.6) formulaga asosan aniqlanadi:

$$\Delta\varphi = \frac{M_p dx}{EI}. \quad (a)$$

Bo'yлама kuch N_r ta'sirida esa element Δdx dx miqdorga cho'ziladi. Bu cho'zilish Guk qonuniga asosan

$$\Delta dx = \frac{N_p dx}{EF}. \quad (b)$$

Ko'ndalang kuch Q_r ta'sirida elementning chap va ung ko'ndalang kesimlari bir-birlariga nisbatan siljiydi (5.6-rasm,a). Bu siljishning miqdori Guk qonuniga asosan

$$\Delta\gamma = \frac{Q_p dx}{GF} \eta. \quad (v)$$

II holatdagi ajratilgan elementga birlik kuch $R_i=1$ ta'sirida hosil bo'lgan ichki zo'riqish M_i , N_i , Q_i lar qo'yilgan bo'ladi. I holatdagi dx elementning $\Delta\varphi$, Δdx , $\Delta\gamma$ ko'chishlari II holatdagi zo'riqishlar M_i , N_i , Q_i ga nisbatan mos ravishda mumkin bo'lgan ko'chishlar bo'ladi. Bunda II holatdagi sistemaning M_i , N_i , Q_i zo'riqish kuchlarining bajara oladigan ishi quyidagicha aniqlanadi:

$$W_{II,I} = \sum_a^b \int_a^b \bar{M}_i \Delta\varphi + \sum_a^b \int_a^b \bar{N}_i \Delta dx + \sum_a^b \int_a^b \bar{Q}_i \Delta\gamma \quad (5.22)$$

bu yerda integral ostidagi ifodalar dx uzunlikdagi element ichki kuchlarning bajara oladigan ishini ifodalaydi. Integrallar a dan, b gacha oraliqdagi element ichki kuchlarining bajara

oladigan ishini beradi. Σ ishora esa, sistemaning hamma oraliqlaridagi ichki kuchlarning bajara oladigan ishlari yigindisini ifodalaydi.

(5.22) formuladagi ko'chishlarni (a), (b) va (v) larga asosan ichki kuchlar orqali yozamiz:

$$W_{II,I} = \sum_{i=1}^n \int_0^{a_i} \overline{N}_i \frac{N_p dx}{EF} + \sum_{i=1}^n \int_0^{a_i} \overline{M}_i \frac{M_p dx}{EI} + \sum_{i=1}^n \mu \int_0^{a_i} \overline{Q}_i \frac{Q_p dx}{GF}. \quad (5.22)$$

(5.20) ga asosan (5.12) va (5.22') ifodalarga bajara oladigan ishlarni bir-biriga tenglashtiramiz:

$$1^* \Delta_i = \sum_{i=1}^n \int_0^{a_i} \overline{N}_i \frac{N_p dx}{EF} + \sum_{i=1}^n \int_0^{a_i} \overline{M}_i \frac{M_p dx}{EI} + \sum_{i=1}^n \mu \int_0^{a_i} \overline{Q}_i \frac{Q_p dx}{GF}. \quad (5.23)$$

Olingan formula elastik sistemalarda tashqi kuchlardan hosil bo'lgan ko'chishlarni aniqlashda kullaniladigan universal formuladir. Bu ifoda Mor formulasi deb ham ataladi.

Universal formula (5.23) yordamida har kandy sterjenli konstruksiya (rama, ferma, balka va arka)larda hosil bo'lgan ko'chishlarni quyidagi tartibda aniqlash mumkin:

1. Elastik sistemaning har bir oraligida ixtiyoriy kesim uchun tashqi kuchlardan hosil bo'lgan zo'riqish kuchlari M , N , va Q -ning tenglamalari yoziladi (I holat).

Izlanayotgan ko'chish yo'nalishi bo'yicha sistemaga birlik kuch (chizikli ko'chishni aniqlashda tu'langan birlik kuch, burchakli ko'chish aniqlanganda esa birlik moment) qo'yiladi (II holat) va uning ta'siridan I holat oraliqlariga mos oraliqlarda ixtiyoriy kesim uchun \overline{M}_i , \overline{N}_i va \overline{Q}_i zo'riqish kuchlarining tenglamalari tuziladi. 3.1 va II holatda hosil bo'lgan zo'riqish M , N , Q , \overline{M}_i , \overline{N}_i va \overline{Q}_i ning ifodalari (5.23) formulaga qo'yamiz va sistemaning har bir oraliq chegarasida uni integrallab, izlanayotgan ko'chish Δ_i ni aniqlaymiz.

Agar ko'chish Δ_{ip} ning ishorasi musbat bo'lsa, ko'chishning yo'nalishi birlik kuch yo'nalishi bilan mos keladi, aks holda ularning yo'nalishlari bir-biriga teskari bo'ladi.

Universal formulaning xususiy xollari. 1. Balki va ramalardagi ko'chishlarni aniqlashda ularda hosil bo'ladigan bo'ylama va ko'ndalang kuchlar ta'sirini e'tiborga olmasa ham bo'ladi, chunki ular ta'siridan hosil bo'lgan ko'chish eguvchi moment ta'siridan hosil bo'lgan ko'chishga nisbatan julda kichik. Demak, rama va balkalardagi ko'chishlarni hisoblashda (5.23) formula quyidagi kurinishni oladi:

$$\Delta_{ip} = \sum_{i=1}^n \int_0^{a_i} \overline{M}_i \frac{M_p dx}{EI} \quad (5.24)$$

2. Ferma tugunlarining ko'chishi faqat bo'ylama kuch ta'siridan hosil bo'ladi, chunki uning sterjenlarida eguvchi moment va ko'ndalang kuchlar hosil bo'lmaydi. U holda ferma tugunlarining ko'chishi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:


$$\Delta_i = \sum \int_a^b \frac{N_p \overline{N}_i dx}{EF} = \sum \frac{N_p \overline{N}_i l_i}{EF_i} \quad (5.25)$$

3. Egriligi kichik bo'lgan arkalardagi ko'chishlarni aniqlashda ularda hosil bo'ladigan ko'ndalang kuchni e'tiborga olmasa ham bo'ladi, chunki uning ko'chishga ta'siri kichikdir. Unda arkadagi ko'chishlar quyidagi formula orkali aniqlanadi:

$$\Delta_{ip} = \sum_{i=1}^n \int_0^{a_i} \overline{M}_i \frac{M_p dx}{EI} + \sum \frac{N_p \overline{N}_i ds}{EF_i} \quad (5.26)$$

Elastik sistemalar ikki kesimlarining o'zaro ko'chishlarini ham universal formula (5.23) yordamida aniqlash mumkin. Masalan, 5.14-rasm, a da tasvirlangan sistema S va D nuqtalarining o'zaro chizikli ko'chishini aniqlash uchun, uning ikkinchi holati qurilganda bu nuqtalarga ko'chish yo'nalishi bo'yicha bir-biriga qarama-qarshi yunalgan ikkita birlik kuch qo'yiladi (5.14-rasm, b). Agar sistema A va V kesimlarining o'zaro burchakli ko'chishini aniqlash talab

qilinsa, II holatda uning shu kesimlariga qarama-qarshi yoʻnalgan birlik momentlari qoʻyiladi (5.14-rasm,v).



5.14- rasm

Mustaqil ishlash va nazorat savollari:

1. Koʻchish deganda nimani tushunmasiz?
2. Koʻchish qanday belgilanadi?
3. Koʻchishlar qanday vujudga keladi?
4. Mor formulasini tushuntiring?
5. Vereshchagin formulasini tushuntirib bering?

12-mavzu. Statik noaniq sistemalar va ularning xususiyatlari


Reja:

1. Statik noaniq sistemalar va ularning xususiyatlari.
2. Kuch usulining mohiyati.

Tayanch soʻz va iboralar:

Statik aniqmas, tejimli va bikr, iqtisodiy qulay, ortiqcha bogʻlanishlar, haroratning oʻzgarishi, tayanchlarning choʻkishi, tekis ramalar, tashqi statik aniqmas, ichki statik aniqmas, ortiqcha bogʻlanishlar soni, asosiy sistema, koʻchishlar, nomaʼlum kuchlar, kuchlar taʼsirining mustaqillik printsiipi, kanonik tenglamalar mohiyati.

Qurilish praktikasida statik aniq sistemalar bilan bir qatorda statik aniqmas konstruksiya va inshootlar koʻp uchraydi. Masalan: uch prolyotli balka yoki ikki sharnirli arka.



Bu tayanch bogʻlovchilaridagi reaksiya kuchlarini yoki ularning zoʻriqlarini statikaning muvozanat tenglamalari orqali aniqlash yetarli emas, shu sababli bunday


sistemalarni statik aniqmas konstruksiyalar qatoriga kiritiladi. Chunki ularda ortiqcha bogʻlanishlar mavjud boʻlib, har bir bogʻlanishda nomaʼlum reaksiya kuchlari vujudga keladi. Nomaʼlumlarni aniqlash uchun nomaʼlumlar sonini tenglamalar soniga tenglashtirish uchun qoʻshimcha tenglamalar tuzish talab etiladi.

Demak, elementlardagi tashqi kuchlardan hosil boʻladigan zoʻriqlash va reaksiya kuchlarini faqatgina statikaning muvozanat tenglamalari yordamida aniqlab boʻlmaydigan sistemalarni **statik aniqmas sterjenli sistemalar** deyiladi.

Bogʻlanish deganda nuqtalar va kesimlarning oʻzaro qoʻzgʻalishiga qarshilik koʻrsatuvchi har qanday toʻsiq tushuniladi. «**Ortiqcha**» bogʻlanish atamasi bogʻlanishlarning “keraksizligini” emas, balki “keragidan ortiqcha” ekanligini anglatadi. Agar statik aniqmas sistemadagi ortiqcha bogʻlanishlar tashlab yuborilsa, u holda statik aniq, geometrik oʻzgarimas sistema hosil boʻladi.


Demak, ortiqcha bogʻlanishlar soni sistemaning **statik aniqmaslik darajasi** deb ataladi.

Statik aniqmas sistemalarni shartli ravishda tashqi va ichki statik aniqmas sistemalarga ajratiladi. **Masalan:**



Berilgan aniqmas ramada oltita noma'lum tayanch reaksiya kuchlari ko'rsatilgan. SHulardan uchtasini statikaning muvozanat tenglamalaridan topilsa, qolgan uchasi statika uchun "ortiqcha" bo'lib qoladi. Ramaning V

va S tayanchlarini ortiqcha bog'lanish deb qabul qilib tashlab yuborilishi ramaning geometrik o'zgarmasligiga putur yetkazmaydi. Aksincha statik aniq sistema hosil bo'ladi. Ortiqcha bog'lanishlar o'rniga reaksiya kuchlar (P_V , R_V , R_C) ni qo'yamiz. Bu noma'lum reaksiya kuchlarni aniqlash uchun qo'shimcha tenglamalar tuzish taqozo etiladi. Xullas bu ramaning statik aniqmasligi tashqaridan ko'zga tashlanib turibdi. Xulosa qilib aytganda **tashqi statik aniqmas** sistemalarda, noma'lumlarni **tayanch reaksiya kuchlari** deb qabul qilinadi.



3-rasmdan ko'rinib turibdiki, ramaning statik aniqmasligi ko'zga yaqqol tashlanmaydi (3-rasm a.). Bir qarashda statik aniq ramaday tuyuladi. Aslida bu rama tashqi statik aniq, ichki statik aniqmas ramadir.

Geometrik o'zgarmas, statik aniq sistema hosil qilish uchun berilgan ramaning biror yeridan qirqamiz. Qirqimga tushgan kesimning qo'zg'almasligini ta'minlash uchun shu kesimda hosil bo'ladigan ichki

kuchlarni tashqi reaksiya kuchlarini chizamiz. (3-rasm v) Noma'lum tayanch reaksiyalari (P_A , R_A , R_V) statika tenglamalaridan to'pilsa, noma'lum ichki kuchlarni qo'shimcha tenglamalardan to'iladi. Xulosa qilib aytganda **ichki statik aniqmas** sistemalarda, noma'lumlarni **elementlarni o'zida yoki ichki zo'riqishlar** deb qabul qilinadi.

Statik aniqmas sistemalar haqida to'la ma'lumotga ega bo'lish uchun qanday **xossalarga** ega ekanligini bilish zarur. Ya'ni:

1. Statik aniqmas sistemalar tarkibida ortiqcha bog'lanishlarning mavjudligi tufayli o'ziga mos statik aniq sistemaga nisbatan bikrligi yuqoriroq bo'ladi.
2. Statik aniqmas sistemalar o'ziga mos statik aniq sistemalarga nisbatan tejamliroq bo'ladi.
3. Statik aniqmas sistemalardan biror ortiqcha bog'lanishning shikastlanishi inshootning butunlay ishdan chiqishiga olib kelmaydi. Statik aniq sistemalarda birorta bog'lanish buzilsa, inshoot butunlay ishdan chiqaradi.
4. Statik aniqmas sistemalarda haroratning o'zgarishi va tayanchlarning cho'kishi natijasida qo'shimcha zo'riqishlar 'aydo bo'ladi. Sistema elementlarining uzunligidagi farqlari, elementlarni yig'ishda yo'l qo'lgan ba'zi aniqmasliklar ham sistemada qo'shimcha zo'riqishlarni hosil qiladi.
5. Statik aniqmas sistema elementlarida boshlang'ich zo'riqish kuchlari bo'lishi mumkin. Statik aniq sistemalarda esa bu zo'riqishlar nolga teng bo'ladi.
6. Statik aniqmas sistemalarni hisoblashdan oldin, ularning elementlarining uzunliklari va ko'ndalang kesimining shakli belgilangan bo'lishi kerak. Agar bu o'lchamlar elementning mustahkamlik shartlarini qanoatlantirmasa, u holda elementlar ko'ndalang kesimlarining yangi o'lchamlarini belgilab, konstruksiya qaytadan hisoblashga to'g'ri keladi.

Statik aniqmas sistemalarni xossalari bilan tanishganimizdan so'ng ularni hisoblash usullarini ko'rib chiqamiz.

1. **Kuchlar usuli.** Bu usulda sistemaning ortiqcha bog'lovchilarida hosil bo'ladigan zo'riqish noma'lum zo'riqishlar deb qabul qilinadi.

2. **Ko‘chishlar usuli.** Bu usulda statik aniqmas sistema tugunlarining chiziqli va burchakli ko‘chishlari noma’lum deb qabul qilinadi.
3. **Aralash usul.** Aralash usulda sistemaning bir qismida ortiqcha bog‘lovchilarning zo‘riqish kuchlari, qolgan qismida esa sistema tugunlarining ko‘chishlari noma’lum deb qabul qilinadi. Demak, ramaning bir qismi uchun kuchlar usuli, ikkinchi qismi uchun esa ko‘chishlar usuli tatbiq qilinadi.
4. **Ketma-ket muvozanatlash usuli.** Bu usul ko‘chishlar usulining takamillashtirilgan ko‘rinishidir. Statik aniqmas sistemalarni hisoblashda elektron hisoblash mashinalaridan foydalanish uchun yuqoridagi usullarni matritsa formasida ifodalash kerak.

Statik aniqmas sistemalarni hisoblashni kuchlar usulidan boshlaymiz. Bu usul qadimiy va puxta ishlangan usullardan biri bo‘lib, qamrovining kengligi, o‘zlashuvining osonligi bilan boshqa usullardan ajralib turadi.


Statik aniqmaslik darajasini aniqlash. Kuchlar usulining harakterli xossalaridan biri, statik aniqmas sistemani aniqmaslik darajasini aniqlashdir. Statik aniqmaslik darajasi qancha kam bo‘lsa, uni hisoblash shuncha oson bo‘ladi. Statik aniqmas sistemani ortiqcha bog‘lavchilar soni n – quyidagicha aniqlanadi:

$$n = C_T + 2III + 3D, \quad (1)$$

bunda C_T – tayanch reaksiya kuchining soni, III – oddiy sharnirlar soni, D – statik aniq disklar soni.

Statik aniqmas sistemalarni aniqmaslik darajasini belgilash uchun quyidagi mulohazalarga asoslanib, uning yangi ifodasini olamiz.

1. To‘g‘ri to‘rtburchakli yopiq konturli rama uchun:



Berilgan yopiq konturli ramaning aniqmaslik darajasi uchga teng (4-rasm). Ya’ni;


$$n = 3K = 3 \cdot 1 = 3 \quad (2)$$

bunda K - yopiq kontur soni.

2. Agar yopiq konturli elementlaridan biriga sharnir kiritilsa, u holda ramaning statik aniqmaslik darajasi bittaga kamaytiriladi. Demak, xulosa qilib aytganda konturli ramalarning statik aniqmaslik darajasi n – quyidagicha aniqlanadi:


$$n = 3K + III \quad (3)$$

bunda K -yopiq konturlar soni, SH - oddiy sharnirlar soni.



Masalan, berilgan ramaning statik aniqmaslik darajasini (1) va (3) formulalarga asosan aniqlasak, (1) formulaga asosan tayanch reaksiya kuchlarini soni $S_T=7$, oddiy sharnirlar soni $SH=7$, disklar soni $D=5$, u holda $n = C_T + 2III + 3D = 7 + 2 \cdot 8 - 3 \cdot 5 = 8$ bo‘ladi. (6-rasm a). (3) formulga asosan, berilgan ramaning statik aniqmaslik darajasini aniqlaymiz. Ramada yopiq

konturlar soni $K=6$, oddiy sharnirlar soni $SH=10$, u holda $n=3K-III=3\cdot 6-10=8$ (6-rasm b). Demak, berilgan rama sakkiz marta statik aniqmasdir.



Kuchlar usulining asosiy sistemasini tanlash. Har qanday statik aniqmas sistemaning hisobi uning aniqmaslik darajasini aniqlashdan boshlanadi. SHundan so‘ng **asosiy sistema** tanlanadi. Berilgan sistemaning asosiy sistemalari bir nechta bo‘lishi mumkin. Hisoblash uchun shularning ichidan eng qulayi tanlab olinadi. Keyingi hisoblar ana shu tanlangan sistema ustida olib boriladi.

Xo‘sh, asosiy sistemaning o‘zi nima va u qanday hosil qilinadi?

Asosiy sistema statik aniq va geometrik o‘zgarmas bo‘lib, u berilgan sistemadagi ortiqcha bog‘lanishlarni tashlab yuborish yo‘li bilan hosil qilinadi.

Asosiy sistemani hosil qilishning uch xil yo‘li bor.

a) ortiqcha deb qabul qilingan tayanchlar yoki tayanch reaksiya kuchlaridan birini tashlab yuborish orqali;


b) berilgan sistemaga sharnirlar kiritish yo‘li bilan;

v) berilgan sistemani biror element kesmini qirqish yo‘li bilan.


Har uchala holda qam amalda ortiqcha bog‘lanishlar tashlab yuborilgan deb hisoblanadi. SHundan so‘ng, berilgan sistemaning dastlabki muvozanat holatini tiklash maqsadida yo‘qotilgan bog‘lanishlar o‘rniga ularning vazifasini bajaruvchi noma‘lum kuchlar X_1 , X_2 , X_3 , va hokazo qo‘yiladi (7, 8-rasm).

Birinchi holda tashqi statik aniqmas rama uchun asosiy sistema variantlarini tanlashni ko‘rib chiqamiz (7-rasm). Berilgan statik aniqmas rama uchun tuzilgan asosiy sistemalarga izoh beramiz. Rama ikki marta statik aniqmas, shuning uchun unga besh xil asosiy sistema tasvirlangan. 7-rasm b-da sharnirli qo‘zg‘almas tayanch tashlab yuborilib, uning o‘rniga tayanch reaksiyalari X_1 va X_2 qo‘yilgan. 7-rasm v-da chap qistirib mahkamlangan tayanch sharnirli qo‘zg‘aluvchi tayanch bilan almashtirilgan. Tashlab yuborilgan bog‘lanishlar o‘rniga reaksiya kuchlari qo‘yilgan. 7-rasm d-da ramaning chap va o‘ng biki tugunlarga sharnirlar kiritilgan va sharnirlar tufayli yo‘qotilgan bog‘lanishlar o‘rniga moment X_1 va X_2 qo‘yilgan. 7-rasm e-da chap qistirib maxkamlangan tayanch sharnirli qo‘zg‘aluvchi tayanch bilan almashtirilgan va rama rigeliga sharnir kiritilgan. Tashlab yuborilgan bog‘lanishlar o‘rniga moment X_1 va X_2 qo‘yilgan.

Beshta asosiy sistema ham geometrik o‘zgarmas, statik aniqdir. Hisoblash ishlari uchun ular ichidan istalgan sistemani tanlab olish mumkin. Beshta holda ham hisob natijalari bir xil chiqaveradi. Biroq 7-rasm b-da tasvirlangan asosiy sistema bular ichida eng maqbulidir. CHunki bunday sistemaning M epyuralarini qurish va ko‘chishlarni aniqlash boshqalariga nisbatan birmuncha qulay.



Ikkinchi holda uch noma'lumli ichki statik aniqlamas ramaning to'rt xil asosiy sistemasi ko'rsatilgan. Bularning dastlabki uchta ramaga o'xshab ketadi (8-rasm b, v, g). Oxirgisi qirqish usulida hosil qilingan. Qirqilgan kesimga tashqi kuchlar ta'sirida shu kesimda hosil bo'ladigan ichki kuchlar, bo'yama X_1 , ko'ndalang kuch X_2 , va eguvchi moment X_3 lar qo'yilgan. Bu to'rt asosiy sistemaning birinchi va oxirgisi hisoblash uchun qulaydir.



Kuchlar usulining kanonik tenglamalari. Asosiy sistemalarda ortiqcha bog'lanishlar noma'lum kuchlar bilan almashtirilgandan keyin, endigi vazifamiz ana shu noma'lum kuchlarni aniqlashdan iborat bo'ladi. Buning uchun statika tenglamalariga qo'shimcha ravishda **kanonik** tenglamalar tuzamiz. Kanonik tenglamalarni tuzish tartibini 7-rasm b-da ko'rsatilgan ikki noma'lumli rama misolida ko'rib chiqamiz.

Berilgan ramada sharnirli qo'zg'almas tayanchning markazi V vertikal va gorizontal yo'nalishlarda qo'zg'almasdir, ya'ni uning shu yo'nalishlardagi ko'chishlari nolga tengdir. Bunday shart asosiy sistemada ham saqlanib qolishi lozim, ya'ni V nuqtasining vertikal va gorizontal ko'chishlarinolga teng bo'lishi zarur.

$$\Delta_{x_1} = 0; \quad \Delta_{x_2} = 0; \quad (4)$$

bu yerda Δ_{x_1} – sterjen uchi S ning X_1 kuch yo'nalishidagi ko'chishi;

Δ_{x_2} – shu nuqtaning X_2 kuchi yo'nalishdagi ko'chishi.

Har ikkala ko'chish X_1 va X_2 kuchlari hamda tashqi yuklar ta'sirida vujudga keladi.

Kuchlar ta'sirining mustahkamligi qoidasidan foydalanib, (4) ni aloqida ko'chishlar yig'indisi sifatida ifodalaymiz.

$$\begin{aligned} \Delta_{x_1 x_1} + \Delta_{x_1 x_2} + \Delta_{x_1 P} &= 0; \\ \Delta_{x_2 x_1} + \Delta_{x_2 x_2} + \Delta_{x_2 P} &= 0; \end{aligned} \quad (5)$$

Bu yerda ko'chishlarga qo'yilgan birinchi indekslar ko'chishning yo'nalishini, ikkinchi indekslar esa shu ko'chishni yuzaga keltiruvchi sababni bildiradi.

Endi X_1 va X_2 kuchlarni ta'sirida hosil bo'lgan ko'chishlarni Guk qonuniga asosan birlik ko'chishlar orqali ifoda etamiz.

5. Kuch usulining asosiy sistemasi qanday tanlanadi?
6. Asosiy sistema qanday shartlarga javob berishi kerak?
7. Kuch usulining kanonik tenglamalari qanday mahnoni bildiradi?
8. Kanonik tenglamalar sistemasining bosh koeffitsientlari nolga teng bo'lishi mumkinmi?
9. Kanonik tenglamalar sistemasining yordamchi koeffitsientlari qanday qiymatlarga teng bo'ladi?
10. Tenglamalar sistemasining koeffitsient va ozod hadlari qanday mahnoga ega?
11. Kuch usulini qanday ramalarda qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi?

13-14-mavzu. Statik noaniq ramalarni kuchlar usulida hisoblash. Kuchlar usulining kanonik tenglama koeffitsientlari va ozod hadlarini tekshirish

Reja:

1. Ramalarni kuch usulida hisoblash.
2. Statik noaniq sistemalarni erkinlik darajasi.
3. Kuch usulining asosiy sistemasi.
4. Kuch usulining kanonik tenglamalari
5. Birlik va tashqi yuklardan epyuralarni chizish.
6. Kanonik tenglama koeffitsientlari va ozod hadlarini aniqlash.
7. Tenglamalar sistemasini yechish va noma'lumlarni aniqlash.
8. Tuzatilgan birlik epyuralarini chizish
9. Yakuniy eguvchi moment epyurasini chizish.
10. Ko'ndalang va bo'ylama kuchlar epyuralarini chizish.
11. Epyuralarning to'g'riligini tekshirish

Tayanch so'z va iboralar.

Birlik epyura, tashqi yuk epyurasi, birlik ko'chish, koeffitsient, tashqi yuklardan ko'chish, ozod had, Mor formulasi, Vereshchagin usuli, tekshirish, noma'lumlar, sistemani yechish.

Ma'lumki, kanonik tenglamalarning koeffitsienti va ozod hadlari ko'chishlardir. SHuning uchun ularni aniqlashda ko'chishlar nazariyasidan foydalanamiz. Kanonik tenglamalarning koeffitsienti va ozod hadlarini aniqlangandan keyin, kanonik tenglamalarni noma'lum kuchlari va momentlar aniqlanadi.

Ko'chishlar nazariyasiga asosan birlik ko'chishlar quyidagi formula asosida to'iladi.

$$\delta_{ii} = \sum_{i=1}^n \int_0^{\ell} \frac{\bar{M}_i^2}{EI} dx; \quad \delta_{ik} = \delta_{ki} = \sum_{i=1}^n \int_0^{\ell} \frac{\bar{M}_i \cdot \bar{M}_k}{EI} dx; \quad \delta_{kk} = \sum_{i=1}^n \int_0^{\ell} \frac{\bar{M}_k^2}{EI} dx; \quad (8)$$

Bu yerda \bar{M}_1 -asosiy sistemaning istalgan kesmidagi birlik kuch $X_1=1$ dan hosil bo'ladi.gan moment;

\bar{M}_2 -o'sha kesimda $X_2=1$ kuchidan hosil bo'lgan moment; n – ramadagi noma'lumlar soni.

Tashqi yuklardan hosil bo'lgan ko'chishlar quyidagi farmullardan to'iladi.

$$\Delta_{ip} = \sum_{i=1}^n \int_0^{\ell} \frac{\bar{M}_i M_p}{EI} dx; \quad (9)$$

Kanonik tenglamalar sistemasidagi noma'lumlar oldidagi birlik ko'chishlar (koeffitsientlar) va ozod hadlarni aniqlash uchun Mor formulasi yoki Vereshchagin usulidan foydalanamiz.

Misol tariqasida 7-rasmda ko'rsatilgan ramani kuchlar usulida hisoblashni ko'rib chiqamiz.

Statik aniqmas elastik sistemalar (ramalar) kuchlar usuli bilan yuqoridagi fikrlarimizga asosan quyidagi taratibda hisoblanadi.

1. **Ramalarining statik aniqmaslik darajasi**, ya'ni ortiqcha bog'lanishlar soni (1) va (3) formulalarga asosan quyidagicha to'iladi. $n = C_T + 2III - 3D = 5 + 2 \cdot 0 - 3 \cdot 1 = 2$;

2. **Rama ortiqcha bog'lanishlardan ozod qilib, asosiy sistema tanlaymiz.**

Asosiy sistemaga qo'yilgan ortiqcha noma'lumlarning yo'nalishi bo'yicha tashqi yuklar va noma'lumlar ta'siridan hosil bo'lgan ko'chishlar yig'indisining nolga tengligini ifodalovchi **kanonik tenglamalar sistemasi** (6) asosan quyidagicha yoziladi.

$$\delta_{11}X_1 + \delta_{12}X_2 + \Delta_{1P} = 0;$$

$$\delta_{21}X_1 + \delta_{22}X_2 + \Delta_{2P} = 0;$$

3. Kanonik tenglamalar sistemasida noma'lumlar oldidagi birlik ko'chishlar (koeffitsientlar) va ozod hadlar aniqlanadi. Buning uchun birlik kuchlar ta'sirida eguvchi mament epyurasi quriladi (7 rasm v, g).

$$\delta_{11} = \sum \frac{\omega_i y_i}{EI_i} = \frac{\omega_1 y_1}{EI} + \frac{\omega_2 y_2}{EI_2} = \frac{6 \cdot 6}{2 \cdot 2 \cdot EI} \cdot \frac{2}{3} \cdot 6 + \frac{6 \cdot 4 \cdot 6}{EI} = \frac{36}{EI} + \frac{144}{EI} = \frac{180}{EI}$$

$$\delta_{12} = \delta_{21} = \sum \frac{\omega_i y_i}{EI_i} = \frac{\omega_1 y_4}{EI_1} + \frac{\omega_2 y_7}{EI_2} = \frac{6 \cdot 6}{2 \cdot 2 \cdot EI} \cdot 3 + \frac{6 \cdot 4 \cdot 1}{EI} = -\frac{27}{EI} - \frac{24}{EI} = -\frac{51}{EI}$$

$$\delta_{22} = \sum \frac{\omega_i y_i}{EI_i} = \frac{\omega_3 y_3}{EI_1} + \frac{\omega_4 y_4}{EI_2} + \frac{\omega_5 y_5}{EI_1} + \frac{\omega_6 y_6}{EI_1} = \frac{3 \cdot 3}{2 \cdot EI} \cdot \frac{2}{3} \cdot 3 + \frac{6 \cdot 3 \cdot 3}{2 \cdot EI} + \frac{3 \cdot 3}{2 \cdot EI} \cdot \frac{2}{3} \cdot 3 + \frac{1 \cdot 1}{2 \cdot EI} \cdot \frac{2}{3} \cdot 1 =$$

$$= \frac{9}{EI} + \frac{27}{EI} + \frac{9}{EI} + \frac{0.33}{EI} = \frac{45.33}{EI}$$

$$\Delta_{1P} = \sum \frac{\omega_i y_i}{EI_i} = \frac{\omega_{p_1} y_{p_1}}{2EI_2} + \frac{\omega_{p_2} y_{p_2}}{EI_1} = -\frac{36 \cdot 6 \cdot 4.5}{6EI} - \frac{36 \cdot 4 \cdot 6}{EI} = -\frac{162 + 864}{EI} = -\frac{1026}{EI}$$

$$\Delta_{2P} = \sum \frac{\omega_i y_i}{EI_i} = \frac{\omega_{p_1} y_4}{2EI} + \frac{\omega_{p_2} y_{p_2}}{EI_1} = \frac{36 \cdot 6 \cdot 3}{2 \cdot 3EI} + \frac{36 \cdot 4 \cdot 1}{EI} = \frac{252}{EI}$$

To'g'ri yechimga ega bo'lish uchun ko'chishlar to'g'ri to'ilgan bo'lishi kerak. Ularni to'g'ri yoki noto'g'ri to'ilganligini tekshirishni ikki xil usuli bor: ya'ni **qatorma-qator** yoki **yalpi** tekshirish.

Tekshirish uchun birlik epyuralarni qo'shib, yig'indi epyura \bar{M}_{12} quriladi 9 rasm v. **Qatorma-qator** tekshirish quyidagi formula asosida amalga oshiriladi:

$$(\delta_{11} + \delta_{12}) = \sum_{i=1}^n \int_0^l \frac{\bar{M}_1 \cdot \bar{M}_{12}}{EI} dx \quad (10)$$

ya'ni kanonik tenglamaning birinchi qatoridagi koeffitsientlar \bar{M}_1 va \bar{M}_{12} epyuralarining ko'paytmasiga teng chiqsa, u holda bu ko'chishlar to'g'ri to'ilgan bo'ladi. Xuddi shuningdek, tenglamani ikkinchi qatori ham tekshiriladi.

$$(\delta_{21} + \delta_{22}) = \sum_{i=1}^n \int_0^l \frac{\bar{M}_2 \cdot \bar{M}_{12}}{EI} dx \quad (11)$$

Yalpi tekshirishda barcha koeffitsientlar yig'indisi $\bar{M}_{12} \cdot \bar{M}_{12}$ ko'paytmasiga teng bo'lishi zarur, ya'ni:

$$(\delta_{11} + \delta_{12}) + (\delta_{21} + \delta_{22}) = \sum_{i=1}^n \int_0^l \frac{\bar{M}_{12}^2}{EI} dx \quad (12)$$

Endi topilgan koeffitsientlarni Vereshchagin usulidan foydalanib to'liq tekshiramiz:

$$\sum_{i=1}^n \int_0^l \frac{\bar{M}_{12}^2}{EI} dx = \frac{3 \cdot 3}{2EI} \cdot \frac{2}{3} \cdot 3 + \frac{3 \cdot 3}{2 \cdot 2EI} \cdot \frac{2}{3} \cdot 3 + \frac{3 \cdot 3}{2 \cdot 2EI} \cdot \frac{2}{3} \cdot 3 + \frac{3 \cdot 4 \cdot 5}{EI} + \frac{4 \cdot 4 \cdot 5,667}{2EI} =$$

$$= \frac{9 + 4,5 + 4,5 + 60 + 45,33}{EI} = 123,33$$

Birlik ko'chishlarni yig'indisini hisoblaymiz:

$$(\delta_{11} + \delta_{12}) + (\delta_{21} + \delta_{22}) = \frac{180 - 51 - 51 + 45,33}{EI} = 123,33$$

Ko'paytma yig'indiga teng chiqdi. Demak, ko'chishlar to'g'ri to'ilgan.

Endi birinchi qator koeffitsentlarini tekshiramiz. Buning uchun \bar{M}_1 va \bar{M}_{12} epyurasini ko'paymasini hisoblaymiz.

$$\sum_{i=1}^n \int_0^l \frac{\bar{M}_1 \cdot \bar{M}_{12}}{EI} dx = \frac{6 \cdot 6 \cdot 1}{2 \cdot 2EI} + \frac{6 \cdot 4 \cdot 5}{EI} = \frac{129}{EI}$$

$$(\delta_{11} + \delta_{12}) = \frac{180}{EI} - \frac{51}{EI} = \frac{129}{EI}$$

Bu yerda ham yig'indi ko'paytmaga teng chiqdi. Navbatda ikkinchi qator koeffitsentlarini tekshiramiz. Buning uchun \bar{M}_2 va \bar{M}_{12} epyurasini ko'paymasini hisoblaymiz.

$$\sum_{i=1}^n \int_0^l \frac{\bar{M}_2 \cdot \bar{M}_{12}}{EI} dx = \frac{3 \cdot 3}{2EI} \cdot \frac{2}{3} \cdot 3 + \frac{3 \cdot 3 \cdot 3}{2 \cdot 2EI} - \frac{3 \cdot 3 \cdot 3}{2 \cdot 2EI} - \frac{3 \cdot 3 \cdot 4}{2EI} + \frac{1 \cdot 1 \cdot 6,4}{2EI} = \frac{9 - 18 + 3,33}{EI} = -5,67$$

$$(\delta_{21} + \delta_{22}) = -\frac{51}{EI} + \frac{45,33}{EI} = -\frac{5,67}{EI}$$

Bu yerda ham yig'indi ko'paytmaga teng chiqdi. Shunday bo'lishi ham kerak edi.

Nihoyat ozod hadlarini tekshiramiz. Ya'ni ozod hadlar yig'indisi $\Delta_{1p} + \Delta_{2p}$, \bar{M}_{12} epyura bilan M_p epyurasining ko'paytmasiga teng bo'lishi kerak. Bu shartning bajarilishi ozod hadlarning to'g'ri to'ilganligi anglatadi.

$$\Delta_{1p} + \Delta_{2p} = \sum_{i=1}^n \int_0^l \frac{\bar{M}_{12} M_p}{EI} dx$$

$$\sum_{i=1}^n \int_0^l \frac{\bar{M}_{12} M_p}{EI} dx = -\frac{6 \cdot 36 \cdot 1,5}{3 \cdot 2EI} - \frac{36 \cdot 4 \cdot 5}{EI} = \frac{774}{EI}$$

$$\Delta_{1p} + \Delta_{2p} = -\frac{1026}{EI} + \frac{252}{EI} = -\frac{774}{EI}$$

Ko'chishlar, ya'ni koeffitsentlar va ozod hadlar to'g'ri to'ilganiga ishonch hosil qilingach, ularni kanonik tenglamagalarga qo'yamiz. Tenglamalarni birgalikda yechib, noma'lum kuchlarni aniqlaymiz

$$\begin{aligned}
180X_1 - 51X_2 - 1026 &= 0 \\
-51X_1 + 45,33X_2 + 252 &= 0 \\
9180X_1 - 2601X_2 - 52326 &= 0 \\
-9180X_1 + 7799,4X_2 + 45360 &= 0 \\
5198,4X_2 - 6966 &= 0 \\
X_2 &= \frac{6966}{5198,4} = 1,3 \text{ кН} \\
180X_1 - 51 \cdot 1,3 - 1026 &= 0 \\
180X_1 - 1092,3 &= 0 \\
X_1 &= \frac{1092,3}{180} = 6,06 \text{ кН}
\end{aligned}$$

Statik aniqmas ramalarning M, Q va N epyuralarini qurish. Kanonik tenglamalardan ortiqcha noma'lumlar X_1, X_2, X_3, \dots va x.k. aniqlangach, ramaning natijaviy, ya'ni tugallangan M epyurasi quriladi. Istalgan kesimdagi moment qiymati kesish va qo'shish usullarida aniqlanadi.

Tashqi yuklarni va aniqlangan X_1 hamda X_2 zo'rishqishlarini asosiy sistemaga tegishli yo'nalish bo'yicha ta'sir ettirib, uni oraliqlarga bo'lamiz (10-rasm).

1 oraliq $0 \leq x_1 \leq 3 \text{ м}$

$$M_{x_1} = -X_2 \cdot x_1; \quad Q_{x_1} = X_2$$

$$N_{x_1} = -X_1$$

$$x_1 = 0 \quad M_4 = 0$$

$$x_1 = 3 \quad M_3 = -1,3 \cdot 3 = -3,9$$

$$Q_4 = Q_3 = 1,3 \text{ кН}$$

$$N_4 = N_3 = -6,06 \text{ кН}$$

2 oraliq $0 \leq x_2 \leq 6 \text{ м}$

$$M_{x_1} = X_1 \cdot x_2 - \frac{q \cdot x_2^2}{2} - X_2 \cdot 3; \quad Q_{x_2} = -X_1 + q \cdot x_2; \quad N_{x_2} = -X_2;$$

$$x_2 = 0 \quad M_3 = -X_2 \cdot 3 = -3,9$$

$$x_2 = 3 \quad M_{yp} = 6,06 \cdot 3 - \frac{2 \cdot 3^2}{2} - 1,3 \cdot 3 = 18,18 - 9 - 3,9 = 5,28 \text{ кН}$$

$$x_2 = 6 \quad M_2 = 6,06 \cdot 6 - \frac{2 \cdot 6^2}{2} - 1,3 \cdot 3 = 36,36 - 36 - 3,9 = -3,54 \text{ кН}$$


$$x_2 = 0 \quad Q_3 = -X_1 = -6,06 \text{ кН}$$

$$x_2 = 6 \quad Q_2 = -6,06 + 2 \cdot 6 = 5,94 \text{ кН}$$

$$N_3 = N_2 = -1,3 \text{ кН}$$

3 oraliq $0 \leq x_3 \leq 4 \text{ м}$

$$M_{x_3} = X_1 \cdot 6 - \frac{q \cdot 6^2}{2} - X_2(3 - x_3) \quad Q_{x_3} = -X_2; \quad N_{x_3} = X_1 - q \cdot 6$$



10-рaсм

$$x_3 = 0 \quad M_2 = 6,06 \cdot 6 - \frac{2 \cdot 6^2}{2} - 1,3 \cdot 3 = 36,36 - 36 - 3,9 = -3,54 \text{ } \kappa H M$$

$$x_3 = 4 \quad M_1 = 6,06 \cdot 6 - \frac{2 \cdot 6^2}{2} + 1,3 \cdot 1 = 36,36 - 36 + 1,3 = 1,66 \text{ } \kappa H M$$

$$Q_{x_3} = -1,3 \text{ } \kappa H;$$

Ramani istalgan kesmini eguvchi natijaviy eguvchi moment epyurasini qurish uchun epyuralarni qo'shish usulidan foydalanamiz.

$$M = M_p + X_1 \cdot \bar{M}_1 + X_2 \cdot \bar{M}_2 + \dots + X_n \cdot \bar{M}_n \quad (13)$$

Bu yerda M_p -statik aniq asosiy sistemada tashqi yuklardan hosil bo'lgan moment;

\bar{M}_1 -asosiy sistemada $X_1 = 1$ kuchidan hosil bo'lgan moment.

X_1 kuchining haqiqiy qiymati ta'sirida hosil bo'lgan momentni to'ish uchun \bar{M}_1 momentini X_1 ga ko'paytiramiz, ya'ni X_1 ta'siridagi haqiqiy moment $X_1 \cdot M_1$ bo'ladi. Bu

qoida boshqa noma'lumlar $X_2, X_3, X_4, \dots, X_n$ ga ham tegishlidir.

Yuqorida ko'rilgan masalani shu tariqa M epyurasini quramiz. Ramaning eguvchi momentlar epyurasi hamma vaqt sterjenning tolalari cho'zilgan tomonga chizilishini eslatib o'tamiz (10-rasm).

Statik aniqmas ramaning yakunlovchi M epyurasini qurib bo'ldik. Bu bilan hisobning eng muhim va murakkab qismi tugadi. Endi ko'ngdalang va bo'ylama kuchlar epyuralarini qursak bo'ladi. Nega deganda M epyurasi asosida Q epyurasi, Q epyurasi asosida N epyurasi quriladi.



Q epyurasini qurish uchun ramaning sterjenlarini alohida bo'laklarga ajratib va ularni bir oraliqli statik aniq balkalar sifatida hisoblaymiz. Bunda balkalarga tashqi kuchlardan tashqari ramaning M epyurasidan olingan tugun momentlari ham qo'yiladi (11- rasm).

Rama ustuni balka ko'rinishida aks ettirilgan hamda tashqi kuch va tugun momentlari ko'rsatilgan. Oddiy balkaning Q epyurasi materiallar qarshiligi kursida bayon etilgan qoidalar asosida quriladi (10-rasm g).

Endi Q epyurasi asosida N epyurasini quramiz. Bunda rigelga qo'yilgan ko'ndalang kuch ustun uchun bo'ylama kuch, ustunga qo'yilgan ko'ndalang kuchlar esa rigel uchun bo'ylama kuch bo'ladi. Bo'ylama kuch sterjenni cho'zsa –musbat, siqsa –manfiy ishora olinadi (10-rasm v).

Qurilgan yakuniy (xotima) eguvchi moment epyurani tekshirish.


a) **Statik tekshirish.** Ramaning har bir tuguni eguvchi momentlar ta'sirida muvozanatda bo'lishi kerak. Ramadan tugunlar qirqib olinib, ularga qolgan qismining ta'sirini tegishli eguvchi moment zo'riqishlari bilan almashtiriladi va tugunning muvozanat shartlari yoziladi. Bu tekshirish zaruriy bo'lib, yetarli bo'la olmaydi. Ramaning tugunini qirqib olib, uning uchun muvozanant tenglamalarini yozamiz.



$$\begin{aligned}\sum X = 0. \quad -N_x + Q_x = 0, \quad -1.25 + 1.25 = 0 \\ \sum Y = 0. \quad -Q_x + N_x = 0, \quad 5.94 + 5.94 = 0 \\ \sum M = 0 \quad M - M = 0, \quad 3.43 - 3.43 = 0\end{aligned}$$

b) **Deformasion tekshirish.** Bu tekshirish oriqcha noma'lumlarni aniqlashda yo'l qo'yilgan xotolarni payqash imkonini beradi. Hisob natijalarini deformasion tekshirishda asosiy sistemalarga qurilgan birlik epyuralar ramaning tugal eguvchi moment epyurasi bilan navbatma-navbat

ko'paytiriladi yoki $\sum \int \frac{M_x \cdot \bar{M}_s}{EI} dx \approx 0$ Bu tekshirish bajarilsa, M_x epyura to'g'ri hisoblangan bo'ladi.



CHizmadan

$$\sum \int \frac{M_{\Sigma} M_1 dx}{EI} = \frac{36 \cdot 3}{2EI} - \frac{3.75 \cdot 6 \cdot 2}{2E2I} - \frac{3.43 \cdot 6 \cdot 4}{2E2I} - \frac{3.43 \cdot 4 \cdot 6}{2EI} + \frac{1.61 \cdot 4 \cdot 6}{2EI} = 0$$

SHunga o'xshash, $\sum \int \frac{M_{\Sigma} M_2 dx}{EI} = 0$ ekanligi ham ishonch hosil qilish mumkin. Demak, rama to'g'ri hisoblangan.

Mustaqil ishlash va nazorat savollari:

1. Birlik epyuralar nima uchun quriladi?
2. Kanonik tenglamalar sistemasining koeffitsienti va ozod hadlarini aniqlashda qaysi usul qulay?
3. Asosiy sistema uchun va epyuralar nima uchun va qanday qilib quriladi?
4. Tenglamalar sistemasining koeffitsient va ozod hadlarini tekshirishdan maqsad nima?
5. Qatorlab tekshirish qanday bajariladi?
6. Universal tekshirish qanday bajariladi?
7. Ozod hadlarni tekshirish qanday bajariladi?
8. Tenglamalar sistemasining barcha ozod hadlari nolga teng bo'lishi mumkinmi?
9. Kanonik tenglamalar sistemasini yechishning qaysi usullarini bilasiz?
10. Kanonik tenglamalar sistemasidagi noma'lumlar nima maqsadda aniqlanadi?
11. Tashqi kuchlardan hosil bo'lgan eguvchi moment epyurasidan birlik eguvchi moment epyurasini farqi nimada?
12. Natijaviy eguvchi moment epyurasini necha hil usulda qurish mumkin?
13. Natijaviy moment epyurasini tekshirish usullarini ayting.
14. Kesuvchi kuch epyurasini to'g'riligi qanday tekshiriladi?
15. Kesuvchi kuch qiymati qanday hisoblanadi?
16. Kesuvchi kuch ishorasi va yo'nalishi qanday aniqlanadi?
17. Bo'yлама kuch epyurasini to'g'riligichi?

15-mavzu. Simmetrik ramalarni kuchlar usulida hisoblash

Reja:

1. Simmetrik ramalarni hisoblash.
2. Statik noaniq ramalarni tayanch cho'kishiga hisoblash.
3. Statik aniqmas sistemalarni temperatura ta'siriga hisoblash

Tayanch so'z va iboralar:

Simmetrik ramalar, sistemalarni simmetrikligidan foydalanish, statik aniqmas ramalarni hisoblashda soddalashtirish usullari.


Statik aniqmas ramalarni hisoblashda soddalashtirish usullari.

Kanonik tenglamalar soni sistemadagi ortiqcha noma'lumlar soniga teng bo'lishini ilgari aytib o'tgan edik. Demak, sistemaning statik aniqlik darajasi ortgani sari kanonik tenglamalar soni ham ortib boradi, ularni birgalikda yechish uchun tobora ko'prok vaqt va mehnat talab etiladi. Aniq usullarga berilgan sistemadagi noma'lumlar sonini kamaytirib bo'lmaydi, biroq hisoblash ishlarini birmuncha osonlashtirish imkonini beradigan soddalashtirish usullari mavjuddir. Quyida ana shu usullarning ba'zilar bilan tanishib chiqamiz.

Sistlarning simmetrikligidan foydalanish.

Simmetrik ramalar faqat geometrik shakliga ko'ra emas, balki tayanchlari va bikrlilari bo'yicha ham simmetrik bo'lishi lozim. SHunda ularning simmetrikligidan foydalanib ba'zi soddalashtirishlarga erishish mumkin. 7.13-13-rasm, a-da simmetrik statik aniqlik rama tasvirlangan. Rama bitta vertikal simmetriya o'qiga ega. Ramaning chap va o'ng tayanchlari bir xil. Ramaning har ikkala ustuni, shuningdek rigelning chap va o'ng qismlari bir xil inertsia momentiga ega, bu har ikkala ustun bir xil bikrlikka o'zaro teng demakdir.

Agar ramaning asosiy sistemasini 13-rasm, b-da ko'rsatilgandek olsak, hisob jarayonida hech qanday soddalashuvga erishmaymiz, uch noma'lumli uchta kanonik tenglamalar sistemasini o'zgarishsiz qolaveradi:




13-pacm

$$\begin{aligned} \delta_{11}X_1 + \delta_{12}X_2 + \delta_{13}X_3 + \Delta_{1P} &= 0; \\ \delta_{21}X_1 + \delta_{22}X_2 + \delta_{23}X_3 + \Delta_{2P} &= 0; \\ \delta_{31}X_1 + \delta_{32}X_2 + \delta_{33}X_3 + \Delta_{3P} &= 0; \end{aligned} \quad (1)$$

Agar ramaning asosiy sistemasini 7.13-rasm, v-dagi ko'rinishda olsak, kanonik tenglamalar sistemasini ancha ixchamlashadi. Ramaning asosiy sistemasini hosil qilishda uni simmetriya o'qi o'tgan kesimdan qirqdik. Bu asosiy sistemaning birlik epyuralarini qursak, simmetrik (M_1, M_3) va teskari simmetrik (M_2) epyuralar hosil bo'ladi. (7.14-rasm).

To'g'ri va teskari simmetrik epyuralarning ko'paytmasi nolga teng bo'ladi. Bu qoida kanonik tenglama koeffitsientlarini aniqlashda juda qo'l keladi. CHunonchi, δ_{12} koeffitsientini aniqlashda M_1 va M_2 epyuralar Vereshchagin formulasi bo'yicha o'zaro ko'paytirilishi kerak. Biroq epyuralarning biri simmetrik, ikkinchisi teskari simmetrik bo'lgani uchun ko'paytma nol chiqishini oldindan bilamiz. SHunday qilib, $\delta_{12} = \delta_{21} = 0$. \bar{M}_2 va \bar{M}_3 epyuralarining ko'paytmasidan $\delta_{23} = \delta_{32} = 0$ kelib chiqadi.



14-pacm

Buning oqibatida kanonik tenglamalar sistemasini quyidagi ko'rinishga keladi:

$$\delta_{11}X_1 + \delta_{13}X_3 + \Delta_{1P} = 0;$$

$$\delta_{22}X_2 + \Delta_{2P} = 0;$$

$$\delta_{31}X_1 + \delta_{33}X_3 + \Delta_{3P} = 0;$$

ya'ni yaxlit tenglamalar sistemasi (1) ikkita mustaqil tenglamalar sistemasiga ajralib ketdi: bulardan biri

$$\begin{aligned} \delta_{11}X_1 + \delta_{13}X_3 + \Delta_{1P} &= 0; \\ \delta_{31}X_1 + \delta_{33}X_3 + \Delta_{3P} &= 0; \end{aligned} \quad (2)$$

ikkinchisi $\delta_{22}X_2 + \Delta_{2P} = 0$;

SHunday qilib, asosiy sistema tanlash jarayonida ramaning simmetriklik xususiyatlaridan foydalanib, uch noma'lumli yaxlit tenglamalar sistemasini ikkita mustaqil tenglamalar sistemasiga ajratdik, bularning biri ikki noma'lumli ikkita tenglama, ikkinchisi bir noma'lumli bitta tenglama. Natijada hisob ishlarini ancha qisqartirish imkoniyatiga ega bo'ldik.

Noma'lumlarni guruhlash.

Ko'p oraliqli simmetrik ramalarni hisoblashda to'g'ri va teskari simmetrik bo'lgan epyuralar hosil qilish uchun noma'lumlar sifatida alohida kuchlar emas, balki kuchlar guruhi qabul qilinadi. Ikki noma'lumli rama misolida usulning mohiyatini bayon etamiz (7.15-rasm, a).

Berilgan rama ikki oraliqli bo'lib, sharnirli qo'zg'aluvchan tayanchlar ustunga nisbatan simmetrik joylashgan. Ramaning asosiy sistemasini tayanchlarni tashlab yuborish yo'li bilan hosil qilamiz. Yo'qotilgan bog'lanishlar o'rniga noma'lum reaksiya kuchlarini qo'yamiz

(15-rasm, b). Biroq asosiy sistemani bunday olinishi hisob ishlarini soddalashtirishga olib kelmaydi. Kanonik tenglamalar sistemasi yaxlitligicha qolaveradi.

$$\delta_{11}X_1 + \delta_{12}X_2 + \Delta_{1P} = 0;$$

$$\delta_{21}X_1 + \delta_{22}X_2 + \Delta_{2P} = 0;$$



Hisob jarayonida ma'lum darajada soddalashuvga erishish maqsadida Z_1 reaksiyasini X_1 va X_2 noma'lumlarining yig'indisi bilan, Z_2 reaksiya kuchini esa X_1 va X_2 noma'lumlarining ayirmasi bilan almashtiramiz (15-rasm, v). Natijada yakka kuchlar kuchlar guruhi bilan almashadi. Buning oqibatida to'g'ri (M_1) va teskari (M_2) simmetrik epyuralarga ega bo'ladi. (16-rasm, a).

Ma'lumki bunday epyuralar ko'paytmasi nolga teng bo'ladi, shunga ko'ra $\delta_{12} = 0$. Kanonik tenglamalar sistemasi esa alohida ikkita mustaqil tenglamalarga ajralib ketadi.

$$\delta_{11}X_1 + \Delta_{1P} = 0;$$

$$\delta_{22}X_2 + \Delta_{2P} = 0;$$

Mazkur tenglamalardan X_1 va X_2 noma'lumlari aniqlanadi, so'ngra yakunlovchi M epyurasi ko'riladi.



16-mavzu. Statik noaniq arkalarini hisoblash

Reja:


1. Ikki sharnirli statik aniqmas arka hisobi.
2. Statik noaniq arkalarini hisoblash.
3. Bir sharnirli statik aniqmas arka hisobi

Tayanch so'z va iboralar:


Ikki sharnirli arka, sharnirsiz arka, kuch usuli, asosiy sistema, elastik markaz, biki konsol.

Statik aniqmas arkalar ikki sharnirli va sharnirsiz bo'lishi mumkin.

Ikki sharnirli arkalar (10.1 – rasm) bir marta statik aniqmas, sharnirsiz arka (10.2 – rasm) uch marta statik aniqmas sistemadir.



10.1 – rasm



10.2 – rasm

Statik aniqmas arkalarini hisoblash kuchlar usuli yordamida bajariladi.

Ikki sharnirli arka ko'ndalang kesim inertiya momentining o'zgarish qonuni quyidagi formula orqali ifodalandi.

$$I_x = I_0 \cdot \cos \varphi_x, \quad (10.1)$$

Bunda I_0 – arka qulfidagi kesimning inertiya momenti;

φ_x – arka o'qiga o'tkazilgan urinma bilan gorizontaal chiziq orasidagi burchak.


(10.1) ga ko'ra, arkaning ko'ndalang kesim balandligi tayanch kesimdan markaziy kesimgacha kattalashib boradi.

Sharnirsiz arka uchun

$$I_x = \frac{I_0}{\cos \varphi_x} \quad (10.2)$$

Bu qonun bo'yicha arkaning ko'ndalang kesim balandligi tayanch kesimdan boshlab markaziy kesimga tomon kamayib boradi.

Ikki sharnirli arkalarini doimiy yuklar ta'siriga hisoblash.



10.3 – rasm

Ikki sharnirli arka (10.3 – rasm) bir marta statik aniqmas bo'lganligi tufayli, asosiy sistema tanlashning variantlari (10.3 b, v – rasmlar)ni tanlaymiz.

Kuch usulining kanonik tenglamasini yozamiz:

$$\delta_{11}X_1 + \Delta_{iR} = 0 \quad (10.3)$$

Δ_{iR} va δ_{11} ko'chishlar Mor formulasidan topiladi.

$$\Delta_{ip} = \sum_0^s \int \frac{\bar{M}_1 M_p ds}{EI_x} + \sum_0^s \int \frac{\bar{N}_1 N_p ds}{EF_x}, \quad \delta_{11} = \sum_0^s \int \frac{\bar{M}_1^2 ds}{EI_x} + \sum_0^s \int \frac{\bar{N}_1^2 ds}{EF_x}, \quad (10.4)$$

Asosiy sistema uchun (10.3b,v – rasm):

$$M_p = M^0(x); \quad N_p = Q^0(x) \cdot \sin \varphi_x;$$

$$\bar{M}_1 = -1 \cdot y; \quad \bar{N}_1 = 1 \cdot \cos \varphi_x$$

Agar arka $\frac{f}{l} \leq \frac{1}{6}$ bo'lsa, $\sin \varphi_x$ juda kichik miqdorga ega bo'lganligi sababli (10.4)

formuladan N_R ni hisobga ham olmasa bo'ladi. U holda

$$\Delta_{ip} = - \sum_0^s \int \frac{y \cdot M_p ds}{EI_x} \quad \delta_{11} = \int_0^s \frac{y^2 ds}{EI_x} + \int_0^s \frac{\cos^2 \varphi ds}{EF_x}, \quad (10.5)$$

bu yerda $ds = \frac{dx}{\cos \varphi_x}$; s – arka o'qining uzunligi.

Noma'lum kuch X_1 (10.3) tenglamadan aniqlangandan so'ng, arkaning ixtiyoriy K kesimida hosil bo'lgan zo'riqishlar quyidagi formulalarga asosan aniqlanadi.


$$\left. \begin{aligned} M_k &= M_k^0 - X_1 \cdot y_k \\ N_k &= Q_k^0 \sin \varphi_k + X_1 \cos \varphi_k \\ Q_k &= Q_k^0 \cos \varphi_k - X_1 \sin \varphi_k \end{aligned} \right\} \quad (10.6)$$

I_e^0 va Q_k^0 - oddiy balkaning K kesimida tashqi yuklardan hosil bo'lgan eguvchi moment va ko'ndalang kuch;

y_k – arka o'qining ordinatasi.

SHarnirsiz arkalarni hisoblash. Elastik markaz usuli.


SHarnirsiz arka (10.4a-rasm) uch marta statik aniqmas sistemadir.





10.4 – rasm

Asosiy sistemani bir necha varianti 10.4 rasm b, v, g da tasvirlangan. Kuchlar metodining kanonik tenglamalar sistemasini yozamiz.

$$\left. \begin{aligned} \delta_{11}X_1 + \delta_{12}X_2 + \delta_{13}X_3 + \Delta_{1p} &= 0, \\ \delta_{21}X_1 + \delta_{22}X_2 + \delta_{23}X_3 + \Delta_{2p} &= 0, \\ \delta_{31}X_1 + \delta_{32}X_2 + \delta_{33}X_3 + \Delta_{3p} &= 0. \end{aligned} \right\} \quad (10.7)$$



10.5 rasm



1.6 – rasm

Asosiy sistema ixtiyoriy kesimidagi zo'riqishlar tenglamasini yozamiz.

$$\bar{M}_1 = -1(c - y), \quad \bar{M}_2 = 1; \quad \bar{M}_3 = 1 \cdot x, \quad \bar{N}_1 = -1 \cdot \cos \varphi, \quad \bar{N}_3 = 1 \cdot \sin \varphi_k,$$

$$\bar{Q}_1 = -1 \cdot \sin \varphi_k, \quad \bar{Q}_3 = 1 \cdot \cos \varphi_k \quad \text{Mor formulasiga asosan,}$$

Agar asosiy sistema simmetrik tanlansa (10.4g-rasm) asosiy sistema uchun chizilgan birlik epyuralar simmetrik va nosimmetrik bo'ladi (10.5-rasm) va ayrim yordamchi ko'chishlar nolga teng bo'ladi, ya'ni:

$$\delta_{13} = \delta_{31} = 0 \quad \delta_{23} = \delta_{32} = 0.$$

U holda kuchlar metodining kanonik tenglamalar sistemasi ikki mustaqil gruppalariga ajraladi:

$$\left. \begin{aligned} \delta_{11}X_1 + \delta_{12}X_2 + \Delta_{1p} &= 0; \\ \delta_{21}X_1 + \delta_{22}X_2 + \Delta_{2p} &= 0. \end{aligned} \right\} \quad (a)$$

$$\delta_{33}X_3 + \Delta_{3p} = 0. \quad (b)$$

Kanonik tenglamalarning birinchi gruppasi (a) da faqat simmetrik noma'lumlar X_1, X_2 , ikkinchi gruppasi (b) da esa faqat teskari simmetrik noma'lum X_3 ishtirok etadi.

Birlik ko'chishlar 10.5 rasmdan foydalanib Mor formulasiga asosan aniqlanadi.

Agar asosiy sistemalar biki konsol kiritish orqali tanlansa, kanonik tenglamalarning barcha yordamchi koeffitsientlari nolga teng bo'ladi va tenglamalar uchta mustaqil gruppaga ajraladi (10.6-rasm).

$$\delta_{12} = \int_0^s \frac{\overline{M}_1 \overline{M}_2 ds}{EI} = - \int_0^s (c-y) \frac{ds}{EI} = 0, \quad (10.8)$$

S-arka o'qining uzunligi. Arkaning simmetrikligiga asosan $c \int_0^{s/2} \frac{ds}{EI} - \int_0^{s/2} y \frac{ds}{EI} = 0$,

bundan

$$c = \frac{\int_0^{s/2} y \frac{ds}{EI}}{\int_0^{s/2} \frac{ds}{EI}}. \quad (10.9)$$

Kuchlar metodining kanonik tenglamalari:

$$\left. \begin{aligned} \delta_{11} X_1 + \Delta_{1p} &= 0, \\ \delta_{22} X_2 + \Delta_{2p} &= 0, \\ \delta_{33} X_3 + \Delta_{3p} &= 0. \end{aligned} \right\} \quad (10.10)$$

(10.10) tenglamalardagi ko'chishlarni Mor formulasiga asosan aniqlaymiz:

$$\delta_{11} = 2 \int_0^{s/2} \overline{M}_1^2 \frac{ds}{EI} + 2 \int_0^{s/2} \overline{N}_1^2 \frac{ds}{EF} = 2 \int_0^{s/2} y_1^2 \frac{ds}{EI} + 2 \int_0^{s/2} \text{Cos}^2 \varphi \frac{ds}{EF}; \quad (10.11)$$

$$\delta_{22} = 2 \int_0^{s/2} \frac{ds}{EI}; \quad \delta_{33} = 2 \int_0^{s/2} x^2 \frac{ds}{EI}; \quad (10.12)$$

$$\Delta_{1p} = - \int_0^s M_p y_1 \frac{ds}{EI}; \quad \Delta_{2p} = \int_0^s M_p \cdot 1 \frac{ds}{EI}; \quad \Delta_{3p} = \int_0^s M_p \cdot x \cdot \frac{ds}{EI}. \quad (10.13)$$

$\overline{Q}_1, \overline{Q}_3$ va N_R, Q_R lardan hosil bo'lgan ko'chishlar M_R dan hosil bo'lgan ko'chishga nisbatan juda kichik bo'lgani sababli, ularning qiymatini hisobga olmasak ham bo'ladi.

SHarnirsiz arkaning ixtiyoriy ko'ndalang kesimidagi eguvchi moment, bo'ylama va ko'ndalang kuchlar quyidagicha aniklanadi:

$$\begin{aligned} M_k &= M_k^0 - X_1(c - y_k) + X_2 + X_3 \cdot x_k; \\ Q_k &= Q_k^0 - X_1 \text{Sin} \varphi_k + X_3 \text{Cos} \varphi_k; \\ N_k &= N_k^0 + X_1 \text{Cos} \varphi_k + X_3 \text{Sin} \varphi_k, \end{aligned} \quad (10.14)$$

bu yerda M_k^0 va Q_k^0 asosiy sistema K kesimida tashqi yukdan hosil bo'lgan eguvchi moment, ko'ndalang va bo'ylama kuchlar.

Mustaqil ishlash va nazorat savollari:

1. Statik noaniq arkalarini amalda qo'llanish sohalarini ayting?
2. Statik noaniq arkalar kesimlarining o'zgarishi uning qanday xususiyatiga bog'liq?
3. Ikki sharnirli va sharnirsiz arkalar ko'ndalang kesim inertsiya momentlarining o'zgarishi qanday formulalar orqali ifodalanadi?

4. Ikki sharnirli va sharnirsiz arkalar statik noaniqlik darajasini hisoblang.
5. Qanday arkalarini kuch usulida hisoblashda murakkablik mavjud?
6. Kanonik tenglamalar sistemasining koeffitsient va ozod hadlari qanday aniqlanadi?
7. Statik noaniq arkalarini hisoblashni soddalashtirish usullarini ayting.
8. Qaysi holatda kanonik tenglamalar sistemasining barcha yordamchi koeffitsientlari nolga teng bo'ladi?
9. Biki konsol uchi koordinatalari qanday aniqlanadi?
10. Ichki zo'riqishlardan qaysi biri eng katta qiymatlarga ega bo'lishi mumkin?

17-mavzu. Statik noaniq fermalarni hisoblash

Reja:

1. Umumiy tushunchalar.
2. Statik aniqmas fermalarni qo'zg'almas yuk ta'siriga hisoblash.

Tayanch so'z va iboralar:


Statik aniqmaslik darajasi, tashqi statik aniqmas fermalar, ichki statik aniqmas fermalar, kuch usuli, asosiy sistema, noma'lumlar, sterjenlarning bo'ylama zo'riqishlari.

Statik aniqmas fermalarni kuchlar usuli orqali hisoblash bilan tanishamiz. Statik aniqmas fermalarning statik aniqmaslik darajasi, ya'ni ortiqcha bog'lovchilari soni quyidagi formuladan aniqlanadi.

$$n = m + C_T - 2t, \quad (1)$$


bu yerda: m - ferma sterjenlarining soni: t - tugunlar soni: C_T - tayanch bog'lovchilarining soni. Statik aniqmas sharnirli fermalar tuzilishiga ko'ra 2 xil bo'ladi:

1. Tashqi tuzilish bo'yicha statik aniqmas fermalar. Bunga 1a rasmda tasvirlangan uch prolyotli uzluksiz ferma misol bo'ladi. Statik aniqmaslik darajasi $n = 35 + 5 - 2 \cdot 19 = 2$ bo'ladi. Bu yerda $m = 35$, $C_T = 5$ va $t = 19$ ga teng.



2. Ichki tuzilishi bo'yicha statik aniqmas fermalar (2a-rasm).

8.2a-rasmda ko'rsatilgan ferma tashqi bog'lanishlari bo'yicha statik aniq ($S_T = 3$), ichki tuzilishi bo'yicha esa statik aniqmasdir. Statik aniqmaslik darajasini hisoblaymiz: $t = 10$, $m = 21$, $C_T = 3$ u holda $n = 21 + 3 - 2 \cdot 10 = 4$.



Demak, ferma 4 marta statik aniqmasdir.

Kuchlar usulining asosiy sistemasi fermani ortiqcha tayanch bog'lovchilaridan ozod qilish yoki uning ortiqcha sterjenlarini kesish yo'li bilan tanlanadi. (1b, 2b-rasmlar). 1b – rasmda ko'rsatilgan asosiy sistema uchun kanonik tenglamalar quyidagicha yoziladi.

$$\left. \begin{aligned} \delta_{11}X_1 + \delta_{12}X_2 + \Delta_{1P} &= 0, \\ \delta_{21}X_1 + \delta_{22}X_2 + \Delta_{2P} &= 0. \end{aligned} \right\}$$

2b –rasmda ko'rsatilgan asosiy sistema uchun kanonik tenglamalar quyidagicha bo'ladi:

$$\left. \begin{aligned} \delta_{11}X_1 + \delta_{12}X_2 + \delta_{13}X_3 + \delta_{14}X_4 + \Delta_{1P} &= 0, \\ \delta_{21}X_1 + \delta_{22}X_2 + \delta_{23}X_3 + \delta_{24}X_4 + \Delta_{2P} &= 0, \\ \delta_{31}X_1 + \delta_{32}X_2 + \delta_{33}X_3 + \delta_{34}X_4 + \Delta_{3P} &= 0, \\ \delta_{41}X_1 + \delta_{42}X_2 + \delta_{43}X_3 + \delta_{44}X_4 + \Delta_{4P} &= 0. \end{aligned} \right\}$$

Bu tenglamalarning har biri asosiy sistemada noma'lum zo'riqish yo'nalishi bo'yicha tashqi yuk va noma'lum zo'riqishlar ta'siridan hosil bo'lgan o'zaro ko'chishlarning yig'indisi nolga teng bo'lish shartini ifodalaydi.

Asosiy sistemaning sterjenlarida tashqi yuk va har bir birlik noma'lum kuchdan hosil bo'lgan zo'riqishlar hisoblangandan so'ng, kanonik tenglamalardagi birlik ko'chishlar δ_{ii} , $\delta_{ik}=\delta_{ki}$ va ozod hadlar Δ_{iR} Mor formulasi yordamida aniqlanadi:


$$\delta_{ii} = \sum_{j=1}^m \frac{\bar{N}_{ji}^2 \cdot l_j}{EF_j}; \quad \delta_{ii} = \sum_{j=1}^m \frac{\bar{N}_{ji}^2 \cdot l_j}{EF_j}; \quad \delta_{ii} = \sum_{j=1}^m \frac{\bar{N}_{ji}^2 \cdot l_j}{EF_j};$$

EF_j va l_j – ferma sterjenining bikrligi va uzunligi ($j = 1, 2, \dots, m$); m -asosiy sistemaning sterjenlari soni.

Statik aniqmas fermanın ixtiyoriy sterjenidagi umumiy zo'riqish tashqi yuk va aniqlangan X_1, X_2, X_3, X_4 lar ta'siridan hosil bo'lgan zo'riqishlarning yig'indisiga teng bo'ladi:

$$N_j = N_{jP}^0 + \bar{N}_{j1}X_1 + \bar{N}_{j2}X_2 + \bar{N}_{j3}X_3 + \bar{N}_{j4}X_4.$$

Misol. Quyidagi statik aniqmas ferma sterjenlaridagi zo'riqishlar hisoblansin. $EF = \text{const}$, $R=10\text{KN}$, $d = 4\text{m}$.



Statik aniqmaslik c

Asosiy sistema tanlaymiz.(8.3 b-rasm). Kanonik tenglamasini yozamiz:

$$\delta_{11}X_1 + \Delta_{1R} = 0.$$

18-mavzu. Uzlüksiz balkalarni hisoblash

Reja:

1. Umumiy tushunchalar. Qo'zg'almas yuklar ta'siridagi uzlüksiz balkalarni hisoblash.
2. Asosiy sxemani tanlash. Uch moment tenglamasi.
3. Uzlüksiz balkalardagi eguvchi moment, ko'ndalang kuch va tayanch reaksiyalarni aniqlash


Tayanch so'z va iboralar:

Tutash balkalar, statik aniqlaslik darajasi, asosiy sistema, birlik epyuralar, tashqi yukdan epyura, koeffisientlar, ozod hadlar, uch moment tenglamalari, fiktiv reaksiya, bikrlilik, keltirilgan oraliq, natijaviy ichki kuch epyuralari.

Bir necha prolyotni (oraliqni) qoplaydigan, qator tayanchlar bilan yerga bog'langan balka tutash balkalar deyiladi. (4.1 – rasm).

Tutash balkalarning statik aniqlaslik darajasini quyidagi formulalarga asosan aniqlash mumkin:

$$n = 2SH + Ct - 3D \text{ yoki } n = Ct - 3 \quad (4.1)$$




4.1– rasm.

Uzlüksiz balkalarni doimiy yuk ta'sirida hisoblash.

Asosiy sistema tanlash. Uch moment tenglamasining tatbiqi 4.2a–rasmda ko'rsatilgan uzlüksiz balka berilgan bo'lsin. Tutash balkaning ortiqcha bog'lanishlardan ozod etib, asosiy sistemaning bir necha variantini tanlaymiz. (4.2b, g-rasm).

Balkaning statik noaniqlik darajasi $n = C - 3 = 6 - 3 = 3$ ga teng.

Tutash balka bilan asosiy sistema orasidagi farqni yo'qotish uchun kuchlar usulining kanonik tenglamalari sistemasini yozamiz:



4.2– rasm

$$\left. \begin{aligned} \delta_{11}X_1 + \delta_{12}X_2 + \delta_{13}X_3 + \Delta_{1p} &= 0 \\ \delta_{21}X_1 + \delta_{22}X_2 + \delta_{23}X_3 + \Delta_{2p} &= 0 \\ \delta_{31}X_1 + \delta_{32}X_2 + \delta_{33}X_3 + \Delta_{3p} &= 0 \end{aligned} \right\} \quad (4.2.)$$

Birinchi variantda ko'rsatilgan asosiy sistema uchun kanonik tenglamalardagi yordamchi ko'chishlarning birortasi ham nolga teng bo'lmaydi (4.2v-rasm).

Ikkinchi variantda esa (4.2g –rasm) ba'zi yordamchi koeffisientlar nolga teng bo'ladi.


Demak, tutash balkalarni hisoblashni osonlashtirish uchun ortiqcha noma'lumlar sifatida tayanch momentlarni qabul qilish qulaydir.

Uch momentlar tenglamasi. Bizga 4.3a –rasmda ko'rsatilgan tutash balka berilgan bo'lsin. Asosiy sistema uchun (4.3b-rasm) ikkinchi variantni qabul qilamiz.

Ortiqcha noma'lumlar bo'lib, tayanch momentlar xizmat qiladi: $M_1, M_2, \dots, M_{n-1}, M_n, M_{n+1}$. Bu holda asosiy sistema oddiy balkalardan iborat bo'ladi.

Asosiy sistemaning sharnir qo'yilgan har bir tayanchi uchun ikki qo'shni kesimning o'zaro burilish burchaklari yig'indisi nolga tengligini ifodalaydigan kuchlar metodining tenglamasini yozamiz. Masalan, n - tayanch uchun yozilgan tenglamani ko'raylik:

$$\delta_{n1}M_1 + \delta_{n2}M_2 + \dots + \delta_{n,n-1}M_{n-1} + \delta_{nn}M_n + \delta_{n,n+1}M_{n+1} + \dots + \Delta_{nr} = 0 \quad (4.3)$$



4.3-rasm

Asosiy sistema uchun qurilgan birlik eguvchi moment epyuralariga asosan koeffisientlar:

$$\delta_{n1} = 0, \delta_{n2} = 0, \dots, \delta_{n,n-2} = 0, \delta_{n,n+2} = 0, \delta_{n,n+2} = 0, \dots$$

u holda (4.3) tenglama quyidagi ko'rinishga keladi:

$$\delta_{n,n-1}M_{n-1} + \delta_{nn}M_n + \delta_{n,n+1}M_{n+1} + \Delta_{nr} = 0 \quad (4.3')$$

Bu tenglama koeffisientlari va ozod hadlarini epyuralarni ko'paytirish usulida topamiz:

$$\delta_{n,n-1} = (\overline{M}_n) \cdot (\overline{M}_{n-1}) = \frac{1}{EI_n} \cdot \frac{1 \cdot l_n}{2} \cdot \frac{1}{3}; \quad \delta_{n,n} = \frac{1}{EI_n} \cdot \frac{1 \cdot l_n}{2} \cdot \frac{2}{3} + \frac{1}{EI_{n+1}} \cdot \frac{1 \cdot l_{n+1}}{2} \cdot \frac{2}{3};$$

$$\delta_{n,n+1} = (\overline{M}_n) \cdot (\overline{M}_{n+1}) = \frac{1}{EI_{n+1}} \cdot \frac{1 \cdot l_{n+1}}{2} \cdot \frac{1}{3}; \quad \Delta_{np} = (\overline{M}_n) \cdot (M_p) = \frac{1}{EI_n} \cdot \frac{\omega_n \cdot a_n}{l_n} + \frac{1}{EI_{n+1}} \cdot \frac{\omega_{n+1} \cdot b_{n+1}}{l_{n+1}};$$

Ko'chishlarni (4.3') tenglamaga qo'yib, umumiy maxrajga keltirilgandan so'ng u quyidagi ko'rinishni oladi:

$$M_{n-1} \cdot \frac{l_n}{6EI_n} + 2M_n \left(\frac{l_n}{6EI_n} + \frac{l_{n+1}}{6EI_{n+1}} \right) + M_{n+1} \frac{l_{n+1}}{6EI_{n+1}} = - \frac{\omega_n a_n}{EI_n \cdot l_n} - \frac{\omega_{n+1} b_{n+1}}{EI_{n+1} \cdot l_{n+1}}$$

Bu tenglama o'ng va chap qismini $6EI$ ga ko'paytirib va prolyotlar (oraliqlar) keltirilgan uzunliklarini kiritib quyidagi tenglamani olamiz:

$$M_{n-1}l'_n + 2M_n(l'_n + l'_{n+1}) + M_{n+1}l'_{n+1} = -6 \left(\frac{I_c}{I_n} B_n^\phi + \frac{I_c}{I_{n+1}} A_{n+1}^\phi \right) \quad (4.4)$$

bu yerda $l'_n = l_n \frac{I_c}{I_n}$; $l'_{n+1} = l_{n+1} \frac{I_c}{I_{n+1}}$ – keltirilgan (oraliqlar) prolyotlar; I_c – ixtiyoriy oraliq inertsiya momenti;

$$B_n^\phi = \frac{\omega_n a_n}{l_n}, \quad A_{n+1}^\phi = \frac{\omega_{n+1} b_{n+1}}{l_{n+1}} \text{ – o'ng va chap fiktiv reaksiyalari. (4.4) umumiy}$$

holatdagi uch momentlar tenglamasi deyiladi.

Agar tutash balka doimiy kesimga ega bo'lsa, u xolda

$$I_1 = I_2 = \dots = I_n = I_{n+1} = I_c; \quad I'_n = I_n \quad l'_{n+1} = l_{n+1}$$


bo'ladi va uch momentlar tenglamasi quyidagi ko'rinishga keladi:

$$M_{n-1}I_n + 2M_n(I_n + I_{n+1}) + M_{n+1}I_{n+1} = -6 (B_n^\phi + A_{n+1}^\phi) \quad (4.5)]$$

Tutash balkada qancha oraliq tayanchlar bo'lsa, shuncha uch momentlar tenglamalari tuziladi. Ular birgalikda yechilib, noma'lum tayanch momentlari aniqlangandan so'ng tutash balka uchun eguvchi momenti va ko'ndalang kuchlar epyuralari chiziladi.


Tutash balkalardagi eguvchi moment, ko'ndalang kuch va tayanch reaksiyalarini aniqlash.

Tayanch momentlar aniqlangandan so'ng tutash balkaning har bir prolyotini berilgan tashqi yuk va shu tayanch momentlari ta'siridagi oddiy balka deb qarash mumkin (4.4 – rasm).



4.4 – rasm

Ixtiyoriy kesimdagi eguvchi moment M va kesuvchi kuch Q materiallar qarshiligi kursidagi kabi quyidagicha topiladi:



4.5-rasm

$$M = M_x^o + M_{n-1} + \frac{M_n - M_{n-1}}{l_n} \cdot x, \quad (4.6)$$

$$Q = Q_x^o + \frac{M_n}{l_n} - \frac{M_{n-1}}{l_n}, \quad (4.7)$$

bu yerda M_x^o va Q_x^o - oddiy balkadagi tashqi yukdan hosil bo'lgan eguvchi moment va kesuvchi kuch.


Tayanch reaksiya R_n n tayanchidagi chap va o'ng kesuvchi kuchlarining farqidan topiladi (4.5 – rasm):

$$R_n = Q_{n+1} - Q_n \quad (4.8)$$

Mustaqil ishlash va nazorat savollari:

1. Tutash balkalarni hisoblashda uch moment tenglamalarini qo'llash qanday afzallikka ega?
2. Uzlüksiz balkalarni hisoblashda ko'chish usulini qo'llash mumkinmi?

3. Besh noma'lumli uzluksiz balkalarni hisoblashda uch moment tenglamalari sistemasini texnika vositalarini qo'llamay yechish mumkinmi?
4. Quyidagi uzluksiz balka uchun uch moment tenglamalarini qo'llab, M va Q epyuralarini quring.



5. Keltirilgan oraliqlar nima va ular qanday hisoblanadi?
6. Fiktiv reaksiyalar qanday hisoblanadi?
7. Agar tutash balka doimiy kesimga ega bo'lsa, uch moment tenglamasi qanday ko'rinishga keladi?
8. Bunday balkalar uchun natijaviy eguvchi moment epyurasi qanday qo'llaniladi?
9. Natijaviy moment epyurasi qanday tekshiriladi?
10. Tutash balkalarda tayanch reaksiyalari qanday topiladi?
11. Tayanch reaksiyalarning to'g'ri topilganligi qanday tekshiriladi?

19-mavzu. Uzluksiz balkalarni hisoblashning moment fokuslar usuli


Reja:

1. Uzluksiz balka yuklangan oraligining tayanch momentlarini aniqlash.
2. Fokuslar nisbatlaridan foydalanib tayanch momentlarini aniqlash
3. Uzluksiz balkalarni moment fokuslari usuli bilan hisoblash.
4. Chap va o'ng fokuslar nisbatlarini aniqlash

Yuklangan prolyot, yuklanmagan prolyot, moment fokusi, chap fokus nuqtasi. O'ng fokus nuqtasi, fokus nisbati, tayanch momentlari.

Umumiy tushuncha. Chap va o'ng fokuslar nisbatlarini aniqlash.

Faqat bir prolyoti yuklangan tutash balka uchun chizilgan moment epyurasini ko'raylik (5.1-rasm).



5.1-rasm

Tutash balking yuklanmagan prolyotlaridagi tayanch momentlarining miqdori yuklangan prolyotdan boshlab kamayib boradi va moment chizig'i har bir prolyotni ma'lum nuqtada kesib o'tadi va bu nuqtada eguvchi moment nolga teng bo'ladi.

Yuklanmagan prolyotdagi eguvchi moment $M(x)$ nolga teng bo'lgan nuqta moment fokusi deyiladi. Balkadagi F_1, F_2, F_3 – chap moment fokuslari, F_5, F_6, F_7 lar o'ng moment fokuslari deyiladi. Tutash balkada yuklanmagan prolyotning tayanch momentlari nisbati fokuslar nisbati deb ataladi. Yuklanmagan prolyotdagi fokuslarning holati fokuslar nisbati orqali aniqlanadi.

$$\text{CHap fokus nisbati (ikkinchi prolyot uchun)} \quad K_2 = \frac{v_2}{u_2}. \quad (a)$$

5–prolyot uchun o‘ng fokus nisbati $K'_5 = \frac{u'_5}{V'_5}$ bo‘ladi. (b)

Demak, fokuslarning joylashuvi tashqi yukka bog‘liq emas.

Fokuslar nisbatlarini yuklanmagan prolyotlar tayanch momentlarning nisbati orqali ifodalaymiz.

$$\text{Uchburchaklarning o‘xshashligidan } \frac{V_2}{u_2} = \frac{|M_2|}{|M_1|} = K_2, \quad K_2 = -\frac{M_2}{M_1} \quad (\text{v})$$

SHunga o‘xshash, balkaning yuklanmagan n – prolyoti uchun chap fokus nisbatini ifodalaymiz:


$$k_n = -\frac{M_n}{M_{n-1}} \quad (5.1)$$

o‘ng fokus nisbati:

$$k'_n = -\frac{M_{n-1}}{M_n} \quad (5.2)$$

Tutash balkalarni moment fokuslari usuli bilan hisoblash uchun dastlab fokus nisbatlarini va yuklangan prolyotning tayanch momentlarini aniqlash kerak.

Fokus nisbatlarini aniqlash uchun yuklangan prolyotdan chap tomonda bo‘lgan ikki qo‘shni l_{n-1} va l_n – prolyotlarni ko‘ramiz (5.2-rasm).



5.2-rasm

n-1 tayanch uchun uch moment tenglamasini yozamiz:

$$M_{n-2}l'_{n-1} + 2M_{n-1}(l'_{n-1} + l'_n) + M_n l'_n = 0,$$

hamma hadlarini M_{n-1} ga bo‘lsak, quyidagi tenglama hosil bo‘ladi:

$$\frac{M_{n-2}}{M_{n-1}} l'_{n-1} + 2(l'_{n-1} + l'_n) + \frac{M_n}{M_{n-1}} l'_n = 0$$

(5.1) formulaga asosan bu tenglamani chap fokus nisbati orqali ifodalaymiz:


$$-\frac{1}{K_{n-1}} l'_{n-1} + 2(l'_{n-1} + l'_n) - K_n \cdot l'_n = 0,$$

Bundan n – prolyotning chap fokus nisbati K_n ni topamiz:

$$K_n = 2 + \frac{l'_{n-1}}{l'_n} \left(2 - \frac{1}{K_{n-1}} \right) \quad (5.3)$$

SHunga o‘xshash, o‘ng fokus nisbatlarini aniqlash uchun quyidagi formulani yozamiz:

$$K'_n = 2 + \frac{l'_{n-1}}{l'_n} \left(2 - \frac{1}{K'_{n+1}} \right). \quad (5.4)$$




Agar balkaning chap uchi sharnirli bo'lsa, u holda birinchi prolyot uchun chap fokus nisbati quyidagicha bo'ladi:

$$K_1 = -\frac{M_1}{0} = \infty$$

Agar chap uchi qistirilgan bo'lsa $K_1=2$ bo'ladi. O'ng fokus nisbatlari huddi shu tartibda, tutash balkaning oxirgi prolyotidan, chap tomonga qarab hisoblanishi kerak.

Tutash balka yuklangan oralig'ining tayanch momentlarini aniqlash.

Tutash balkaning faqat n – prolyoti yuklangan bo'lsin (5.3 – rasm)



5.3-rasm

Yuklangan prolyotning (l_n) tayanch momentlari M_{n-1} va M_n ni aniqlash uchun yuklangan prolyotning (l_n) tayanch momentlari M_{n-1} va M_n ni aniqlash uchun balkaning $n-1$ va n tayanchlariga nisbatan uch moment tenglamalarini yozamiz:

$$\left. \begin{aligned} M_{n-2}l'_{n-1} + 2M_{n-1}(l'_{n-1} + l'_n) + M_n l'_n &= -6EI\alpha_n \\ M_{n-1}l'_n + 2M_n(l'_n + l'_{n+1}) + M_{n+1}l'_{n+1} &= -6EI\beta_n \end{aligned} \right\}$$

Tayanch momentlari M_{n-2} va M_{n+1} ni qolgan ikki tayanch momentlari orqali ifodalaymiz:

$$M_{n-2} = -\frac{M_{n-1}}{K_{n-1}}, \quad M_{n+1} = -\frac{M_n}{K'_{n+1}}, \quad \text{u holda}$$

$$\left. \begin{aligned} M_{n-1} \left[-\frac{l'_{n-1}}{K_{n-1}} + 2(l'_{n-1} + l'_n) \right] + M_n l'_n &= -6EI\alpha_n \\ M_{n-1} l'_n + M_n \left[2(l'_n + l'_{n+1}) - \frac{l'_{n+1}}{K'_{n+1}} \right] &= -6EI\beta_n \end{aligned} \right\}$$

Tenglamalarning ikkala tomoniga bo'lamiz: l'_n

$$\left. \begin{aligned} M_{n-1} \left[2 + \frac{l'_{n-1}}{l'_n} \left(2 - \frac{1}{k_{n-1}} \right) \right] + M_n &= -\frac{6EI\alpha_n}{l'_n} \\ M_{n-1} + M_n \left[2 + \frac{l'_{n+1}}{l'_n} \left(2 - \frac{1}{k'_{n+1}} \right) \right] &= -\frac{6EI\beta_n}{l'_n} \end{aligned} \right\}$$

O'rta qavslarni fokus nisbatlari orqali ifodalab yozamiz:

$$\left. \begin{aligned} M_{n-1} \cdot K_n + M_n &= -\frac{6EI\alpha_n}{l'_n} \\ M_{n-1} + M_n k'_n &= -\frac{6EI\beta_n}{l'_n} \end{aligned} \right\}$$

Bu tenglamalarni yechib, yuklangan prolyotning tayanch momentlarini aniqlaymiz:

$$M_{n-1} = -\frac{6EI(\alpha_n k'_n - \beta_n)}{l'_n(k_n k'_n - 1)}, \quad M_n = -\frac{6EI(\beta_n k_n - \alpha_n)}{l'_n(k_n k'_n - 1)}$$

(5.5)

(5.5) formulani quyidagi ko‘rinishda yozish mumkin:

$$M_{n-1} = -6 \frac{A_n^\phi k'_n - B_n^\phi}{l'_n (k_n k'_n - 1)}; \quad M_n = -6 \frac{B_n^\phi k_n - A_n^\phi}{l'_n (k_n k'_n - 1)}. \quad (5.6)$$

(5.6) formulani keltirib chiqarish uchun yuklangan l_n prolyotning $n-1$ va n tayanchlari bo‘yicha uch moment tenglamalarini yozamiz:

$$M_{n-1} l'_{n-1} + 2M_{n-1} (l'_{n-1} + l'_n) + M_{n+1} l'_n = -6 \left(\frac{I_0}{I_n} \cdot 0 + \frac{I_0}{I_{n+1}} \cdot A_n^\phi \right),$$

$$M_{n-2} l'_{n-1} + 2M_{n-1} (l'_{n-1} + l'_n) + M_n l'_n = -6 \left(\frac{I_0}{I_{n-1}} \cdot 0 + \frac{I_0}{I_n} \cdot A_n^\phi \right),$$

M_{n-2} va M_{n+1} larni qolgan tayanch momentlari orqali ifodalaymiz:

$$M_{n-2} = -\frac{M_{n-1}}{K_{n-1}}, \quad M_{n+1} = -\frac{M_n}{K_{n+1}}, \quad \text{u holda}$$

$$M_{n-1} \left[-\frac{l'_{n-1}}{k_{n-1}} + 2(l'_n + l'_n) \right] + M_n l'_n = -6 \cdot \frac{I_0}{I_n} \cdot A_n^\phi$$

$$M_{n-1} l'_n + \left[2(l'_n + l'_{n+1}) - \frac{l'_{n+1}}{k'_{n+1}} \right] M_n = -6 \cdot \frac{I_0}{I_n} \cdot B_n^\phi$$

Tenglamalarning ikkala tomoniga bo‘lamiz:

$$M_{n-1} \left[2 + \frac{l'_{n-1}}{l'_n} \left(2 - \frac{1}{k_{n-1}} \right) \right] + M_n = -6 \cdot \frac{I_0}{I_n} \cdot \frac{A_n^\phi}{l'_n} \quad \text{yoki}$$

$$M_{n-1} + M_n \left[2 + \frac{l'_{n+1}}{l'_n} \left(2 - \frac{1}{k'_{n+1}} \right) \right] = -6 \cdot \frac{I_0}{I_n} \cdot \frac{B_n^\phi}{l'_n}$$

$$\left. \begin{aligned} M_{n-1} \cdot k_n + M_n &= -6 \frac{I_0}{I_n} \cdot \frac{A_n^\phi}{l'_n} \\ M_{n-1} + M_n \cdot k'_n &= -6 \frac{I_0}{I_n} \cdot \frac{B_n^\phi}{l'_n} \end{aligned} \right\}$$


$$\text{u holda } M_{n-1} = -\frac{6(A_n^\phi k'_n - B_n^\phi)}{l'_n (k_n k'_n - 1)}; \quad M_n = -\frac{6(B_n^\phi k_n - A_n^\phi)}{l'_n (k_n k'_n - 1)},$$

SHunday qilib, tutash balkalarni moment fokuslari usulida hisoblash quyidagi tartibda bajariladi:

- 1) har bir prolyotning chap va o‘ng fokuslar nisbatlari topiladi;
- 2) yuklangan prolyotlarning tayanch momentlari aniqlanadi;
- 3) (5.1) va (5.2) formulalardan foydalanib, yuklanmagan prolyotlarning tayanch momentlari hisoblanadi.

Mustaqil ishlash va nazorat savollari:

1. Qachon tutash balkalarni hisoblashda moment fokuslar usulini qo'llash qulay bo'ladi?
2. CHap va o'ng fokus nisbatlari formulalarini yozing.
3. Tayanch momentlari qachon nolga teng bo'ladi?
4. Fiktiv reaksiyalar qanday topiladi?
5. Birinchi va oxirgi oraliqlar uchun chap va o'ng fokus nisbatlari qanday topiladi?
6. Tutash balkalarni moment fokuslari usuli bilan hisoblashda asosiy sistema qanday tanlanadi?
7. Quyidagi balka uchun M va Q epyuralari uch moment tenglamalari yordamida qurilsin?



8. Yuklanmagan oraliqlarning tayanch momentlari qanday topiladi?
9. Berilgan balkaning birinchi oralig'i yuklangan bo'lsa, moment fokuslari usuli qanday qo'llaniladi?
10. Moment fokuslari usulini qo'llash tartibini ayting?

20-21-22-Statik noaniq ramalarni ko'chishlar usulida hisoblash. Ko'chishlar usulining kanonik tenglamasi. Natijaviy eguvchi moment epyuralarini chizish va tekshirish

Reja:


1. Ko'chishlar usulining mohiyatii.
2. Ko'chishlar usulining noma'lumlari.
3. Ko'chish usulining asosiy sistemasi.
4. Ko'chishlar usulining kanonik tenglamalari.
5. Rama sterjeni chekka kesimining deformatsiyalari bilan tayanch momentlari orasidagi bog'lanish.
6. Kanonik tenglama koeffisientlari va ozod hadlarini aniqlash.
7. Kanonik tenglamani yechish va noma'lumlarni aniqlash.
8. Tuzatilgan birlik epyuralarini chizish
9. Eguvchi moment epyurasini chizish va tekshirish.
10. Ko'ndalang va bo'ylama kuchlar epyuralarini chizish.
11. Epyuralarni birgalikda tekshirish. Statik noaniq ramani aralash va kombinasiyalash usullarida hisoblash

Tayanch so'z va iboralar:

CHiziqli ko'chish, burchakli ko'chishlar, biki tugun, erkinmas ramalar, erkin ramalar, noma'lumlar, biki bog'lanish, chiziqli bog'lanish, reaktiv moment, reaktiv kuch.

Ko'chishlar usulining mohiyati va noma'lumlari. Sistemaning kinematik noaniqlik darajasi.

Statik aniqmas sistemalarni kuchlar usuli bilan hisoblashda ularning ortiqcha bog‘lanishlari soni zo‘riqish kuchlari (moment, bo‘ylama va ko‘ndalang kuchlar) noma‘lum deb qabul qilingan edi. Bu zo‘riqish miqdorlari aniqlangandan so‘ng statik aniqmas sistemaning ko‘chishlari



6.1-rasm

hisoblanadi. Bu masalani boshqacha yo‘l bilan yechish mumkin, buning uchun avval ramalarda hosil bo‘lgan ko‘chishlarni hisoblab, so‘ngra uning ixtiyoriy kesimlaridagi ichki zo‘riqish kuchlarining o‘zgarish qonuni yoziladi va ularning umumiy epyurasini qurish mumkin. Masalan, 6.1-rasmda tasvirlangan rama tashqi kuchlar ta‘sirida deformatsiyalanib, uning tugunlari burchakli va chiziqli ko‘chadi (6.1 – rasm).

φ_1, φ_2 – burchakli ko‘chishlar; δ_1, δ_2 – chiziqli ko‘chishlar; ψ_1, ψ_2 – og‘ish burchaklari.

Ustunning og‘ish burchaklarini tugunlarning gorizontalko‘chishi orqali ifodalash mumkin:

$$\psi_1 = \frac{\delta_1}{h_1}; \quad \text{yoki} \quad \delta_1 = \psi_1 h_1; \quad \psi_2 = \frac{\delta_2}{h_2} \quad \text{yoki} \quad \delta_2 = \psi_2 h_2.$$

Gorizontalko‘chishlar $\delta_1 = \delta_2 = \delta$ sababli $\psi_1 = \psi_2 \frac{h_2}{h_1}$

yozish mumkin.

Ramalarni ko‘chishlar usuli bilan hisoblashda noma‘lum miqdor sifatida ulardagi tugunlarning burchakli φ va chiziqli δ ko‘chishlari qabul qilinadi. Bu ko‘chishlar (φ va δ) ni hisoblashda rama elementlarini faqat egilishi ehtiborga olinib, ularning siqilishi yoki cho‘zilishi hisobga olinmaydi.

Ramalarni ko‘chishlar usuli bilan hisoblashda umumiy noma‘lumlar soni n ularning tugunlarini burilishi va chiziqli ko‘chishlarining yig‘indisiga teng bo‘ladi.

$$n = n_\varphi + n_\delta, \quad (6.1)$$


bunda; n_φ – birkar tugunlarning burilish burchaklari soni,

n_δ – tugunlarning chiziqli ko‘chishlari soni.

Umumiy noma‘lumlar soni n ramaning kinematik aniqmaslik darajasi deyiladi.

Ramalar ikki guruhga bo‘linadi:

Erkinmas ramalar. Bunday ramalar tugunlarining chiziqli ko‘chishi nolga teng bo‘ladi ($n_\delta = 0$). Erkinmas ramalarning kinematik aniqmaslik darajasi ular tugunlarining burchakli ko‘chishlar soniga teng bo‘ladi. (6.2 – rasm).




6.2 – rasm

2. Erkin ramalar. Bu guruhga tugunlari burchakli va chiziqli ko‘chishlarga ega bo‘lgan ramalar kiradi (6.3 – rasm). $\delta_1 = \delta_2 = \delta_3$; $n_\varphi = 3$; $n_\delta = 1$ kinematik aniqmaslik darajasi $n = 3 + 1 = 4$ bo‘ladi.

Murakkab erkin ramalar tugunlarining chiziqli ko‘chishlari sonini aniqlash uchun ularning har bir tuguniga sharnir kiritish yo‘li bilan yangi sharnirli sxema hosil qilamiz. Bu sharnirli

mexanizmning erkinlik darajasi ramaning chiziqli ko'chishlari soniga teng. 6.3b–rasmda ko'rsatilgan ramaning kinematik aniqlaslik darajasi $n=n_{\varphi}+n_{\delta}=4+2=6$ bo'ladi.




6.3 – rasm

Ko'chish usulining asosiy sistemasi.

Ko'chishlar usulida asosiy sistema berilgan ramaga, uning tugunlarining burchakli va chiziqli ko'chishlariga qarshilik ko'rsatuvchi ikki xil qo'shimcha bog'lovchilar kiritish yo'li bilan hosil qilinadi. Birinchi xil bog'lovchilar faqat tugunlarning burchakli ko'chishlariga qarshilik ko'rsatadi, ikkinchi xil bog'lovchilar esa tugunlarning chiziqli ko'chishlariga imkon bermaydi. 6.4–rasmda ko'rsatilgan rama uchun yuqorida bayon etilgan tartibda asosiy sistema tanlaymiz.

Noma'lumlar soni $n=8$, bundan $n_{\varphi}=6$, $n_{\delta}=2$ ga teng bo'ladi.



6.4 – rasm

Demak, ko'chishlar usulining asosiy sistemasi bir prolyotli statik aniqlas balkalardan tashkil topgan bo'ladi.

Ko'chish usulining kanonik tenglamalari.

Tashqi kuchlar ta'sirida bo'lgan rama tugunlarining chiziqli va burchakli ko'chishlarini aniqlash uchun kanonik tenglamalar sistemasini tuzish printsipi berilgan rama bilan asosiy sistemalar o'rtasidagi farqlarni yo'qotishga asoslangan.

Asosiy sistema tugunlariga kiritilgan har bir qo'shimcha bog'lanishda hosil bo'lgan reaksiyalarning yig'indisi R_i nolga teng bo'lishi kerak, chunki berilgan rama tugunlarida bu bog'lanishlar yo'q, ya'ni


$$R_1=0; R_2=0; \dots R_n=0 \quad (6.2)$$

Bu shartni qanoatlantiruvchi tenglamalar ko'chishlar usulining kanonik tenglamalar sistemasi deyiladi.

Kanonik tenglamalar tuzish tartibini quyidagi misolda ko'rib chiqamiz: (6.5-rasm).

Rama tugunlarining burchakli va chiziqli noma'lum ko'chishlarini Z_i bilan belgilaymiz.

Asosiy sistema hosil qilish uchun rama tugunlariga qo'yilgan qo'shimcha bog'lanishlarda tashqi kuchlar va Z_1, Z_2, Z_3 ko'chishlardan reaktiv momentlar va zo'riqish kuchlari hosil bo'ladi.



6.5 – rasm

Asosiy sistema berilgan sistemaga ekvivalent bo'lishi uchun

$$\left. \begin{aligned} R_{1(Z_1, Z_2, Z_3, P)} &= 0, \\ R_{2(Z_1, Z_2, Z_3, P)} &= 0, \\ R_{3(Z_1, Z_2, Z_3, P)} &= 0 \end{aligned} \right\} \quad (6.2')$$

bo'lishi kerak.

Bunda R_1 va R_2 – asosiy sistema birinchi xil bog'lanishlaridagi tashqi kuch, Z_1, Z_2 - burchakli va Z_3 – chiziqli ko'chishlardan hosil bo'lgan reaktiv momentlarning yig'indisi;

R_3 – asosiy sistema tugunlarining gorizontalko'chishiga qarshilik ko'rsatuvchi reaktiv zo'riqish kuchlarining yig'indisi.

Kuchlar ta'sirining mustaqillik printsipiga asosan (6.2') sistemaning birinchi tenglamasini yoyib chiqamiz:

$$R_1 = R_{1Z_1} + R_{1Z_2} + R_{1Z_3} + R_{1P} \quad (6.2'')$$

Bunda birinchi indeks asosiy sistema bog'lanishlarining nomerini, ikkinchi indeks esa shu bog'lanishdagi reaksiyaning hosil bo'lish sababini ko'rsatadi.


Masalan: R_1 - birinchi bog'lanishida Z_1 burchakli ko'chishdan hosil bo'lgan reaktiv moment va x.k.z...

R_{1R} – asosiy sistema birinchi bog'lanishida tashqi kuchdan hosil bo'lgan reaktiv moment.

R_{1Z_1}, R_{1Z_2} va R_{1Z_3} reaktiv moment va kuchlarni tegishli birlik ko'chishlardan hosil bo'lgan birlik reaksiya orqali quyidagicha ifodalaymiz:

$$R_{1Z_1} = r_{11}Z_1; \quad R_{1Z_2} = r_{12}Z_2; \quad R_{1Z_3} = r_{13}Z_3,$$

bunda: r_{11} – asosiy sistemaning birinchi bog'lanishini birlik burchakka ($Z_1=1$) burilishidan hosil bo'lgan reaktiv moment (6.6b-rasm).



6.6 – rasm

U holda (6.2'') tenglama quyidagi qo'rinishga keladi

$$R_1 = r_{11}Z_1 + r_{12}Z_2 + r_{13}Z_3 + R_{1R} = 0$$

Yuqoridagilarni 6.2' tenglamaning 2 va 3 – qatoriga nisbatan yozsak quyidagi tenglamalar sistemasi hosil bo'ladi.

AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

Inshootlar hisoblash sxemalarining kinematik analizi.

Inshootlarni hisoblashga kirishdan oldin uning hisoblash sxemasini tuzish zarur va sistemaning yoki uning alohida qismini qo'zg'almasligi va geometrik o'zgarmasligi masalasini hal qilish uchun kinematik tahlil qilinadi. Bundan tashqari, uning oniy o'zgarmasligi (o'zgaruvchanligi) ni tekshirish kerak bo'ladi. Qisman bu savolga javob, hisoblash sxemalarini erkinlik darajalari sonini aniqlash bilan bog'liq.

Hisoblash sxemasi deb, haqiqiy inshootlarni soddalashtirilgan tasviri tushuniladi. U inshootlarni yuk ostidagi holatini aniqlovchi asosiy xususiyatlarini ifodalaydi, ikkinchi darajali omillarni hisobga olmaydi.

Yassi sterjenli sistemalarning erkinlik darajasi deb, uning yerga nisbatan tekislikda olgan holatini aniqlovchi bir-biriga bog'liq bo'lmagan geometrik parametrlar soniga aytiladi.

Asosiy ta'riflar

Agar sistemaning shakli, faqat uni tashkil etuvchi elementlarning deformatsiyasi tufayli o'zgarsa, geometrik o'zgarma sistema deyiladi.

Agar sistema o'z shaklini uni tashkil etuvchi elementlarning deformatsiyalarisiz o'zgartirsa, geometrik o'zgaruvchan sistema deyiladi.


Agar sistema elementlarining deformatsiyalarisiz, uning nuqtalari cheksiz kichik ko'chishlarga erishsa, oniy o'zgaruvchan sistema deyiladi. Ko'chishlar to'xtaganidan so'ng u o'zgarma sistemaga aylanadi.

O'zlarining shakli va o'lchamlarini o'zgartirmaydigan mutlaq bikir element yoki elementlar sistemasi disk deyiladi. Disk tekislikda uch erkinlik darajasiga ega bo'ladi. Cheksiz uzunlikka ega bo'lgan disk yer deyiladi.

Jism yoki sistemalarning bir erkinlik darajasini chegaralovchi qurilma kinematik bog'lanish deyiladi. Bog'lanishlar sifatida sharnirlar, tayanch sterjenlari qo'llaniladi.

Ikki diskni birlashtiruvchi va ikki kinematik bog'lanishga teng kuchli bo'lgan qurilma, tsilindrik oddiy sharnir deyiladi (1.1.1, a...v- rasm).

Uch va undan ko'p disklar karrali (murakkab) sharnirga birlashadi va $n-1$ oddiy sharnirga teng kuchli bo'ladi, bu yerda n - birlashtiruvchi disklar soni (1.1.1, g...e- rasm).



1.1.1- rasm

Masalan, 1.1.1, g...d-rasmlarda ko'rsatilgan holatlarda sharnir uchta disk (sterjenlar)ni birlashtiradi va uning qiymati $SH=n-1=3-1=2$ ga teng, 1.1.1,e-rasmda keltirilgan holat uchun esa, $SH=n-1=4-1=3$, bu yerda SH - oddiy (keltirilgan) sharnirlar soni.

1.1.1,a,g,e-rasmlarda ko'rsatilgan sharnirlar to'liq, 1.1.1,b,v,d-rasmlarda ko'rsatilgan sharnirlar esa to'liq bo'lmagan sharnirlar deyiladi.

SHarnirli-sterjenli sistemalar (fermalar) tuguni deb, ikki erkinlik darajasiga ega bo'lgan nuqtani tushunamiz.

Sistemalar erkinlik darajasi W va tayanch sterjenlariga ega bo'lmagan sistemalarning o'zgaruvchanlik darajasi V quyidagi formulalardan aniqlanadi:

$$W = 3D - 2III - C_T; \quad (1.1)$$

$$V = 3D - 2III - 3; \quad (1.2)$$

$$W = 3D - 2III - C_T - 3K \quad (1.3)$$

$$V = 3D - 2III - 3 - 3K \quad (1.4)$$

$$W = 2V - C - C_T; \quad (1.5)$$

$$V = 2V - C - 3; \quad (1.6)$$

bu yerda D – disklar soni; SH – oddiy (keltirilgan) sharnirlar soni; S_t – tayanch sterjenlari soni; U –ferma tugunlari soni; S - ferma sterjenlari soni; K – sharnirsiz yopiq konturlar soni.

Yuqorida keltirilgan formulalar bo‘yicha olingan W ning hisoblash natijalariga ko‘ra, uchta hol bo‘lishi mumkin:


1. $W > 0$; ($V > 0$)–sistema geometrik o‘zgaruvchi, chunki yetarli bog‘lanishlarga ega emas, umuman aytganda bunday shakl qurilish tuzilmalari sifatida qo‘llanilishi mumkin emas.

2. $W = 0$; ($V = 0$)–sistema eng kam zarur bog‘lanishlar soniga ega, ularni to‘g‘ri joylashtirish orqali geometrik o‘zgarmas va statik aniq sistema hosil qilinadi.

3. $W < 0$; ($V < 0$) –sistema ortiqcha bog‘lanishlarga ega, ularni to‘g‘ri joylashtirish orqali geometrik o‘zgarmas va statik noaniq sistema hosil qilinadi. $W = 1$ bo‘lgan sistema mexanizm deyiladi.

$W \leq 0$ shart, sistemaning geometrik o‘zgarmasligining zaruriy belgisi hisoblanadi, lekin qaralayotgan hisob sxemasining o‘zgarmasligi masalasida savolga yetarli javob bermaydi. SHuning uchun, geometrik tuzilishini qo‘shimcha tahlil qilib, to‘g‘rimi (yoki noto‘g‘ri) va diskarni o‘zaro qanday ketma-ketlikda, yer bilan qanday bog‘langanligini aniqlash kerak.

1.1- misol. 1.1.1- rasmda ko‘rsatilgan sistemani kinematik tahlil qilinsin.



Dastlab (1.1) formulasi yordamida sistemaning erkinlik darajasini aniqlaymiz. Barcha sharnir va tayanch sterjenlarini tashlab yuboramiz.

Sistema ikki diskdan, ya‘ni $D=2$, S nuqtasidagi bitta sharnir va to‘rtta tayanch sterjenlaridan (bikir tayanch uchta tayanch sterjenlaridan iborat) $S_t=4$ dan iboratligini aniqlaymiz.


$$W = 3D - 2III - C_T = 3 \cdot 2 - 2 \cdot 1 - 4 = 0$$

SHunday qilib, sistema o‘zgarmas va statik aniq bo‘lishi uchun eng kam zarur miqdordagi bog‘lanishlarga ega.

Sistemalar geometrik strukturasi tahlilini bajaramiz. AVS disk yer bilan bikir bog‘langanligi sababli, AVS diskni yer deb hisoblash mumkin. Ushbu diskka CDE diski sharnir markazi orqali o‘tmagan tayanch sterjeni va S sharniri yordamida biriktirilgan. SHunday qilib, sistema o‘zgarmas sistema tuzish qoidasiga mos holda tuzilgan. U statik aniq, geometrik va oniy o‘zgarmas.

1.2- misol. 1.1.2- rasmda ko‘rsatilgan sistemani kinematik tahlil qilinsin.


Sistemaning erkinlik darajasini hisoblaymiz. Barcha sharnir va tayanch sterjenlarini tashlab yuborib, topamiz: $D = 3$, $SH = 3$, $S_t = 3$. U holda $W = 3D - 2III - C_T = 3 \cdot 3 - 2 \cdot 3 - 3 = 0$




sistema geometrik va oniy o‘zgarmas, statik aniq.

1.3-misol. 1.1.3-rasmda ko‘rsatilgan sistema tekshirilsin. Disklar soni $D=8$, oddiy (keltirilgan) sharnirlar soni $SH=10$, tayanch sterjenlari soni $S_t=3$. SHunday qilib, $W = 3D - 2III - C_T = 3 \cdot 8 - 2 \cdot 10 - 3 = 1$.

Sistema bir erkinlik darajasiga ega, ya‘ni mexanizm bo‘lib hisoblanadi va qurilish tuzilmasi sifatida qo‘llash mumkin emas.



1.1.3-rasm.



1.1.4-rasm.

1.4- misol. 1.1.4- rasmda ko'rsatilgan sistema tekshirilsin.

Sistema sharnirli-sterjenli bo'lganligi sababli, uning erkinlik darajasini aniqlash uchun (1.5) formulani qo'llaymiz. Tugunlar soni $Y=12$, sterjenlar soni $S=22$, tayanch sterjenlari soni $S_T=3$. SHunday qilib, $W = 2Y - C - C_T = 2 \cdot 12 - 22 - 3 = -1$ Sistema bitta ortiqcha bog'lanishga ega. 2 -pastki tugunni kesib va muvozanat tenglamasi $\Sigma U = 0$ ni tuzib: $N_{1-2}=G'$ ni olamiz, yuqorigi 1-tugunni kesilishidan esa $-N_{1-2}=0$. Sterjen uchun topilgan zo'riqishlar N_{1-2} qarama-qarshi hisoblanadi. Berilgan sistema statik belgilariga ko'ra oniy o'zgaruvchi bo'ladi.

Mavzu: Oddiy va konsol balkalarda zo'riqishlarni ta'sir chiziqlarini statik usulda chizish.


Ta'sir chiziqlari yordamida zo'riqishlarni aniqlash.

Harakatlanuvchi kuchlar sistemasi qo'yilgan balkalarni hisoblash uchun ularni avval birlik ko'chma kuch ($P=1$) ta'siriga hisoblash kerak. Balkaning tayanch reaksiyalari, eguvchi moment va ko'ndalang kuchlarning miqdorlari uning ustida harakatlanuvchi birlik kuchning vaziyatiga bog'liq (2.1-rasm):

$$A = f_1(x); \quad B = f_1(x); \quad M = f_3(x); \quad \text{va} \quad Q = f_2(x); \quad (2.1')$$

Ta'sir chizig'ini qurish uchun birlik kuch ($P=1$) balka ustidagi ma'lum nuqtalarga ketma-ket qo'yilib, bizni qiziqtirayotgan miqdorning o'zgarish qonunini ifodalovchi funksiya (2.1) aniqlanadi. So'ngra bu funksiyaning grafigi chiziladi.

Oddiy balka tayanch reaksiyalarining ta'sir chizig'i. CHap tayanch reaksiyasining ta'sir chizig'ini qurish uchun balka ustida harakatlanuvchi birlik yukni ($P=1$) chap tayanchdan x masofada joylashtiramiz va statikaning muvozanat tenglamasini yozamiz (2.1-rasm):



2.1 - rasm

$$\sum M_B = 0, \quad A l - P(1-x) = 0.$$

Bundan,

$$A = P \frac{l-x}{l} \quad \text{yoki} \quad A = \frac{l-x}{l} \quad (2.2)$$

(2.2) ifoda tayanch reaksiyasi A ning ta'sir chizig'i tenglamasidir. O'zgaruvchan absissa x birinchi darajali bo'lgani uchun (2.2) ifoda to'g'ri chiziq tenglamasi bo'ladi.

Tayanch reaksiyasi A ning ta'sir chizig'ini chizish uchun (2.2) tenglamadagi absissa x ga $0 \leq x \leq 1$ oraliqda qiymatlar beramiz ($P=1$) yuk chap va o'ng tayanchlar orasida harakatlanadi). $x=0$ da $A=1$ va $x=1$ bo'lganda $A=0$ bo'ladi.

Koordinatalar sistemasida A tayanchning tagiga biror masshtabda birga teng bo'lgan ordinatani $x=0$ da $A=1$, B tayanchning tagiga esa nolga teng bo'lgan ordinatani $x=1$ da

$A = 0$ qo'yib, hosil bo'lgan nuqtalarni to'g'ri chiziq bilan birlashtiramiz (2.2-rasm, b). Bu grafik reaksiya A ning ta'sir chizig'i bo'ladi. Uni qisqacha A t.ch. deb belgilaymiz

A ta'sir chizig'ining har bir ordinatasi harakatlanuvchi birlik kuch shu ordinataga to'g'ri kelgan kesim ustida turgan vaziyatida hosil bo'lgan A tayanch reaksiyasining qabul qilingan masshtabdagi miqdorini ifodalaydi.

O'ng tayanch reaksiya B ning ta'sir chizig'ini quramiz. Birlik yuk ($P=1$) ni chap tayanchdan x masofada balka ustida turgan vaziyati uchun statikaning $\sum M_A = 0$ muvozanat tenglamasini yozamiz (2.1-rasm):

$$-B l + Px = 0, \quad \text{bundan} \quad B = \frac{x}{l}. \quad (2.3)$$

(2.3) tenglik B tayanch reaksiyasining ta'sir chizig'i tenglamasidir, bunda $0 \leq x \leq l$ $x=0$ da $B=0$ $x=l$ da esa $B=1$ bo'ladi.

B tayanch reaksiyasining ta'sir chizig'ini chizish uchun koordinalar sistemasida o'ng tayanch ostiga birga teng bo'lgan ordinatani, chap tayanch tagida esa nollik ordinatani qo'yib nuqtalarni to'g'ri chiziq bilan birlashtiramiz. Bu grafik (2.2-rasm,v) B reaksiyaning ta'sir chizig'i (V t.ch.) bo'ladi.

(2.2) va (2.3) ifodalarga ko'ra, A va B tayanch reaksiya ta'sir chiziqlarining ordinalari musbat ishorali bo'lib, o'lchamsiz miqdordir.


Ko'ndalang kuchning ta'sir chizig'i. Balkaning berilgan kesimi C dagi ko'ndalang kuch Q_c ning ta'sir chizig'ini qurish uchun birlik kuch ($P=1$) ning ikki vaziyatini tekshirish kerak (2.2-rasm).

Birinchi vaziyat. Birlik ko'chma kuch ($P=1$) C kesimdan chap tomonda harakat qiladi, ya'ni $0 \leq x \leq a$. Balka o'ng tomoning muvozanatini ko'rib Q_c^{yan} ni aniqlaymiz:

$$\sum Y = 0, \quad \text{bundan} \quad Q_c^{yan} = -B = -\frac{x}{l}. \quad (2.4)$$

Ikkinchi vaziyat. Birlik ko'chma kuch C kesimdan o'ng tomonda harakat qilsin. Unda $0 \leq x \leq l$ (2.2-rasm). Balka chap qismining muvozanatini tekshiramiz: $Q_c^{yan} = -A = -\frac{x}{l}$.

(2.4')



2.2 - rasm

(2.4) ga asosan, Q_c^{yan} chap chiziq ordinalari chap tayanchdan C kesimgacha balkaning B tayanch reaksiyasi ta'sir chizig'ining teskari ishora bilan olingan ordinalari qiymatiga va (2.4') ga asosan, Q_c^{yan} chiziq esa C kesimdan balkaning oxirigacha A reaksiyaning ta'sir chizig'iga mos keladi. Q_c ning ta'sir chizig'ini chizish uchun chap tayanch ostiga biror masshtabda musbat birlik ordinata qo'yib, uni o'ng tayanch tagidagi nollik ordinata bilan tutashtiramiz (bu o'ng chiziq deb ataladi), so'ngra o'ng tayanch ostiga manfiy birlik ordinata ko'yib, uni chap tayanch tagidagi nollik ordinata bilan tutashtiramiz (bu o'ng chiziq

deb ataladi), so'ngra o'ng tayanch ostiga manfiy birlik ordinata qo'yib, uni chap tayanch tagidagi nollik ordinata bilan tutashtiramiz (chap chiziq).

O'ng va chap chiziqlar bir-biriga parallel bo'ladi. CHap chiziq balkaning chap tayanchidan C kesimgacha, o'ng chiziq esa C kesimdan o'ng tayanchgacha Q_c ning o'zgarishini ifodalaydi (2.2-rasmdagi shtrix chiziq). Ko'ndalang kuch ta'sir chiziqlarining ordinalari yuqorida keltirilgan tenglamalarga asosan o'lchamsiz miqdordir.


Eguvchi momentning ta'sir chizig'i. Balkaning C kesimida hosil bo'ladigan eguvchi moment ta'sir chizig'ini qurish uchun ham birlik kuchning ikki holatini tekshiramiz (2.3-rasm).

Birinchi holat. ($P=1$) kuch C kesimning chap tomonida harakatlanadi.

($0 \leq x \leq a$) a deb faraz qilib (2.3-rasm.), M_c^{uan} eguvchi moment tenglamasini balkaning o'ng tomoni muvozanatiga asosan yozamiz:

$$M_c^{uan} = B(1-a) = x/1 \quad (2.5)$$

Bu tenglama $P=1$ yuk chap tayanchdan kesimgacha harakatlanganda M_c eguvchi moment qiymatining o'zgarishini ifodalaydi. Uning grafigini (chap chiziq deb ataladi) chizish uchun, o'ng tayanch ostiga $1-a$ o'zgarimas songa teng ordinata qo'yib, A tayanch ostidagi nollik ordinata bilan birlashtiramiz.



2.3 - rasm

Ikkinchi holat $P=1$ ko'chma kuch C kesimning o'ng tomonida (2.3-rasm, b) harakat qiladi ($a \leq x \leq l$) deb, M_c^{ynz} ni aniqlaymiz. Balka chap tomonining muvozanatini tekshiramiz, bunda :

$$M_c^{ynz} = A \cdot a = (1-x/1) \cdot a \quad (2.5')$$

Demak, M_c^{ynz} chiziq bu chegarada A reaksiyaning ta'sir chizig'i ordinalarini a o'zgarimas songa ko'paytirib chizilganiga to'g'ri keladi. Bu chiziq o'ng chiziq deyiladi (2.3-rasm,).

CHap chiziq bilan o'ng chiziq C kesim tagida kesishadi, chunki $X=a$ ni (2.5) va (2.5') ifodalarga qo'ysak, M_c^{uan} va M_c^{ynz} ordinalarning tengligini ko'ramiz. M_c ta'sir chizig'ining ordinalasi $P=1$ ko'chma yuk shu ordinata ustida turganida C kesimda hosil bo'lgan eguvchi momentning miqdorini qabul qilingan masshtabda ifodalaydi. (2.5) va (2.5') formulalarga asosan, bu ordinataning o'lchov birligi metr bo'ladi.


Mavzu: Ko'p oraliqli statik aniq balkalarni qo'zg'almas yuklar ta'siriga hisoblash.

Ko'p oraliqli statik aniq balkalar uchun quyidagilar talab etiladi.


1. Analitik yo'l bilan eguvchi moment M va kesuvchi kuch Q qiymatlari aniqlansin va epyurasi qurilsin.
2. Berilgan kesim uchun eguvchi moment M va kesuvchi kuch Q hamda ixtiyoriy bitta tayanch reaksiya kuchini R ta'sir chizig'i qurilsin.
3. Ta'sir chizig'lar yordamida berilgan kesimni eguvchi moment M va kesuvchi kuch Q hamda tayanch reaksiya kuchi R ni qiymatlari topilsin.

Berilgan:

$$\begin{array}{lll}
 q = 2 \text{ kN/m} & b = 2 \text{ m} & L_2 = 7 \text{ m} \\
 P = 3 \text{ kN} & a = 1,5 \text{ m} & L_3 = 5 \text{ m} \\
 M = 2,5 \text{ kN} \cdot \text{m} & L_1 = 6 \text{ m} & \text{kesim № 1.2}
 \end{array}$$



1. Ko'p oraliq statik aniq balkalarni o'zaro bog'lanish sxemasini qurish.



Balkalarni o'zaro bog'lanish sxemasidan balkalarni hisoblash tartibi bo'yicha turlarga ajratamiz. Demak, I va II - osma balka, III va IV - asosiy balka deb ataladi.

2. I-osma balkaning hisobi. (shakl 1v.)



Reaksiya kuchlarini aniqlaymiz.

$$\begin{array}{lll}
 \sum M_b = 0 & -V_c \cdot 6 + q \frac{6^2}{2} = 0 & V_c = \frac{q \cdot \frac{6^2}{2}}{6} = \frac{2 \cdot \frac{36}{2}}{6} = 6 \text{ kN} \\
 \sum M_c = 0 & V_b \cdot 6 - q \frac{6^2}{2} = 0 & V_b = \frac{q \cdot \frac{6^2}{2}}{6} = \frac{2 \cdot \frac{36}{2}}{6} = 6 \text{ kN} \\
 \text{Tekshirami z:} & \sum_{pr} Y = 0 & V_c + V_b - q \cdot 6 = 6 + 6 - 12 = 0
 \end{array}$$


Balkaning harakterli nuqtalarni ko'ndalang kuch Q qiymatini hisoblaymiz.

$$\begin{array}{ll}
 \text{V kesimda} & Q^{ong} = V_b = 6 \text{ kN} \\
 \text{2 kesimda} & Q_2 = V_b - q \cdot 3 = 6 - 2 \cdot 3 = 0 \\
 \text{C kesimda} & Q_c^{chap} = V_b - q \cdot 6 = 6 - 2 \cdot 6 = -6 \text{ kN}
 \end{array}$$

Eguvchi moment M epyurasini V-S oraliqda quramiz.

$$\begin{array}{ll}
 0 \leq x \leq 6 \text{ m} & M_x = V_b \cdot x - q \frac{x^2}{2} \\
 x = 0 \text{ da moment} & M_b = 0 \\
 x = 3 \text{ da moment} & M_2 = 6 \cdot 3 - 2 \frac{3^2}{2} = 18 - 9 = 9 \text{ kN} \cdot \text{m} \\
 x = 6 \text{ da moment} & M_c = 6 \cdot 6 - 2 \frac{6^2}{2} = 36 - 36 = 0
 \end{array}$$

3. II-osma balka hisobi (shakl-1v).



Reaksiya kuchlarini aniqlaymiz.

$$\begin{aligned} \sum M_F = 0; & \quad -M - V_L \cdot 5 = 0; & \quad V_L = -0,5 \text{ kN} \\ \sum M_L = 0; & \quad V_F \cdot 5 - M = 0; & \quad V_F = 0,5 \text{ kN} \\ \text{Tekshirami z:} & \quad \sum_{pr} U = 0; & \quad V_F + V_L = 0,5 - 0,5 = 0 \end{aligned}$$

Balkaning xarakterli nuqtalaridagi ko'ndalang kuch Qni hisoblaymiz.

$$\text{F kesimda} \quad Q_F^{o'ng} = V_F = 0,5 \text{ kN}$$

$$\text{L kesimda} \quad Q_L^{chap} = -V_L = -(-0,5) = 0,5 \text{ kN}$$

Eguvchi moment M epyurasini F-L oralig'ida quramiz.

$$0 \leq x \leq 5m \quad M_x = V_F \cdot x$$

$$x = 0 \quad \text{moment} \quad M_F = 0$$

$$x = 5m \quad \text{moment} \quad M_L = 0,5 \cdot 5 = 2,5 \text{ kN} \cdot m$$

4. III asosiy balka hisobi (shakl-1v)

Balkani S,F nuqtalariga ta'sir etuvchi tashqi kuchlar qatoridagi qarama-qarshi yo'nalgan V_C , V_F tayanch reaksiya kuchlaridir.

V_E va V_D reaksiya kuchlarini aniqlaymiz.

$$\sum M_D = 0 \quad -V_c \cdot 1,5 + P \cdot 5 + V_F \cdot 8,5 - V_E \cdot 7 = 0$$

$$V_E = \frac{P \cdot 5 + V_F \cdot 8,5 - V_c \cdot 1,5}{7} = \frac{3 \cdot 5 + 0,5 \cdot 8,5 - 6 \cdot 1,5}{7} = 1,46 \text{ kN}$$

$$\sum M_E = 0 \quad -V_c \cdot 8,5 + V_D \cdot 7 - P \cdot 2 + V_E \cdot 1,5 = 0$$

$$V_D = \frac{V_c \cdot 8,5 + P \cdot 2 - V_E \cdot 1,5}{7} = \frac{6 \cdot 8,5 + 3 \cdot 2 - 0,5 \cdot 1,5}{7} = 8,04 \text{ kN}$$

$$\text{Tekshirami z:} \quad \sum_{pr} U = 0$$

$$V_D + V_E - V_c - P - V_F = 8,04 + 1,46 - 6 - 3 - 0,5 = 0$$

Balkaning xarakterli nuqtalarni ko'ndalang kuch Q qiymatini hisoblaymiz.

$$\text{C kesimda} \quad Q_C^{o'ng} = -V_c = -6 \text{ kN}$$

$$\text{D kesimda} \quad Q_D^{chap} = Q_C^{chap} = -6 \text{ kN}$$

$$\text{D kesimda} \quad Q_D^{o'ng} = Q_D^{chap} + V_D = -6 + 8,04 = 2,04 \text{ kN}$$

$$\text{I kesimda} \quad Q_I^{chap} = Q_D^{o'ng} = 2,04 \text{ kN}$$

$$\text{I kesimda} \quad Q_I^{o'ng} = Q_I^{chap} - P = 2,04 - 3 = -0,96 \text{ kN}$$

$$\text{E kesimda} \quad Q_E^{chap} = Q_I^{o'ng} = -0,96 \text{ kN}$$

$$\text{E kesimda} \quad Q_E^{o'ng} = Q_E^{chap} + V_E = -0,96 + 1,46 = 0,5 \text{ kN}$$

$$\text{F kesimda} \quad Q_F^{chap} = Q_E^{o'ng} = 0,5 \text{ kN}$$

Eguvchi moment M epyurasini S-D oralig'ida quramiz.

$$0 \leq x_1 \leq 1,5m \quad M_{x_1} = -V_c \cdot x_1$$

$$x_1 = 0 \quad \text{moment} \quad M_C = 0$$

$$x_1 = 1,5m \quad \text{moment} \quad M_D = -6 \cdot 1,5 = -9 \text{ kN} \cdot m$$

$$\text{D-I oralig'ida} \quad 0 \leq x_2 \leq 5m$$

$$M_{x_2} = -V_c(1,5 + x_2) + V_D \cdot x_2$$

$$x_2 = 0 \quad \text{moment} \quad M_D = -6 \cdot 1,5 = -9 \text{ kN} \cdot \text{m}$$

$$x_2 = 5m \quad \text{moment} \quad M_1 = -6 \cdot 6,5 + 8,04 \cdot 5 = 1,2 \text{ kN} \cdot \text{m}$$

I-E oralig'ida $0 \leq x_3 \leq 2m$

$$M_x = -V_c(6,5 + x_3) - P \cdot x_3 + V_D(5 + x_3)$$

$$x_3 = 0 \quad \text{moment} \quad M_1 = -6 \cdot 6,5 + 8,04 \cdot 5 = 1,2 \text{ kN} \cdot \text{m}$$

$$x_3 = 2m \quad \text{moment} \quad M_E = -6 \cdot 8,5 - 3 \cdot 2 + 8,04 \cdot 7 = -0,75 \text{ kN} \cdot \text{m}$$

F-E oralig'ida $0 \leq x_4 \leq 1,5m$

$$M_x = -V_F \cdot x_4$$

$$x_4 = 0 \quad \text{moment} \quad M_F = 0$$

$$x_4 = 1,5m \quad \text{moment} \quad M_E = -0,5 \cdot 1,5 = -0,75 \text{ kN} \cdot \text{m}$$

5. IV-asosiy balkani hisoblaymiz.

Konsolli balkalar uchun reaksiya kuchlarini aniqlash shart emas.

$$\text{Ko'ndalang kuch qiymati} \quad Q_B = V_B = 6 \text{ kN}$$

Eguvchi moment qiymati

$$0 \leq x \leq 2m$$

$$M_x = -V_v \cdot x$$

$$x = 0 \quad \text{moment}$$

$$M_v = 0$$

$$x = 2m \quad \text{moment}$$

$$M_A = -6 \cdot 2 = -12 \text{ kN} \cdot \text{m}$$

6. Ko'ndalang kuch Q umumiy epyurasini chizish uchun odiy balkalarga qurilgan ko'ndalang kuch epyurasini bir to'g'ri chiziqqa masshtab bilan chiziladi (shakl 1g).
7. Eguvchi momentning umumiy epyurasi ham ko'ndalang kuch epyurasi singari quriladi (shakl 1d).
8. Ta'sir chiziqlar qurish uchun balkalarni bog'lanish sxemasini tashqi yuklarsiz qayta chizib olamiz (shakl 2).


V_D va V_E **tayanch reaksiya kuchlarini ta'sir chiziqlari.**

Berilgan balkani asosiy balka SF va ikkita osma balka VS hamda EF osma balkaga ajratamiz.

Agar balkaning S va F nuqtalaridan osma balkalarni olib tashlasak, ikki konsolli oddiy balka hosil bo'ladi. Hosil bo'lgan asosiy balkaga bo'lgan kuch xarakterlanayotgan bo'lsin, $\bar{P} = 1$ holda V_D tayanch reaksiya kuchi quyidagiga teng bo'ladi.

$$V_D L_2 - \bar{P}(L_2 - x) = 0 \quad \sum M_E = 0 \quad -a \leq x \leq L_2 + a$$

$$V_D = \frac{\bar{P}(L_2 - x)}{L_2} = \frac{L_2 - x}{L_2} \quad \bar{P} = 1$$



$$\begin{aligned}
 x = -a \quad V_D &= \frac{L_2 + a}{L_2} = \frac{7 + 1,5}{7} = 1,2 \\
 x = 0 \quad V_D &= \frac{L_2}{L_2} = 1 \\
 x = L_2 \quad V_D &= \frac{L_2 - L_2}{L_2} = 0 \\
 x = L_2 + a \quad V_D &= \frac{L_2 - L_2 - a}{L_2} = -\frac{a}{L_2} = -\frac{1,5}{7} = -0,2
 \end{aligned}$$

$\bar{P} = 1$ kuchni VS chap osma balkada harakatlanganda V_D -tayanch reaksiya kuchini o'zgarish qonuniyatini ko'rib chiqamiz.

$$\sum M_E = 0 \quad V_D \cdot L_2 - V_c(L_2 + a) = 0$$

chap tayanch reaksiya kuchini o'zgarish qonunini hisobga olib, $V_c = \frac{\bar{P}x}{L_1}$

$$V_D = \frac{P \cdot x}{L_1} \cdot \left(\frac{L_2 + a}{L_2} \right) \quad 0 \leq x \leq L_1$$

$$x = 0 \quad V_D = 0$$

$$x = L_1 \quad V_D = \frac{1 \cdot L_1}{L_1} \cdot \left(\frac{L_2 + a}{L_2} \right) = 1,2$$

$\bar{P} = 1$ kuchni FL o'ng osma balkada harakatlanganda V_D -tayanch reaksiya kuchini o'zgarish qonuniyatini ko'rib chiqamiz.

$$\sum M_E = 0 \quad V_D \cdot L_2 + V_F \cdot a = 0$$

$$V_D = -\frac{V_F \cdot a}{L_2} = -\frac{\bar{P}(L_3 - x)}{L_3} \cdot \frac{a}{L_3}$$

$V_F = \frac{\bar{P}(L_3 - x)}{L_3}$ ni hisobga olib,

$$x = 0 \quad V_D = -\frac{a}{L_2} = -\frac{1,5}{7} = -0,2$$

$$x = L_3 \quad V_D = -\frac{1 - (L_3 - L_3)}{L_3} \cdot \frac{a}{L_2} = 0$$

10. V_D -tayanch reaksiya kuchni qiymatini ta'sir chiziqlar yordamida aniqlaymiz:

$$\omega = \frac{U_V \cdot L_1}{2} = \frac{1,2 \cdot 6}{2} = \frac{7,2}{2} = 3,6$$

U_1 ni qiymatini uchburchaklar o'xshashligidan aniqlaymiz:

$$\frac{1}{U_1} = \frac{7}{2} \quad U_1 = \frac{2}{7} = 0,3$$

$$\operatorname{tg} \varphi = \frac{U_3}{L_3} = \frac{0,2}{5} = 0,04$$

Topilgan qiymatlarni formulaga qo'yib, V_D -qiymatini hisoblaymiz.

$V_D = q\omega + P \cdot U + M \operatorname{tg} \varphi = 2 \cdot 3,6 + 3 \cdot 0,3 - 2,5 \cdot 0,04 = 7,2 + 0,9 - 0,1 = 8,0$ kN V_D ta'sir chizig'i bo'yicha olingan qiymati $V_D = 8,0$ kN

Analitik usulda V_D - qiymatning $V_D = 8,04$ kN ga teng ekanligi ta'sir chizig'i to'g'ri qurilganini bildiradi.

Balkaning tayanchlar orasidagi kesimining eguvchi moment chizig'ini qurish. $\bar{P} = 1$ birlik kuch k_1 kesimdan o'ng tomonda harakatlanganda balkaning chap tomoni muvozanatini tekshiramiz, ya'ni chap tomonda joylashagan barcha kuchlardan k_1 nuqtaga nisbatan moment olamiz.

$$M_{k_1} = V_D \cdot 5 = \frac{\bar{P}(L_2 - x)}{L_2} \cdot 5$$

$$x = 0 \quad M_{k_1} = 5$$

$$x = L_2 \quad M_{k_1} = 0$$

$$x = L_2 + a \quad M_{k_1} = \frac{a}{L_2} \cdot 5 = \frac{1,5}{7} \cdot 5 = 0,2 \cdot 5 = 1$$

$\bar{P} = 1$ birlik kuch k_1 kesimdan chap tomonda harakatlanganda, balkaning o'ng tomoni muvozanatini tekshiramiz, ya'ni o'ng tomonda joylashagan barcha kuchlardan k_1 nuqtaga nisbatan moment olamiz.

$$M_{k_1} = V_E \cdot 2 = \frac{P \cdot x}{L_2} \cdot 2$$

$$x = 0 \quad M_{k_1} = 0$$

$$x = L_2 \quad M_{k_1} = 2$$

$$x = -a \quad M_{k_1} = -\frac{a}{L_2} \cdot 2 = -\frac{1,5}{7} \cdot 2 = 0,4$$

Bu tenglamalarda M_{k_1} ta'sir chizig'ining chap va o'ng shoxchalari kelib chiqadi. M_{k_1} ta'sir chiziq asosiy balka qurilayotganligi uchun ularning ta'siri osma balkalarga ham uzatiladi.

12. M_{k_1} ni ta'sir chiziqlar yordamida aniqlash:

$$\omega = \frac{0,4 \cdot L}{2} = \frac{0,4 \cdot 6}{2} = 1,2$$

$$\frac{5}{7} = \frac{U_1}{2} \quad U_1 = \frac{5 \cdot 2}{7} = \frac{10}{7} = 1,42$$

$$\operatorname{tg} \varphi = \frac{U_1}{L_3} = \frac{1}{5} = 0,2$$

Topilgan qiymatlarni formulaga qo'yib, M_{k_1} ni qiymatini hisoblaymiz.

$$M_{k_1} = \omega \cdot q + P \cdot U + M \operatorname{tg} \alpha = -2 \cdot 1,2 + 3 \cdot 1,4 - 2,5 \cdot 0,2 = \\ = -2,4 + 4,2 - 0,5 = 1,3 \text{ kN} \cdot \text{m}$$

Ta'sir chizig'i yordamida topilgan M_{k_1} qiymati: $M_{k_1} = 1,3 \text{ kN} \cdot \text{m}$

Analitik usulda topilgan M_{k_1} qiymati: $M_{k_1} = 1,2 \text{ kN} \cdot \text{m}$

13. Balkaning tayanchlar orasidagi k_1 kesimiga Ko'ngdalang kuch Q_{k_1} ta'sir chizig'ini qurish.

$\bar{P} = 1$ birlik kuch k_1 kesimdan o'ng tomonda harakatlenganda balkaning chap tomoni muvozanatini tekshiramiz, ya'ni chap tomonda joylashagan barcha kuchlardan k_1 nuqtadan o'tuvchi Y o'qiga nisbatan barcha kuchlardan proeksiya olamiz.

$$Q_{k_1} = V_D = \frac{\bar{P}(L-x)}{L_2}$$

$\bar{P} = 1$ birlik kuch k_1 kesimdan chap tomonda harakatlenganda balkaning o'ng tomoni muvozanatini tekshiramiz, ya'ni o'ng tomonda joylashagan barcha kuchlardan k_1 nuqtadan o'tuvchi Y o'qiga nisbatan barcha kuchlardan proeksiya olamiz.

$$Q_{k_1} = -V_E = \frac{\bar{P}x}{L_2}$$

14. Ta'sir chiziqlar yordamida Q_{k_1} qiymatini aniqlaymiz, ya'ni uchburchaklarni o'xshashligidan Y_1 larni aniqlaymiz.

$$\frac{1}{7} = \frac{U}{2} \quad U_1 = \frac{1,2}{7} = 0,22$$

$$U_2 = 1 - Y_1 = 1 - 0,2 = 0,8$$

$$U_3 = \frac{1,5}{7} = 0,21$$

$$U_4 = \frac{1,5}{7} = 0,21$$


$$\omega = \frac{U_4 \cdot L_1}{2} = \frac{0,2 \cdot 5}{2} = 0,5 \quad \operatorname{tg} \alpha = \frac{U_3}{L_3} = \frac{0,21}{5} = 0,04$$

Topilgan qiymatlarni formulaga qo'yib, Q_{k_1} ni qiymatini hisoblaymiz.

$$Q_{k_1} = q\omega + P \cdot U + M \operatorname{tg} \alpha = 2 \cdot 0,5 + 3 \cdot 0,22 - 3 \cdot 0,8 - 2,5 \cdot 0,04 = \\ = 1 + 0,6 - 2,4 - 0,1 = 1,6 - 2,5 = -0,9 \text{ kH}$$

Ta'sir chizig'i yordamida topilgan qiymati: $Q_{k_1} = -0,9 \text{ kN}$

Analitik usulda topilgan qiymati: $Q_{k_1} = -0,96 \text{ kN}$



Mavzu: Ko‘p oraliqli statik aniq balkalarni harakatlanuvchi yuklar ta‘siriga hisoblash

Turli sistemalarga ta‘sir qiluvchi doimiy yuklardan tashqari, ko‘pincha inshootlarni hisoblashda o‘z qo‘yilgan joyini o‘zgartiruvchi siljuvchi yuklarning ta‘sirini hisobga olish kerak bo‘ladi. SHunday yuklarga ko‘prik bo‘ylab harakatlanuvchi poezdlar, avtomobillar oqimi, traktorlar, qurollar, ot-aravalar, kranbalka bo‘ylab siljuvchi ko‘prik krani va h.z. misol bo‘ladi.

Barcha bu holatlarda, harakatlanuvchi yukni doimiy intensivlikdagi yoyiq yuk yoki oraliq‘i parallel yig‘iq kuchlar sistemasi shaklida tasavvur etiladi. Inshoot bo‘ylab ko‘chishda, kuchlar dinamik ta‘sir hosil qilmaydi deb mo‘ljallanadi.

Harakatlanuvchi yuklarga hisoblashda dastlab uning inshootdagi eng noqulay holati topiladi, bunda tuzilma elementlarida eng katta ichki zo‘riqishlar va deformatsiyalar paydo bo‘ladi, so‘ngra bu zo‘riqish va deformatsiyalarning hisobiy qiymatlari hisoblanadi. Harakatlanuvchi yuklarning hisobiy holatini topish ta‘sir chiziqlar nazariyasi bilan eng oson aniqlanadi.

Ta‘sir chiziqlarining ichki zo‘riqish epyuralaridan farqi:

1. Zo‘riqish epyuralarining ordinatalari shu zo‘riqishning, berilgan yukning bitta aniq holati uchun, inshoot barcha kesimlarida o‘zgarish qonuniyatini tasvirlaydi va butun sistemaning kuchlanish holatini umumiy ko‘rinishda ifodalash imkonini beradi. Yukning boshqa holatidagi zo‘riqishlarning o‘zgarishini tabiiyki, darhol aytish qiyin. Buning uchun qayta hisoblash bajariladi, yangi epyura quriladi va x.z.

2. Ta‘siri chizig‘ining ordinatalari, aksincha, berilgan zo‘riqishning faqat bitta, aniq kesimida, inshoot bo‘ylab harakatlanuvchi birlik kuchning holatidan o‘zgarishini xarakterlaydi.

Ta'sir chizig'i grafigi bo'yicha, boshqa kesimga tegishli izlanayotgan zo'riqishning o'zgarishi haqida hech nima aytib bo'lmaydi.

Ta'sir chiziqlari $F=1$ kuch (yuklar) harakatidan qurilganligi sababli, uning ordinatalari o'lchamga ega.

$$\text{T.ch.ordina talarining \u02bc}lchami = \frac{\text{izlanayotgan kiyimatlarning \u02bc}lchami}{\text{yuklarining \u02bc}lchami}$$

Masalan, tayanch reaksiyalari, ko'ndalang va bo'ylama kuchlar t.ch.ordinatalari $N/N=0/q$ (o'lchamsiz qiymatlar) o'lchamiga ega, eguvchi moment t.ch. ordinatalari $N\cdot m/N=m$ o'lchamiga ega, solqiliklar t.ch.ordinatalari m/N va h.z.

Zo'riqishlarning ta'sir chiziqlarini qurishda quyidagi usullardan foydalaniladi: statik, kinematik va bog'lanishlarni almashtirish.


Statik usulni qo'llashda, tanlangan koordinatalar sistemasi berilgan bo'lagidagi yuk harakatining muayyan holati qaraladi, va statika tenglamalarini yozib, $F=1$ yuki holatining x abtissasi va zo'riqishni ifodalovchi bog'lanish olinadi. x ga ma'lum qiymatlarni berib, zo'riqishning o'zgarish grafigi, ya'ni ta'sir chizig'i quriladi.

Ta'kidlaymizki, statik aniq sistemalarda topilgan reaksiya va ichki zo'riqishlar o'zgarishining ifodalari chiziqli tenglamalarda yoziladi va yukni to'g'ri chiziq bo'yicha harakatidan mos ta'sir chiziqlari, to'g'ri chiziq bo'laklari bilan tasvirlanadi, bu qurishni ancha yengillashtiradi. Statik noaniq sistemalarda esa, zo'riqishlarning ta'sir chiziqlari egri chiziqli bo'ladi va ularni qurishda ancha ko'p vaqt talab qiladi.

Ta'sir chiziqlarini qurishning *kinematik usuli* mumkin bo'lgan ko'chishlar printsipiga (Lagranj printsipi) asoslangan, bunga ko'ra kuchlar ta'siridan muvozanatda bo'lgan sistemalar uchun, tashqi va ichki kuchlarning har qanday mumkin bo'lgan cheksiz kichik ko'chishlaridagi ishlarining yig'indisi nolga teng.

Bu printsipga asosan zo'riqishlarning ta'sir chiziqlari, bizni qiziqtirgan zo'riqish ta'sir qilgan bog'lanishni olib tashlashdan, olinadigan mexanizmning ko'chish grafigi kabi quriladi. Qiziqtirgan zo'riqish mexanizmga tashqi ta'sir kabi qo'yiladi.

Tayanch reaksiyalarining ta'sir chiziqlarini qurishda mos tayanch tashlab yuboriladi (4.1.1, a-rasm). Eguvchi momentning ta'sir chizig'ini qurishda kesimga sharnir kiritiladi (4.1.1, b-rasm). Kesuvchi kuchlarning ta'sir chiziqlarini qurishda esa shu zo'riqishni qabul qilmaydigan mexanizm kiritiladi (4.1.1, v-rasm).













4.1.1-rasm

Masshtabni aniqlash uchun tashlab yuborilgan bog'lanish yo'nalishi bo'yicha ko'chish birga teng deb qabul qilinadi. Ba'zan birlik ko'chishdan ko'ra, birlik deformatsiya berish qulayroqdir. SHu tarzda qurilgan ta'sir chiziqlarining nol nuqtasi yerga nisbatan disklar oniy burilish markazining proektsiyalari bo'ladi, to'g'ri chiziq bo'laklari esa disklar o'zaro burilishi oniy markazlari ostida kesishadi.

Bog'lanishlarni almashtirish usuli ta'sir chiziqlarini qurishda, avvalgi ikki usulga ko'ra ancha kam qo'llaniladi. Murakkab sistemalar uchun, bu usul qulay va samaraliroq hisoblanadi. Izlanayotgan ta'sir chiziqlarini qurish juda murakkab bo'lganda, u ancha oddiy bajariladigan boshqa ta'sir chizig'ini qurish bilan almashtiriladi. Bu usulning asosiy g'oyasi 1- bobda bayon etilgan.


Ilg'ash qiyin emaski, 4.1-jadvalda tavsiya etilgan R_A t.ch. va R_B t.ch. dan boshqa ta'sir chiziqlarni 4.2-jadval yordamida olish mumkin. Haqiqatdan ham, balkaning chap va o'ng konsolini tashlab yuborib va A tayanchni V tayanch bilan ustma-ust tushguncha siljitib yoki V tayanchni A tayanchga, ya'ni balki oralig'ini nolga intiltirib, o'ng yoki chap konsol balka uchun ta'sir chizig'ini olamiz. SHuning uchun, faqat 4.2-jadvalda tavsiya etilgan ta'sir chiziqlarini va 4.1-javdaldagi R_A va R_B t.ch. ni eslab qolish kerak bo'ladi.

4.1-jadval


т/р	Т.ч. ва балка шакллари	т/р	Т.ч. ва балка шакллари
1		6	
2		7	
3		8	
4		9	
5		10	

Ko'p oraliqli sharnir-konsolli balkalarda zo'riqishlarning ta'sir chiziqlarini qurish qoidalari

- Balkalarning qavatlar sxemasini quramiz.
- Qavatlar sxemasidan, kesimning izlanayotgan ta'sir chizig'ini qurish talab etilgan, balkani topamiz. Bu balka uchun grafikni (jadvalga oid) 4.1-jadval yoki 4.2-jadvaldan ko'chiramiz. Agar izlanayotgan balkada qaysidir konsol (yoki ikkala konsollar) yo'q bo'lsa, u holda jadvaldagi ta'sir chiziqlardan konsolli (yoki ikkala konsolni) olib tashlash kerak.
- Quyidagilarni bilganimiz holda, izlanayotgan balkaga nisbatan undan yuqorida joylashgan balka bo'ylab $F=1$ yukining harakatini ko'ramiz:
 - yerga tiralgan tayanchlarda ta'sir chizig'i nol orqali o'tadi, konsollarda esa ta'sir chiziqlarining chop va o'ng tarmoqlari davom etadi;
 - sharnirlarda ta'sir chiziqlari sinadi;
 - agar balka oralig'ida ikkita sharnir qo'yilgan bo'lsa, pastki balkadan birlik kuchning harakati bo'yicha ikkinchi sharnirda zo'riqishning ta'sir chizig'i nolga teng (nol nuqta).
- Izlanayotgan balkadan pastda joylashgan balka bo'ylab $F=1$ kuchining harakatini qaraymiz, chunki unga qo'yilgan yuk, yuqori qavatlarda zo'riqishlar hosil qilmaydi, ya'ni bu bo'laklardagi izlanayotgan ta'sir chiziqlari nollik bo'ladi.



5. Zo‘riqishlar ta’sir chiziqlarining ordinalari uchburchaklarning o‘xshashliklaridan aniqlanadi.



4.1.2-rasm


Ko'pincha yuklar asosiy balkaga to'g'ridan-to'g'ri qo'yilmasdan, oraliq ko'ndalang balkalar yordamidagi ma'lum joylarga uzatiladi. Ko'ndalang balkalar qo'yilgan joylar tugunlar deyiladi. Tugunlar orasidagi masofa *panel* deyiladi. Yuklarni asosiy balkaga uzatishning bunday usuli *tugunlar orqali* uzatish deyiladi.

Yuklar tugunlar orqali uzatish hollarida ta'sir chiziqlarini olish uchun, dastlab yuklar bevosita asosiy balkaga qo'yilgan deb hisoblab ta'sir chiziqlarini qurish zarur, so'ngra qurilgan grafikka tugundagi nuqtalar o'tkaziladi va olingan qo'shni tugunlar proektsiyalari to'g'ri chiziqlar bilan birlashtiriladi (4.1.2, a...e-rasm).

4.1 - misol. Balkaning tayanch reaksiyalari va belgilangan kesimlari zo'riqishlarining ta'sir chiziqlari qurilsin (4.1.3-rasm).

Yuqorida keltirilgan qoidalarga asosan bandlar bo'yicha, ta'sir chiziqlarini qurishni bajaramiz:

1. Balkalarning qavatlar sxemasi 4.1.3,b-rasmda tasvirlangan A, V, D, F nuqtalarda joylashgan tayanchlarni yer tayanchlar, S va F nuqtalardagisini esa, soxta tayanchlar deb ataymiz.



4.1.3-rasm

2. Birinchi uchta ta'sir chiziqlari (R_A t.ch., M_B t.ch., M_K t.ch.) eng pastdagi asosiy balkaga tegishli kesimlarga taaluqli, shuning uchun ularning uzunligi keyingi hamma balkalarga tarqaladi. Izlanayotgan AVS balka uchun ta'sir chiziqlari 4.2-jadvalning 1, 11, 3-bandlaridan olinadi (4.1.3, v...d-rasm).

Ikkinchi uchta ta'sir chiziqlari (R_d t.ch., Q_D^{uan} t.ch., Q_D^{yuz} t.ch.) ikkinchi qavatdagi SDE ikkinchi darajali balka kesimlariga tegishli va 4.2-jadvalning mos holda, 2, 14, 12 -bandlaridan ko'chiriladi (4.1.3 ye...z-rasm).

Nihoyat, ikki ta'sir chizig'i (M_N t.ch., Q_N t.ch.) eng yuqorigi uchinchi qavatdagi EFG ikkinchi darajali balka kesimlariga tegishli va 4.2-jadvalning 3,4- bandlariga ko'ra, ular 4.1.3, i, k-rasmlarda tavsiya etilgan ko'rinishga ega.

EFG balka uchun uning tepasida yotgan balka yo'qligi sababli, M_N eguvchi momenti Q_N ko'ndalang kuchlari uchun qurilgan ta'sir chiziqlari, butun ko'p oraliqli sharnir-konsolli balka uchun tugallangan hisoblanadi.

3. Eng yuqorida joylashgan balka bo'ylab $F=1$ yuki harakatidan ta'sir chiziqlar qurishda unga nisbatan 3-bandning "a" va "b" bandchalarida bayon etilgan qoidalarini qo'llaymiz. Bu qoidalarga asosan, agar birlik yuk yerga tiralgan tayanch ustida tursa (nol nuqta), ta'sir chizig'i ordinatasi nolga teng, qurilgan to'g'ri chiziq esa konsolga davom etadi.

Yuqorida yotgan balka bo'ylab yukning harakatidan ta'sir chiziqlarni qurishni R_A ta'sir chizig'i misolida to'laroq qarab chiqamiz (4.1.3, v-rasmga qarang). Aytaylik $F=1$ yuki *SDE* balkasi bo'yicha harakatlansin. Yuk S nuqtada bo'lgan va avval qurilgan ta'sir chizig'i bo'lagida "-0,5" ga teng ordinata shaklida "iz qoldirgan" *SDE* balkasining pastda joylashgan *AVS* balkasiga bosimi S tuguni orqali amalga oshiriladi. Bu ko'taruvchi tuzilmaga yukning tugun orqali uzatilishiga yana bir misol.

Birlik yukning S nuqtadan o'ngga keyingi harakatlanishida yerga tiralgan D nuqta navbatdagi xarakterli nuqta bo'ladi (birinchi nolli nuqta). Aytaylik yuk D nuqtada muayyan holatda tursin. Unda tayanch reaksiya $R_D=1$, soxta reaksiya esa $R_C=0$. SHunday qilib *SDE* balka $F=1$ yuki yerga tiralgan D tayanchda bo'lganda, yukni S tugun orqali *AVS* balkaga uzatmaydi va R_A ta'sir chizig'ining ordinatasi nolga teng bo'ladi. Tugun orqali yuklanishdagi kabi R_A t.ch. S va D tugunlari orasida to'g'ri chiziq qonuniyati bo'yicha o'zgaradi, uning ordinatalarini S va D nuqtalarda to'g'ri chiziq bilan tutashtirib va uni *DE* konsolga davom ettirib, R_A t.ch. ikkinchi qismini olamiz.

Nihoyat, birlik yukning eng yuqorigi *EFG* ikkinchi darajali balka bo'ylab harakatini qarab chiqamiz.

Yuk Y nuqtada bo'lgan va oldingi qurilgan R_A ta'sir chizig'i bo'lagida "0,25" ga teng ordinata shaklida "iz qoldirgan" $F=1$ yuki yerga tiralgan F tayanchi ustida turgan vaqtda, u to'lig'icha shu tayanchga qabul qilinadi, ya'ni $R_F=1$, $R_E=0$. Bu *EFG* balkaning Y tuguni orqali *SDE* balkaga bosim bermasligini bildiradi, u o'z navbatida S tuguni orqali *AVS* balkaga yuk uzatmaydi va R_A ta'sir chizig'ini ordinatasi F nuqtada nolga tengligini ko'rsatadi. E va F nuqtalarda ta'sir chiziqlarining ordinatalarini to'g'ri chiziqlar bilan tutashtirib va uni *FG* konsolga davom ettirib, $F=1$ yukining balka butun uzunligi bo'yicha harakatidan R_A t.ch. yakuniy grafigini olamiz.

SHunga o'xshash mulohazalar yordamida, 4.1.3-rasmda ko'rsatilgan, qolgan ta'sir chiziqlar quriladi.

Ta'sir chiziqlarining barcha xarakterli ordinatalari uchburchaklarning o'xshashligidan topilgan.

Ta'sir chiziqlari yordamida zo'riqishlarni aniqlash.


Ta'sir chiziqlari yordamida zo'riqishlarni aniqlash ularning ta'sir chiziqlarini berilgan yuklar bilan yuklash orqali amalga oshiriladi. Ta'sir chizig'ining ordinatasi, shu nuqtaga $F=1$ kuchi ta'siridan zo'riqish nimaga tengligini ko'rsatadi. Agarda kuch boshqa qiymatga teng bo'lsa, zo'riqishni aniqlash uchun ta'sir chizig'ining ordinatasini shu kuch qiymatiga ko'paytirish lozim. Inshootga yig'iq kuchlar va momentlar tizimi, shuningdek, ta'sir chizig'ining bir necha bo'lagiga yassi yoyilgan kuchlar yuklanishi ta'siridan zo'riqishlar S quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$S = \sum_{i=1}^n F_i y_i + \sum_{j=1}^m q_j \omega_j + \sum_{k=1}^L m_k \cdot tg \alpha_k \quad (4.6)$$

bu yerda F_i - inshootga ta'sir qiluvchi yig'iq kuchlar; q_j - yassi yoyilgan yuklar intensivligi; m_k - yig'iq moment; y_i - F_i yig'iq kuchi ostidagi S zo'riqishi ta'sir chizig'ining ordinatasi; ω_j - q_j intensivligidagi yassi yoyilgan yuk ostida joylashgan S ta'sir chizig'i bo'lagining yuzi; $tg \alpha_k$ - m_k momenti qo'yilgan joydagi ta'sir chizig'i bo'lagining asos to'g'ri chizig'iga nisbatan og'ish burchagi tangensi.

Yuqoridan pastga yoʻnalgan yuklar ($F_i; q_j$) musbat, pastdan yuqoriga esa manfiy deb hisoblanadi. Moment m_k soat strelkasi harakati boʻyicha yoʻnalgan boʻlsa, musbat olinadi. y_i va ω_j uchun ishoralar, S taʼsir chizigʻiga qoʻyilgan ishoralarga koʻra, qabul qilinadi. (4.6) formulaning uchinchi qoʻshiluvchisi oldidagi ishorasini aniqlash uchun quyidagi xotirada saqlashni osonlashtiradigan qoidani taklif qilish mumkin: agar balka oʻqini (sterjenni) taʼsir chizigʻi bilan ustma-ust qoʻyish uchun burilish yoʻnalishi, yigʻiq moment taʼsir qilgan boʻlakda moment yoʻnalishi bilan mos kelsa «manfiy» ishora, agar mos kelmasa «musbat» ishora olamiz.

Bir jinsli uzluksizlikni buzilishi mavjud boʻlgan, taʼsir chiziqlarini yuklashning bitta alohida xususiyati ustida batafsilroq toʻxtalamiz.




4.4.1-rasm


Materiallar qarshiligi kursidan maʼlumki, eguvchi moment va kesuvchi kuch epyuralari, eguvchi moment va yigʻiq kuchlar qoʻyilgan kesimlarda bir jinsli uzilishga ega (4.4.1, a, b-rasm).

K kesimidagi koʻndalang kuch va N kesimidagi eguvchi moment nomaʼlum. SHuning uchun, K kesimidagi koʻndalang kuch nimaga teng degan savolni qoʻyish mumkin emas, u qoʻpol ayni paytda mazmunga ega emas. Koʻndalang kuch haqida gapirish va uning qiymati bilan qiziqish, K kesimiga yo chapdan cheksiz yaqin yoki oʻngdan cheksiz yaqin hol uchun mumkin.

4.4.1, a-rasmga asosan, $Q_k^{uan} = Fb/l$, $Q_k^{yh2} = -Fa/l$. Bular eguvchi momentlarga ham tegishlidir (4.4.1, b-rasmga qarang): $M_N^{uan} = -mc/l$; $M_N^{yh2} = md/l$



4.4.2-rasm



4.4.3-rasm

Q va M epyularining M epyularining, uzilish nuqtasida yigʻiq kuchlar bilan yuklangandagi taʼsir chiziqlariga ham koʻchiriladi.

Agar F kuchi qoʻyilgan nuqtada taʼsir chizigʻi uzilishga ega boʻlsa, taʼsir chizigʻini yuklanishidan izlangan zoʻriqishning qiymati, kesimdan cheksiz yaqin qaysi tomondagi zoʻriqishi bizni qiziqtirishiga bogʻliq. Odatda kesimdan chap va oʻngdagi zoʻriqishlarning ikki qiymati hisoblanadi. Bu yerda eslab qolish kerak boʻlgan qoida shunday: agar kesimdan chapdagi cheksiz yaqin zoʻriqish axtarilsa, u holda F kuchini $u_o'ng$ ordinatasiga koʻpaytirish kerak, va aksincha. Bu qoidani grafik koʻrinishda koʻrsatmali tasvirlash mumkin. 4.4.2, a-rasmda tasvirlangan balka uchun, kesuvchi kuchlarning uchta taʼsir chiziqlari qurilgan: Q_k^{uan} , Q_k^{yh2} va Q_k .

4.4.2, a-rasm, 4.4.2, b-rasmlarni va (4.6) formulaning birinchi hadi fizik ma'nosini solishtirishdan $Q_k^{uan} = F \cdot y_{yhz} = F \cdot b/l$ kelib chiqadi, 4.4.2, a-rasm va 4.4.2, v-rasmlarni solishtirishdan esa $Q_k^{yhz} = F \cdot y_{uan} = -F \cdot a/l$

Q_k^{uan} va Q_k^{yhz} larning olingan qiymatlari, kutilganidek, ilgari hisoblangan qiymatlariga mos keladi (4.4.1, a-rasmga qarang). Odatda Q_k^{uan} t.ch. va Q_k^{yhz} t.ch. qurilmaydi, lekin Q_k t.ch. ga esa, yuqorida keltirilgan qoida qo'llaniladi (4.4.2, g-rasm).

SHu ta'sir chiziqlarining uzilish nuqtasi yig'iq moment bilan yuklansa ish boshqacha bo'ladi (4.4.3, a...g-rasm). Bu rasmning tahlili shuni ko'rsatadiki, K kesimidagi zo'riqishning qiymati aniq va tanho bo'ladi, ya'ni

$$Q_N^{uan} = Q_N^{yhz} = Q_N = m \cdot tg\alpha = -m/l.$$


SHunday qilib, ta'sir chiziqlarining uzilishi ularning yig'iq moment bilan yuklanishida, izlanuvchi zo'riqishlarni aniqlashga ta'sir ko'rsatmaydi.

Biroq, qaysi bir zo'riqishning (masalan, eguvchi moment) ta'sir chizig'i singan nuqtasiga yig'iq moment m qo'yilgan bo'lsa, shu nuqta o'zidagi zo'riqishni topish mumkin emas (u noaniq).

So'z yana, nuqtaning cheksiz yaqin chap va o'ng kesimlari haqida borishi mumkin, ulardagi zo'riqishlar ta'sir chiziqlarining uzilish joylariga yig'iq F kuchlar ta'sir qilgandagi qoidalar bo'yicha topiladi. 4.4.4, a...g-rasmlardagi keltirilgan misollardan kelib chiqadi:

$$M_k^{uan} = m \cdot tg\alpha_{yhz} = -ma/l;$$


$$M_k^{yhz} = m \cdot tg\alpha_{uan} = mb/l$$



4.4.4.-rasm

Harakatlanuvchi yuklar ta'sir qilgan hollarda S zo'riqishlarni aniqlash ikki bosqichda olib boriladi: 1) tuzilma elementlarida zo'riqishlar (deformatsiya)ning eng katta qiymatini hosil qiluvchi berilgan harakatlanuvchi yuklarning noqulay holati aniqlanadi. Harakatlanuvchi yuklarning bunday holati *hisobiy* yoki ta'sir chiziqlarining *noqulay yuklanishi*, zo'riqish (deformatsiya)larning eng katta qiymatlari esa *hisobiy qiymatlar* deyiladi. 2) yuklarning shu holatida S hisobiy zo'riqishlar (deformatsiyalar) (4.6) formulasi bo'yicha hisoblanadi.

Ta'sir chiziqlarining noqulay yuklanishi



4.4.5-rasm

1. Bir xil ishorali biror uchburchak shaklidagi ta'sir chizig'i bo'yicha, berilgan masofada o'zaro bog'langan yig'iq kuchlar tizimining harakatini qaraylik (4.4.5-rasm).

Eslatib qo'yamizki, ko'rsatilgan harakatlanuvchi yuklar tizimidagi yuklardan biri uchburchakli ta'sir chizig'ining cho'qqisiga to'g'ri kelganda, yuklar tizimi noqulay holatni egallaydi. Izlangan zo'riqishni eng katta qiymatga yetkazuvchi ta'sir chizig'i cho'qqisiga to'g'ri kelgan yuk *kritik yuk* deyiladi va F_{kr} bilan belgilanadi. Bu holatda, bir vaqtda quyidagi ikki tengsizlik bajarilishi kerak:

$$\begin{cases} \frac{\Sigma F_{uan} + F_{kp}}{a} \geq \frac{\Sigma F_{yhz}}{b}; \\ \frac{\Sigma F_{uan}}{a} \leq \frac{F_{kp} + \Sigma F_{yhz}}{b}, \end{cases} \quad (4.7)$$

bu yerda ΣF_{chap} - kritik kuchdan chapda joylashgan barcha kuchlar yig'indisi, $\Sigma F_{o'ng}$ - kritik kuchdan o'ngda joylashgan barcha kuchlar yig'indisi; a , b -asos to'g'ri chizig'iga ta'sir chiziqlarining chap va o'ng tarmoqlarining proektsiyalari.

Oldindan yuklarning qaysi biri kritik bo'lishi noma'lum bo'lganli sababli, uni rad etish usulida bir necha urinishlardan so'ng topiladi. Dastlab biror yukni kritik yuk deb qabul qilinadi va (4.7) tengsizlik tekshiriladi. Agar (4.7) sharti bajarilmasa, u holda boshqa yuk kritik yuk sifatida qabul qilinadi, toki haqiqiy kritik yuk aniqlanguncha, shunday davom ettiriladi

Agar barcha qaralayotgan kuchlar ta'sir chizig'i chegarasida joylashgan bo'lsagina, topilgan yig'iq kuchlar tizimining noqulay holati to'g'ri bo'ladi, aks holda, barcha hisoblarni yangidan bajarish kerak bo'ladi, bunda berilgan ta'sir chizig'ida joylashgan kuchlarga hisobga olinadi.

(4.7) shart kritik yukning zaruriy va yetarli belgisi hisoblanadi. Yana aytish lozimki, bu shartlarni bittadan ortiq ikkita kritik yuk ham qanoatlantirishi mumkin. Agar (4.7) tengsizlikni tekshirganda ularning biri tenglikka aylansa, bu yana bitti kritik yuk borligini bildiradi. Bu faqat topilgan kritik yuk bilan yonma-yon turgan (qo'shni) yuklardan biri bo'lishi mumkin (4.23-misolga qarang). Ikkinchi kritik yuk yonma-yon yuklarni (4.7) tengsizlikka navbati bilan qo'yib aniqlanadi.

Noqulay holatda joylashgan yig'iq kuchlar tizimi, ekvivalent yuk deb nomlangan yuk bilan almashtirilishi mumkin. Berilgan ta'sir chizig'i uchun *ekvivalent* yuk deb, butun uzunligi bo'yicha yassi yoyilgan shunday yukka aytiladiki, u uni almashtiruvchi yuk hosil qilgan hisobiy zo'riqish S_{max} ni hosil qiladi:

$$S_{max} = q_{\text{экв}} \cdot \omega,$$

bundan

$$q_{\text{эkv}} = S_{max} / \omega, \quad (4.8)$$

bu yerda ω -ta'sir chizig'ining maydoni (yuzi). Yig'iq kuchlarning hisobiy holatida


$$S_{max} = \sum_{i=1}^n F_i \cdot y_i$$

Bundan

$$q_{\text{экв}} = \sum_{i=1}^n F_i \cdot y_i / \omega \quad (4.9)$$

(4.7) tengsizlikni yechishning bir necha urinishlari o'rniga quyida, misollarning birida, shu masalani juda oddiy grafik yechimi qaraladi.

2. Aytaylik uchburchak shaklidagi ta'sir chizig'i bo'yicha uzunligi ta'sir chizig'i uzunligidan kichik, uzluksiz yassi yoyilgan yuk harakatlansin. Bu holda uning hisobiy (noqulay)




4.4.6-rasm

holati qachonki ta'sir chiziqlarining ordinalari yukning boshida u_{chap} va uning oxirida $u_{o'ng}$ bir biriga teng bo'lgandagina yuz beradi (4.4.6-rasm). Bu yerda hisobiy zo'riqish $S_{max} = q \omega$ formulasi bilan aniqlanadi, bunda ω -yuk ostiga to'g'ri kelgan ta'sir chizig'i qismining maydoni.

Belgilab qo'yamizki, ordinalarning tengligi qoidasi ixtiyoriy shakldagi ta'sir chiziqlari uchun ham adolatlidir.

3. Ixtiyoriy uzilishlar bo'lishi mumkin bo'lgan, doimiy intensivlikdagi yassi yoyilgan yukning harakatini qaraymiz. Ma'lumki, zo'riqishning ma'lum musbat ishorali eng katta qiymati S_{max} ni olish uchun bir vaqtda hamma musbat ishorali ta'sir chizig'ining bo'laklarini q yuki bilan, zo'riqishning manfiy ishorali eng katta S_{min} qiymatini olish uchun esa - barcha manfiy ishorali bo'laklarni yuklash kerak.



4.4.7-rasm

4.4.7,a-rasmda tasvirlangan balka uchun, K kesimidagi kesuvchi kuchning ta'sir chizig'i qurilgan, 4.4.7,b, v-raslarda esa $Q_{K,max}$ va $Q_{K,min}$ larni aniqlash uchun yuklanish sxemalari ko'rsatilgan:


$$Q_{K,max} = q(\omega_1 + \omega_2 + \omega_3);$$

$$Q_{K,min} = q(\omega_4 + \omega_5 + \omega_6 + \omega_7).$$

Q_K t.ch. $\omega_4 \dots \omega_7$ bo'laklarining yuzi «manfiy» ishora bilan olinadi.

4.19 - misol.

Belgilangan kesimlardagi zo'riqishlarni ta'sir chiziqlari yordamida aniqlansin (4.4.8, a-rasm).



4.4.8-rasm

Ma'lum qoida bo'yicha qurilgan, 4.4.8,b...g-rasmlarida keltirilgan izlanuvchi ta'sir chiziqlarini berilgan yuklar bilan (4.6) formulasi bo'yicha yuklaymiz.

$$M_k^{uan} = -16 \cdot \frac{1,5}{2} + 8 \cdot (-1,5) + 3 \cdot \left(-\frac{1}{2} \cdot 4 \cdot 3 + \frac{1}{2} \cdot 2 \cdot 1,5 \right) - 12 \cdot (-0,5) = -31,5 \text{ kN}$$

$$M_k^{yh2} = 16 \cdot \frac{1,5}{6} + 8 \cdot (-1,5) + 3 \cdot \left(-\frac{1}{2} \cdot 4 \cdot 3 + \frac{1}{2} \cdot 2 \cdot 1,5 \right) - 12 \cdot (0,5) = -15,5 \text{ kN}$$

$$Q_N^{uan} = 8 \cdot 1 + 3 \cdot \left(\frac{1}{2} \cdot 4 \cdot 1 - \frac{1}{2} \cdot 2 \cdot 0,5 \right) - 12 \cdot \frac{1}{6} = 10,5 \text{ kN}$$

$$Q_N^{yh2} = 8 \cdot 0 + 3 \cdot \left(\frac{1}{2} \cdot 4 \cdot 1 - \frac{1}{2} \cdot 2 \cdot 0,5 \right) - 12 \cdot \frac{1}{6} = 2,5 \text{ kN}$$

$$M_c = 3 \cdot \left(-\frac{1}{2} \cdot 2 \cdot 2 \right) - 12 \cdot \frac{2}{3} = -14 \text{ kN}$$

Mavzu: Statik aniq tekis fermalarni qo'zg'almas yuklar ta'siriga hisoblash.

Ferma – bu geometrik o'zgarmas sistema bo'lib, uning hisoblash sxemasi tugunlarda ideal sharnirlar vositasida tutashirilgan to'g'ri sterjenlardan iborat.

SHuningdek, tashqi yuklar albatta fermaning tugunlariga qo'yilgan va uning sterjenlarida faqat bo'ylama zo'riqishlar (bo'ylama kuchlar) hosil qiladi deb hisoblanadi. Fermalarning yuqorigi va pastki konturlari mos holda, bu fermaning yuqorigi va pastki tasmalari deyiladi, tasmalar bilan o'ralgan qolgan sterjenlar esa ferma panjaralarini hosil qiladi.


Panjaraning vertikal sterjenlari ustunlar, qiyalari – hovon, yuqorigi (pastki) tasmalarning yonma-yon tugunlari orasidagi masofalar esa panellar deyiladi.

Ferma sterjenlarining ichki zo'riqishlari kesish usulida aniqlanadi. Kesim o'tkazish shakliga qarab analitik hisoblar uchta asosiy usulga ajraladi: moment nuqtasi usuli, proektsiya usuli va tugunlarni qirqish usuli. Aytilgan usullardan tashqari murakkabroq fermalar uchun fermalar hisobining boshqa usullari ham qo'llaniladi: yopiq kesim usuli, birgalikdagi kesimlar usuli, sterjenlarni almashtirish usuli. Statik aniq fermalar qaysi usulda hisoblanmasin ularning hisobi tayanch reaksiyalarini aniqlashdan boshlanadi. Ularni balkasimon fermalarda ham xuddi balkalar va oddiy ramalardagidek, hovonli fermalarda esa uch sharnirli ramalardagidek aniqlanadi.

Moment nuqtasi usuli quyidagidan iborat: fermani hayolan ikki qismga shunday qirqiladiki, qirqimga tushgan zo'riqishlari noma'lum sterjenlar soni uchtdan oshmasin. Qirqilgan sterjenlarning o'qi paralel bo'lmasligi va bir nuqtada kesishmasligi kerak. Agar shunday qirqim o'tkazishni iloji bo'lsa, u holda fermaning bir qismi tashlab yuboriladi, qolgan qismiga ta'siri noma'lum ichki bo'ylama kuchlar qo'yiladi.

Bu kuchlarni tugundan ketuvchi (tashlab yuborilgan qismi tomoniga) cho'ziluvchi deb hisoblab (musbat) qirqilgan sterjenlarning o'qlari bo'ylab yo'naltiriladi. Qolgan qismi uchun barcha kuchlarning moment nuqtasiga nisbatan momentlarining yig'indisi ko'rinishida muvozanat tenglamalari tuziladi. Aniqlanayotgan sterjendan tashqari, kesimga tushgan barcha sterjenlarning yo'nalishlarini kesishish nuqtasi moment nuqtasi (Ritter nuqtasi) deyiladi.

2.33- Misol. Konsolli - balkasimon fermaning 2-3, A-6 sterjenlaridagi bo'ylama zo'riqishlari aniqlansin (2.4.1,a- rasm).



2.4.1-rasm

Tayanch reaksiyalarini topamiz:

$$\begin{aligned} \sum X &= 0; & N_A &= 0; \\ \sum M_V &= 0; & -F_1 \cdot 9 - F_2 \cdot 3 + F_3 \cdot 3 + R_A \cdot 6 &= 0, & R_A &= (12 \cdot 9 + 10 \cdot 3 - 8 \cdot 3) / 6 = 19 \text{ kH}; \\ \sum M_A &= 0; & -F_1 \cdot 3 + F_2 \cdot 3 + F_3 \cdot 9 - R_B \cdot 6 &= 0, & \sum R_B &= (-2 \cdot 3 + 10 \cdot 3 + 8 \cdot 9) / 6 = 11 \text{ kH}. \end{aligned}$$

Tekshirish: $\sum U = 0; \quad 19 + 1 - 12 - 10 - 8 = 30 - 30 = 0.$

Fermani I-I, kesim bilan qirqamiz, o'ng qismini tashlab yuborib, uning qolgan chap qismiga ta'sirini tugundan ketuvchi N_{2-3} , N_{A-3} , N_{A-6} noma'lum kuchlari bilan almashtiramiz (2.4.1,b- rasm).

N_{2-3} zo'riqishini aniqlash uchun moment nuqtasi A-3 va A-6 sterjenlarining kesishgan joyida, ya'ni A nuqtasida joylashgan. A moment nuqtasiga nisbatan chap qismidagi barcha kuchlarning momentlari yig'indisi tenglamasini tuzamiz.

$$\Sigma M_A^{uAn} = 0: -F_1 \cdot 3 + N_{2-3} \cdot 3 = 0; N_{2-3} = F_1 = 12 \text{ kH.}$$

N_{2-3} oldidagi «musbat» ishorasi, 2-3 sterjeni cho‘ziluvchi ekanligi bildiradi.

N_{A-6} zo‘riqishini aniqlash uchun moment nuqtasi 2-3 va A-3 sterjenlarining kesishgan joyi, ya‘ni 3-tugunda joylashgan. 3-moment nuqtasiga nisbatan chap qismidagi barcha kuchlarning momentlari yig‘indisi ko‘rinishidagi muvozanat tenglamasini tuzamiz.

$$\Sigma M_3^{uAn} = 0: -F_1 \cdot 6 + R_A \cdot 3 - N_{A-6} \cdot 3 = 0; N_{A-6} = (-12 \cdot 6 + 19 \cdot 3) / 3 = -5 \text{ kH.}$$

N_{A-6} ning «manfiy» ishorasi, A-6 sterjenining siqiluvchi ekanligini bildiradi.

Hisoblar, R_B reaksiyasini aniqlash shart emasligini ko‘rsatdi.

Javob: $N_{2-3} = 12 \text{ kN}; N_{A-6} = -5 \text{ kH.}$

Moment nuqtalarini aniqlashdan kelib chiqadiki, Ba‘zi xususiy hollarda, kesim uchtdan ortiq sterjenlarni kesganda ham bu usulni qo‘llash mumkin.

2.35- misol. Tirgakli fermaning N_{A-3} , N_{3-7} va N_{B-C} bo‘ylama zo‘riqishlari aniqlansin (2.4.3, a- rasm).

Tirgakli fermaning tayanch reaksiyalarini aniqlaymiz.

$$\Sigma M_V = 0; V_A \cdot 20 - 9 \cdot 16 - 6 \cdot 8 - 7 \cdot 4 = 0, V_A = 11 \text{ kH};$$

$$\Sigma M_A = 0; -V_B \cdot 20 + 7 \cdot 16 + 6 \cdot 12 + 9 \cdot 4 = 0, V_B = 11 \text{ kH};$$

$$\Sigma M_C^{uan} = 0; 11 \cdot 12 - 9 \cdot 8 - H_A \cdot 6 = 0, N_A = 10 \text{ kH};$$

$$\Sigma M_C^{yuz} = 0; -11 \cdot 8 + 7 \cdot 4 + H_B \cdot 6 = 0, H_B = 10 \text{ kH.}$$


$$\text{Tekshirish: } \Sigma U = 0; 11 - 9 - 6 - 7 + 11 = 22 - 22 = 0.$$

N_{A-3} zo‘riqishini aniqlash uchun I-I kesimini o‘tkazamiz (2.4.3, a- rasmga qarang), o‘ng tomonini tashlab yuboramiz (2.4.3, b- rasm) va chap qismining muvozanat tenglamasini yozamiz:

$$\Sigma Y^{uan} = 0; V_A - F_1 + N_{A-3} \cdot \sin \alpha = 0; N_{A-3} = (9 - 11) / 0,6 = -3,333 \text{ kH.}$$

N_{3-7} zo‘riqishini aniqlash uchun II-II kesim o‘tkazamiz (2.4.3, a- rasmga qarang), o‘ng tomonini tashlab yuboramiz va chap qismidagi barcha kuchlarning Y o‘qiga proektsiyalarining yig‘indisi ko‘rinishidagi muvozanat tenglamasini yozamiz (2.4.3, v- rasm): $\Sigma Y^{uan} = 0; V_A - F_1 - N_{3-7} = 0; N_{3-7} = 11 - 9 = 2 \text{ kH.}$

N_{B-C} zo‘riqishini aniqlash uchun III-III kesimi o‘tkazamiz (2.4.3, a- rasmga qarang), chap qismini tashlab yuboramiz va o‘ng qismidagi barcha kuchlarning u o‘qiga proektsiyalarning yig‘indisi ko‘rinishidagi muvozanat tenglamasini yozamiz (2.4.3, g- rasmga qarang):



2.4.3-rasm

$$\Sigma Y^{yuz} = 0; N_{B-C} \sin \alpha - F_3 + V_B = 0; N_{B-C} = (7 - 11) / 0,6 = -6,667 \text{ kH.}$$

Javob: $N_{A-3} = -3,333 \text{ kH}; N_{3-7} = 2 \text{ kH}; N_{B-C} = -6,667 \text{ kH.}$

Mavzu: Statik aniq tekis fermalarni harakatlanuvchi yuklar ta'siriga hisoblash.

Ferma sterjenlari zo'riqishlarining ta'sir chiziqlarini qurish uchun, doimiy yuklardan zo'riqishlarni aniqlashdagi analitik usullarning o'zi qo'llaniladi.

$F=1$ yuki o'zining bosimini uzatuvchi tugunlari bo'lgan tasma, *yuklanuvchi ferma* tasmasi deyiladi. $F=1$ yuki harakatlanuvchi tasma, qo'shimcha punktir chizig'i bilan belgilanadi.

Balkasimon ferma tayanch reaksiyalari ta'sir chiziqlarini qurish uchun statik usuldan foydalanishda, oddiy balka uchun olingan tenglamalarni olamiz, va tabiiyki, ta'sir chiziqlari ham o'shanday bo'ladi.

Fermani shakllantiruvchi sterjenlarning zo'riqishlarini aniqlash uchun, uning yuk tasmasidagi mos paneli bo'yicha kesamiz, kesilgan sterjenlardagi zo'riqishlarni tugundan ketuvchi qilib yo'naltiramiz va ferma qolgan qismining muvozanat shartidan, ularning qiymatini aniqlaymiz. Ta'sir chiziqlarini qurishda yukning ikki holati qaraladi: 1) $F=1$ yuki yuk tasmasining kesilgan panelidan chapda; 2) yuk undan o'ngda.

Birinchi holatda izlanayotgan ta'sir chizig'ining chap tarmog'ini (chap to'g'ri chiziq), ikkinchi holatda esa o'ng tarmog'ini (o'ng to'g'ri chiziq) olamiz.

Uzatuvchi (o'tish, tutashtiruvchi) to'g'ri chizig'ini olish uchun perpendikulyar tushiriladi: chap tarmoqqa kesimga nisbatan birinchi chap tugun, o'ng tarmoqqa esa yuk tasmasining birinchi o'ng tuguni; olingan tugunlar, kesilgan panel chegarasida $F=1$ yuki harakatiga mos kelgan uzatish to'g'ri chizig'i bilan tutashtiriladi.

4.7-misol. 4.2.1,a-rasmda tasvirlangan ferma belgilangan elementlari zo'riqishlarining ta'sir chiziqlari qurilsin. $F=1$ yukining harakati punktir bilan ko'rsatilgan.

R_A va R_B tayanch reaksiyalarining ta'sir chiziqlari 4.2.1, b, v-rasmlarda ko'rsatilgan.

N_{3-4} zo'riqishning ta'sir chizig'i. N_{3-4} zo'riqishning o'zgarish qonuniyatini aniqlash uchun ferma yuk tasmasining uchinchi panelini uning barcha elementlarini kesib o'tuvchi I-I qirqimi bilan ikki bo'lakka kesamiz va ikki holatni qaraymiz (4.2.1, a-rasmga qarang).

1. $F=1$ yuki 3-4 kesilgan panel 3- chap tugunidan chapda harakatlansin. Fermaning chap qismini tashlab yuboramiz. Qolgan o'ng qismining muvozanatini qaraymiz. Izlanuvchi zo'riqishni topish uchun moment nuqtasi usulidan foydalanamiz. 3-4 sterjeni uchun moment nuqtasi 8 tugun bilan mos keladi.

$\Sigma M_8^{yuz} = -R_B \cdot d - N_{3-4} \cdot h = 0$, bundan $N_{3-4} = -R_B d / h - N_{3-4}$ t.ch. chap tarmog'i tenglamasi, bundan ko'rinib turibdiki, u R_B tayanch reaksiyasi qonuniyati bo'yicha o'zgaradi, lekin uning ordinatalarini manfiy son ($-d/h$) ga ko'paytirish kerak. N_{3-4} t.ch. chap tarmog'i faqat $F=1$ yuki harakatlanuvchi bo'lakda haqiqiy bo'ladi, ya'ni 1 tugundan 3 tugungacha (4.2.1, g-rasm).

2. $F=1$ yuki 3-4 kesilgan panel 4-o'ng tugundan o'ngda harakatlansin. Fermaning o'ng qismini tashlab yuboramiz va qolgan chap qismining muvozanatini qaraymiz:

$\Sigma M_B^{uan} = R_A \cdot 3d + N_{3-4} \cdot h = 0$, bundan $N_{3-4} = -R_A \cdot 3d / h - N_{3-4}$ t.ch. o'ng tarmog'ining tenglamasi. Olingan tenglamadan ko'rinadiki, N_{3-4} t.ch. o'ng tarmog'i R_A tayanch reaksiyasi qonuniyati bo'yicha o'zgaradi, ammo uning ordinatalari manfiy ($-3d/h$) qiymatga ko'paytirilishi kerak.

N_{3-4} t.ch. ning o'ng tarmog'i $F=1$ yuki harakatlangan bo'lakda haqiqiy bo'ladi, ya'ni 4-tugundan 6-tugungacha (4.2.1, g-rasm).


Fermaga yuk tugunlar orqali uzatilganda N_{3-4} t.ch., $F=1$ yuki 3-4 tugunlar orasida harakatlanishidan, 3-tugun ostidagi chap tarmoq ordinatasini 4-tugun ostidagi o'ng tarmoq ordinatasi bilan tutashtiruvchi uzatish to'g'ri chizig'i bilan ifodalanadi. Qaralayotgan holda uzatish chizig'i chap tarmoq davomiga ustma-ust tushadi. Ta'sir chiziqlarining chap va o'ng tarmoqlari har doim moment nuqtasi ostida kesishishi kerak (4.2.1,g-rasmga qarang).

SHunga o'xshash N_{8-9} t.ch. va N_{3-8} t.ch, I-I qirqimi yordamida quriladi.

N_{8-9} zo'riqishning ta'sir chizig'i.

1. $F=1$ yuki kesilgan paneldan chapda joylashgan. CHap qismini tashlab yuboramiz. Fermaning o'ng qismi muvozanatini qaraymiz. 8-9 strejeni uchun moment nuqtasi 3-tugun bilan mos tushadi.

$\Sigma M_3^{yH2} = -R_B \cdot 2d + N_{8-9} \cdot h = 0$, bundan $N_{8-9} = R_B \cdot 2d / h - N_{8-9}$ t.ch. chap tarmog'ining tenglamasi (4.2.1, d-rasmga qarang).




4.2.1-rasm

2. $F = 1$ yuki kesilgan paneldan o'ngda joylashgan. O'ng qismini tashlab yuboramiz. Fermaning chap qismi muvozanatini qaraymiz.

$\Sigma M_3^{yan} = R_A \cdot 2d - N_{8-9} \cdot h = 0$ bundan $N_{8-9} = R_A \cdot 2d / h - N_{8-9}$ t.ch. o'ng tarmog'ining tenglamasi (4.2.1, d- rasmga qarang).

Mavzu: Bir pog'onali shprengelli fermalarni hisoblash.

Qurilishda shprengelli fermalar ham keng qo'llaniladi. SHprengel qurilmalarining (qo'shimcha ferma-shprengel) asosiy vazifasi, yuklangan tasma panellarining uzunligini kamaytirish va tugundan tashqari yuklarni,



2.4.10-rasm

asosiy ferma elementlariga uzatishdan iborat. Qo'shimcha fermacha-shprengellar, asosiy ferma tugunlariga tayanadi va faqat qo'shimcha tugunlarga qo'yilgan, mahalliy yuklarga ishlaydi.

2.4.10- rasmda shprengellarning asosiy turlari ko'rsatilgan: 2.4.10,a- rasm – bir qavatli (bir yarusli), 2.4.10, b- rasm –ikki qavatli (ikki yarusli), 2.4.10,v- rasm – uchburchak panjarali.

Ishlash xarakteriga ko'ra, shprenselli ferma sterjenlarini uchta kategoriyaga bo'lish mumkin:


1. Faqat asosiy fermaga tegishli sterjenlar (2.4.10-rasmda ular uzluksiz chiziqlar bilan ko'rsatilgan). SHunday sterjenlar zo'riqishlariga shprensellar ta'sir ko'rsatmaydi. Oldindan yordamchi tugunlardagi mahalliy yukni ikkita qo'shni asosiy tugunlarga ko'chirib, hayolan shprensellarni olib tashlash mumkin.

2. Faqat shprensella tegishli sterjenlar (2.4.10-rasmda ular punktir chiziqlar bilan ko'rsatilgan). Ularning zo'riqishlari, yordamchi tugunlarga qo'yilgan faqat mahalliy yuk ta'siridan, shprensell-fermachaning hisobidan aniqlanadi.

3. Bir vaqtda ham asosiy fermaga, ham shprensella tegishli sterjenlar (2.4.10-rasmda ular ikkita chiziq uzluksiz va punktir bilan ko'rsatilgan). Bunday sterjenlardagi zo'riqishlar asosiy ferma va shprensella elementlarida hosil bo'lgan zo'riqishlarning yig'indisidan topiladi.

SHprenselli fermaning statik hisoblarida yuqorida keltirilgan sterjenlarni uchta kategoriyaga shartli bo'linishlari ba'zi holatlarda e'tiborga olinmasligi mumkin.

2.38-misol. 2.4.11a-rasmda ko'rsatilgan shprenselli fermaning belgilangan elementlaridagi bo'ylama zo'riqishlar aniqlansin.



2.4.11-rasm

Dastlab, 2.4.11, a- rasmda tavsiya etilgan fermaning geometriyasidan keyinchalik bizga kerak bo'ladigan α burchak trigonometrik funksiyalarining qiymatlarini topamiz: $\sin\alpha = 6/10 = 0,6$; $\cos\alpha = 8/10 = 0,8$; $\sin 2\alpha = 2\sin\alpha \cdot \cos\alpha = 0,96$.

Masalani ikkita usulda yechamiz.


Birinchi usulda, berilgan fermanni shprenselli emas, oddiy deb hisoblaymiz. Tugunlar muvozanatining xususiy hollaridan $N_{5-10} = -F_2 = -4$ kN va $N_{5-6} = N_{4-5}$ lar kelib chiqadi. N_{4-5} va N_{4-10} zo'riqishlarini topish uchun I-I kesimini o'tkazamiz (2.4.11,a-rasmga qarang), o'ng qismini tashlab yuboramiz va kesilgan sterjenlarning zo'riqishlarini tugundan ketuvchi qilib yo'naltirib, qolgan chap qismi uchun muvozanat shartini yozamiz.

$$\sum Y^{uan} = 0; -F_1 + R_A - N_{4-10} \cdot \sin\alpha = 0;$$

$$N_{4-10} = (18 - 8) / 0,6 = 16,667 \text{ kN};$$

$$\sum M_8^{uan} = 0; -F_1 \cdot 16 + R_A \cdot 8 + N_{4-5} \cdot 6 = 0;$$

$$N_{4-5} = (8 \cdot 16 - 18 \cdot 8) / 6 = -2,667 \text{ kN}.$$



2.4.12-rasm

8-10 va 6-8 sterjenlaridagi zo'riqishlarni topish uchun, dastlab bizga kerak bo'lmagan 6-10 sterjenidagi zo'riqishni aniqlash zarur bo'ladi. Buning uchun 10-tugunni kesamiz va tugunda uchrashuvchi barcha kuchlarni, topilgan $N_{10-5} = -4$ kN zo'riqishni hisobga olgan holda, 10-4 va 10-8 sterjenlariga perpendikulyar o'qqa proektsiyalarini olamiz (2.4.12- rasm).

$$\sum \zeta = 0; -N_{10-5} \cdot \cos \alpha + N_{10-6} \cdot \cos (90-\alpha) = 0;$$

$$-4 \cdot 0,8 + N_{10-6} \cdot \sin 2 \alpha = 0, \text{ bundan } N_{10-6} = 3,2/0,96 = 3,333 \text{ kN.}$$

N_{10-6} zo'riqishi topilgandan so'ng, 8-10 va 6-8 sterjenlaridagi zo'riqishlarni ham aniqlash mumkin. Buning uchun, ketma-ket II-II va III-III (kesimlarini o'tkazib 2.4.11,a-rasmga qarang) va har safar chap qismini tashlab yuborib, topamiz:

$$\text{II-II kesim : } \sum Y^{yz} = 0; N_{8-10} \cdot \sin \alpha - N_{6-10} \cdot \sin \alpha - F_3 = 0,$$

$$N_{8-10} = (F_3 + N_{6-10} \cdot \sin \alpha) / \sin \alpha = (6 + 3,333 \cdot 0,6) / 0,6 = 13,333 \text{ kN};$$


$$\text{III-III kesim : } \sum Y^{yz} = 0; -N_{6-8} - N_{6-10} \cdot \sin \alpha - F_3 = 0,$$

$$N_{6-8} = (-F_3 - N_{6-10} \cdot \sin \alpha) = (-6 - 3,333 \cdot 0,6) = -8 \text{ kN.}$$

Ikkinchi usulda berilgan fermani shprengelli ferma sifatida hisoblaymiz.

Ajratish usulini qo'llab, shprengelli fermani ikki tuzilma yig'indisi ko'rinishida ifodalaymiz. Ulardan biri, 5-qo'shimcha tugunga qo'yilgan $F_2=4\text{kN}$ yuki bilan yuklangan, uning ta'ciridan 4 va 6-tugunlarida $R_4=R_6=2\text{kN}$ tayanch reaksiyalari hosil bo'luvchi, shprengel fermacha hisoblanadi (2.4.11, b- rasm). Qo'shimcha tugunlarga (maxalliy) yuk qo'yilmagan boshqa ikki shprengel ishlamaganligi sababli, ularni olib tashlash mumkin.

Boshqa ikkinchi tuzilma asosiy ferma bo'lib, u uning asosiy tugunlariga bevosita ta'cir qiluvchi yuklarga hamda teskari yo'nalishda olingan va 4,6- tugunlarga qo'yilgan shprengel-fermacha tayanch reaksiyalari $R_4=R_6=2\text{kN}$ sifatida qabul qilingan qo'shimcha yuklarga, ya'ni $F_4=R_4=2\text{kN}$ va $F_5=F_3+R_6=6+2=8 \text{ Kn}$ ga hisoblanadi (2.4.11,v-rasm). Xuddi birinchi usuldagidek, $N_{5-10} = -F_2 = -4 \text{ kN}$ va $N_{5-6}=N_{4-5}$.



2.4.13-rasm

5-10 sterjeni 2-kategoriya sterjenlariga tegishli.

4-5, 5-6 va 4-10 sterjenlari 3-kategoriya sterjenlariga tegishli, ularning zo'riqishlari shprengel (2.4.11,b- rasmga qarang) va asosiy fermada (2.4.11,v- rasm) hosil bo'lgan zo'riqishlarning algebraik yig'indisi yo'li bilan aniqlanadi.

SHprengeldagi zo'riqishni 4- tugunni qirqib aniqlaymiz (2.4.13-rasm).

$$\sum Y = 0; R_4 - N_{4-10}^{\text{III}} \cdot \sin \alpha = 0; N_{4-10}^{\text{III}} = R_4 / \sin \alpha =$$

$$2/0,6=3,333 \text{ kN};$$

$$\sum X = 0; N_{4-5}^{\text{III}} + N_{4-10}^{\text{III}} \cdot \cos \alpha = 0; N_{4-5}^{\text{III}} = -N_{4-10}^{\text{III}} \cdot \cos \alpha = -3,333 \cdot 0,8 = -2,667 \text{ kN.}$$

Xuddi shu zo'riqishlarni asosiy ferma sterjenlarida aniqlash uchun IV-IV kesim o'tkazamiz, chap qismini tashlab yuboramiz, kesilgan sterjenlardagi zo'riqishlarni tugundan ketuvchi qilib yo'naltirib (tashlab yuborilgan tomonga) o'ng tomoni uchun muvozanat tenglamasini yozamiz (2.4.11,v- rasmga qarang).

$$\sum Y^{yz} = 0; N_{8-4}^{\alpha} \sin \alpha - F_5 = 0, N_{8-4}^{\alpha} = 8/0,6 = 13,333 \text{ kN};$$

$$\sum M_8^{yz} = 0; N_{6-4}^{\alpha} = 0, \text{ bu yerda «sh» va «} \alpha \text{» indeksleri sterjenlarning shprengel-fermachaga yoki asosiy fermaga tegishli ekanligini ko'rsatadi.}$$

3- kategoriya sterjenlari uchun topilgan zo'riqishlarni yig'indisidan oxirgi qiymatni olamiz:

$$N_{5-6} = N_{4-5} = N_{4-5}^{\text{III}} + N_{6-4}^{\alpha} = -2,667 + 0 = -2,667 \text{ kN};$$

$$N_{4-10} = N_{4-10}^{\text{III}} = N_{8-4}^{\alpha} = 3,333 + 13,333 = 16,667 \text{ kN.}$$

8-10 va 6-8 sterjenlari 1- kategoriya sterjenlariga qarashli, ulardagi zo'riqishlar 2.4.11, v-rasm bo'yicha aniqlanadi. 8-10 sterjenining zo'riqishi 8-4 sterjeni zo'riqishi bilan bir xil, ya'ni

$$N_{8-10} = N_{8-4}^{\alpha} = 13,333 \text{ kN.}$$

6-8 sterjendagi zo'riqishni topish uchun V-V kesim o'tkazamiz, chap qismini tashlab yuboramiz, kesilgan sterjenlardagi zo'riqishlarni tashlab yuborilgan tomonga yo'naltirib

kesimning o'ng tomonidagi hamma kuchlarni Y o'qiga proektsiyalarining yig'indisi ko'rinishidagi muvozanat tenglamasini tuzamiz (2.4.11, v- rasmga qarang).

$$\sum Y^{yz} = 0; -F_5 - N_{6-8} = 0, N_{6-8} = -F_5 = -8 \text{ kN}.$$

SHprengelli fermalarning ikki usulda hisoblarini solishtirishdan quyidagi xulosalarni qilish mumkin:

1. kategoriya sterjenlaridagi zo'riqishni odatda, 2.4.11, v- rasm bo'yicha ikkinchi usulda ancha oson aniqlanadi.


2. kategoriya sterjenlaridagi zo'riqishni 2.4.11, b- rasm bo'yicha yana ikkinchi usulda yengil topiladi.

3. kategoriya sterjenlaridagi zo'riqishni 2.4.11, a- rasmdan foydalanib birinchi usulda ancha oson aniqlanadi. Agar ferma panellarida ikki va undan ko'p shprengellar bo'lsa, u holda, avvalo asosiy tugundan tashqari qo'yilgan yukni ferma asosiy tugunlariga taqsimlab, aniqlanuvchi 3-kategoriya sterjeni qatnashmagan shprengelni olib tashlash kerak.

Javob: $N_{5-10} = -4 \text{ kN}$; $N_{5-6} = -2,667 \text{ kN}$; $N_{4-10} = 16,667 \text{ kN}$; $N_{8-10} = 13,333 \text{ kN}$; $N_{6-8} = -8 \text{ kN}$.

Mavzu: Ikki pog'onali shprengelli fermalarni hisoblash.

Tarkibida ikki pog'onali shprengellar mavjud bo'lgan ferma uchun ta'sir chiziqlari qurilsin (4.16- rasm, a).



4.16-рasm

Fermaning bu ustuni sterjenlarning to'rtinchi toifasiga kiradi, ya'ni ustun asosiy fermaga tegishli element bo'lib, uning ta'sir chiziqlari birlik kuch qaysi tasmadan harakatlanishiga qarab turlicha bo'ladi. Berilgan sistemadagi shprengellarni tashlab yuborish yo'li bilan asosiy sistemani hosil qilamiz (4.16-rasm,b). Asosiy sistemaning 5—6 sterjeni uchun ta'sir chiziqlarini chizamiz. Bunda yukning ustki va ostki tasmalar bo'yicha harakati ko'rib chiqiladi. Fermani 1—1 kesim bo'ylab qirqamiz, birlik kuch kesimdan o'ng tomonda harakat qiladi, deb faraz etib, chap qism uchun K nuqtaga nisbatan momentlar

$$\sum M_k = -R_a a_k - N_{56} \cdot (a_k + 2d) = 0,$$

bundan

$$N_{56} = -\frac{R_a \cdot a_k}{a_k + 2d}.$$

Bu qiymatga asosan o'ng to'g'ri chiziqni o'tkazamiz. Moment nuqtasidan foydalanib, chap to'g'ri chiziq o'tkaziladi. Birlik kuch pastki tasmada harakatlansa, uzatuvchi chiziqni o'tkazish uchun chap va o'ng to'g'ri chiziq'larga 5 va 7 tugunlar proektsiyalanadi (4.16-rasm,v). Yuk yuqori tasmada harakatlansa, uzatuvchi chiziqni o'tkazish uchun 4 va 6 tugunlar proektsiyalanadi (4.16- rasm, g). Har ikkala ta'sir chizig'idan ko'rinib turibdiki, yuk uchinchi tugundan chapda va yettinchi tugundan o'ngda harakatlansa, zo'riqishning qiymati harakat sathiga bog'liq bo'lmaydi. Yuk 3' va 5' tugunlarga qo'yilsa (4.16-rasm,a), uning ta'siri ikki pog'onali shprengellar orqali yuqori tugunlarga uzatiladi; go'yoki harakat ustki tasma bo'ylab sodir bo'lgandek tuyuladi. SHu sababga ko'ra, bunday holda N56ning ordinatalari 4.15-rasm,g dan olinadi. Uning izlanaetgan ta'sir chizig'ini qurish uchun aniqlangan ordinatalar yetarli. Mazkur ta'sir chizig'i 4.16- rasm, d da o'z aksini topgan.

Mavzu: Uch sharnirli arkani qo'zg'almas yuklar ta'siriga hisoblash. Uch sharnirli arkalarining tayanch ta'sir chiziqlarini va arkanning ixtiyoriy kesimi uchun M, Q va N larni ta'sir chiziqlarini qurish


Berilgan uch sharnirli arka uchun quyidagilar aniqlash talab etiladi:

1. Doimiy yuklar ta'sirida K_1 va K_2 kesimdagi eguvchi moment M_k , ko'ndalang kuch Q_k va bo'ylama kuch N_k larni qiymati analitik usulda aniqlansin.
2. K_1 kesim uchun eguvchi moment M_{k1} , ko'ndalang kuch Q_{k1} va bo'ylama kuch N_{k1} ni ta'sir chizigi qurilsin.
3. Ta'sir chiziqlar yordamida eguvchi moment M_{k1} , ko'ndalang kuch Q_{k1} va bo'ylama kuch N_{k1} ni qiymatlari hisoblansin.

$\ell = 30 \text{ m}$ $\beta_2 = 0.65$ aylana

Berilgan: $\alpha = 0.45$ $q_1 = 0 \text{ kN/m}$ $\frac{f}{\ell} = 0.34$

$\beta_1 = 0.45$ $q_2 = 4 \text{ kN/m}$ $P = 3 \text{ kN}$



a) Agar arkanning o'q chiziqli parabola shaklida bo'lsa


$$y = \frac{4 \cdot f}{\ell^2} x(\ell - x); \quad \text{tg } \varphi = \frac{dy}{dx}.$$

b) Agar arkanning o'q chiziqli aylana shaklida bo'lsa

$$y = \sqrt{R^2 - \left(\frac{\ell}{2} - x\right)^2} - R + f, \quad \text{bu yerda } R = \frac{f}{2} + \frac{\ell^2}{8 \cdot f}$$

$$\sin \varphi = \frac{\ell - 2x}{2R}; \quad \cos \varphi = \frac{y + R - f}{R}.$$

Arkanning ichki zo`riqish kuchlarini aniqlaymiz.



Vertikal tayanch reaksiya kuchlarini aniqlaymiz. Buning uchun muvozanat tenglamasini tuzamiz.

$$\sum M_B = 0 \quad V_A \cdot 30 - P \cdot 23,25 - q \cdot 16,5 \cdot \frac{16,5}{2} = 0$$

$$V_A = \frac{P \cdot 23,25 + q \cdot 16,5 \cdot \frac{16,5}{2}}{30} = \frac{3 \cdot 23,25 + 4 \cdot 16,5 \cdot \frac{16,5}{2}}{30} = 20,475 \text{ kN}$$

$$\sum M_A = 0 \quad P \cdot 6,5 - V_B \cdot 30 + q \cdot 16,5 \cdot \left(\frac{16,5}{2} + 13,5\right) = 0$$

$$V_B = \frac{P \cdot 6,75 + q \cdot 16,5 \cdot \left(\frac{16,5}{2} + 13,5\right)}{30} = \frac{3 \cdot 6,75 + 4 \cdot 16,5 \cdot \left(\frac{16,5}{2} + 13,5\right)}{30} = 48,525 \text{ kN}$$

Tekshirish: $\sum prY = 0$ $V_A + V_B - P - q \cdot 16,5 = 0$
 $20,475 + 48,525 - 3 - 4 \cdot 16,5 = 0$

Gorizontaly tayanch reaksiya kuchlarini aniqlaymiz.

$$\sum M_C^{chap} = 0 \quad V_A \cdot 15 - H_A \cdot f - P \cdot 8,25 - q \cdot 1,5 \cdot \frac{1,5}{2} = 0$$


$$H_A = \frac{V_A \cdot 15 - P \cdot 8,25 - q \cdot 1,5 \cdot \frac{1,5}{2}}{f} = \frac{20,475 \cdot 15 - 3 \cdot 8,25 - 4 \cdot 1,5 \cdot \frac{1,5}{2}}{10,5} = 26,46 \text{ kN}$$

$$\sum M_C^{o'ng} = 0 \quad -V_B \cdot 15 + H_B \cdot f + q \cdot 15 \cdot \frac{15}{2} = 0$$

$$H_B = \frac{V_B \cdot 15 - q \cdot 15 \cdot \frac{15}{2}}{f} = \frac{48,525 \cdot 15 - 4 \cdot 15 \cdot \frac{15}{2}}{10,5} = 26,46 \text{ kN}$$

Tekshirish: $\sum prX = 0 \quad H_A - H_B = 0$

Endi arkani arka uzunligidagi oddiy balka bilan almashtiramiz.



Balkadagi ko'ndalang kuch M_K^0 larni aniqlaymiz

$$x_A = 0 \quad M_A^0 = 0$$

$$x_1 = 3,375 \text{ m} \quad M_1^0 = V_A \cdot 3,375 = 20,475 \cdot 3,375 = 69,1 \text{ kN} \cdot \text{m}$$

$$\begin{aligned}
x_2 = 6,75 \text{ m} \quad M_2^0 &= V_A \cdot 6,75 = 20,475 \cdot 6,75 = 138,2 \text{ kN} \cdot \text{m} \\
x_3 = 10,125 \text{ m} \quad M_3^0 &= V_A \cdot 10,125 - P \cdot 3,375 = 20,475 \cdot 10,125 - 3 \cdot 3,375 = 197,18 \text{ kN} \cdot \text{m} \\
x_4 = 13,5 \text{ m} \quad M_4^0 &= V_A \cdot 13,5 - P \cdot 6,75 = 20,475 \cdot 13,5 - 3 \cdot 6,75 = 256,16 \text{ kN} \cdot \text{m} \\
x_C = 15 \text{ m} \\
M_C^0 &= V_A \cdot 15 - P \cdot 8,25 - q \cdot \frac{1,5^2}{2} = 20,475 \cdot 15 - 3 \cdot 8,25 - 4 \cdot \frac{1,5^2}{2} = 277,87 \text{ kN} \cdot \text{m} \\
x_5 = 18,75 \text{ m} \\
M_5^0 &= V_A \cdot 18,75 - P \cdot 12 - q \cdot \frac{5,25^2}{2} = 20,475 \cdot 18,75 - 3 \cdot 12 - 4 \cdot \frac{5,25^2}{2} = 292,77 \text{ kN} \cdot \text{m} \\
x_6 = 22,5 \text{ m} \\
M_6^0 &= V_A \cdot 22,5 - P \cdot 15,75 - q \cdot \frac{9^2}{2} = 20,475 \cdot 22,5 - 3 \cdot 15,75 - 4 \cdot \frac{9^2}{2} = 251,43 \text{ kN} \cdot \text{m} \\
x_7 = 26,25 \text{ m} \\
M_7^0 &= V_A \cdot 26,5 - P \cdot 19,5 - q \cdot \frac{12,75^2}{2} = 20,475 \cdot 26,5 - 3 \cdot 19,5 - 4 \cdot \frac{12,75^2}{2} = 153,84 \text{ kN} \cdot \text{m} \\
x_B = 30 \text{ m} \quad M_B^0 &= V_A \cdot 30 - P \cdot 23,25 - q \cdot \frac{16,5^2}{2} = 20,475 \cdot 30 - 3 \cdot 23,25 - 4 \cdot \frac{16,5^2}{2} = 0
\end{aligned}$$

Balkadagi ko'ndalang kuch Q_k^0 larni aniqlaymiz.

$$\begin{aligned}
x_A = 0 \quad Q_A^0 &= V_A = 20,475 \text{ kN} \\
x_1 = 3,375 \text{ m} \quad Q_1^0 &= V_A = 20,475 \text{ kN} \\
x_2 = 6,75 \text{ m} \quad Q_2^{chap} &= V_A = 20,475 \text{ kN}, \quad Q_2^{o'ng} = V_A - P = 20,475 - 3 = 17,475 \text{ kN} \\
x_3 = 10,125 \text{ m} \quad Q_3^0 &= V_A - P = 20,475 - 3 = 17,475 \text{ kN} \\
x_4 = 13,5 \text{ m} \quad Q_4^0 &= V_A - P = 20,475 - 3 = 17,475 \text{ kN} \\
x_C = 15 \text{ m} \quad Q_C^0 &= V_A - P - q \cdot 1,5 = 20,475 - 3 - 4 \cdot 1,5 = 11,475 \text{ kN} \\
x_5 = 18,75 \text{ m} \quad Q_5^0 &= V_A - P - q \cdot 5,25 = 20,475 - 3 - 4 \cdot 5,25 = -3,525 \text{ kN} \\
x_6 = 22,5 \text{ m} \quad Q_6^0 &= V_A - P - q \cdot 9 = 20,475 - 3 - 4 \cdot 9 = -18,525 \text{ kN} \\
x_7 = 26,25 \text{ m} \quad Q_7^0 &= V_A - P - q \cdot 12,75 = 20,475 - 3 - 4 \cdot 12,75 = -33,525 \text{ kN} \\
x_B = 30 \text{ m} \quad Q_B^0 &= V_A - P - q \cdot 16,5 = 20,475 - 3 - 4 \cdot 16,5 = -48,525 \text{ kN}
\end{aligned}$$

Har bir nuqta balandligini aniqlaymiz.

Buning uchun arkaning o'q chiziq tenglamasidan foydalanamiz. arkaning o'q chizig'i aylanadan

$$\text{iborat. } y = \sqrt{R^2 - \left(\frac{\ell}{2} - x\right)^2} - R + f, \quad \text{bu yerda } R = \frac{f}{2} + \frac{\ell^2}{8 \cdot f}$$

$$R = \frac{10,5}{2} + \frac{30^2}{8 \cdot 10,5} = 5,25 + 10,7 = 15,95 \text{ m}$$

$$y = \sqrt{15,95^2 - \left(\frac{30}{2} - x\right)^2} - 15,95 + 10,5 = \sqrt{254,4 - (15 - x)^2} - 5,45,$$

$$y = \sqrt{254,4 - (15 - x)^2} - 5,45$$

$$x_A = 0 \quad y_A = \sqrt{254,4 - (15 - 0)^2} - 5,45 = 5,45 - 5,45 = 0$$

$$x_1 = 3,375 \text{ m} \quad y_1 = \sqrt{254,4 - (15 - 3,375)^2} - 5,45 = 10,9 - 5,45 = 5,45 \text{ m}$$

$$x_2 = 6,75 \text{ m} \quad y_2 = \sqrt{254,4 - (15 - 6,75)^2} - 5,45 = 13,65 - 5,45 = 8,2 \text{ m}$$

$$\begin{aligned}
x_3 &= 10,125 \text{ m} & y_3 &= \sqrt{254.4 - (15 - 10.125)^2} - 5.45 = 15.18 - 5.45 = 9.73 \text{ m} \\
x_4 &= 13,5 \text{ m} & y_4 &= \sqrt{254.4 - (15 - 13.5)^2} - 5.45 = 15.87 - 5.45 = 10.42 \text{ m} \\
x_C &= 15 \text{ m} & y_C &= \sqrt{254.4 - (15 - 15)^2} - 5.45 = 15.94 - 5.45 = 10.5 \text{ m} \\
x_5 &= 18,75 \text{ m} & y_5 &= \sqrt{254.4 - (15 - 18,75)^2} - 5.45 = 15.5 - 5.45 = 10.05 \text{ m} \\
x_6 &= 22,5 \text{ m} & y_6 &= \sqrt{254.4 - (15 - 22.5)^2} - 5.45 = 14.07 - 5.45 = 8.62 \text{ m} \\
x_7 &= 26,25 \text{ m} & y_7 &= \sqrt{254.4 - (15 - 26.25)^2} - 5.45 = 11.3 - 5.45 = 5.85 \text{ m} \\
x_B &= 30 \text{ m} & y_B &= \sqrt{254.4 - (15 - 30)^2} - 5.45 = 5.45 - 5.45 = 0
\end{aligned}$$

sin φ va cos φ larni aniqlaymiz.

$$1. \sin \varphi = \frac{\ell - 2x}{2R} = \frac{30 - 2x}{2 \cdot 15.95} = \frac{2(15 - x)}{2 \cdot 15.95} = \frac{15 - x}{15.95};$$

$$x_A = 0 \quad \sin \varphi_A = \frac{15 - 0}{15.95} = 0.94$$

$$x_1 = 3,375 \text{ m} \quad \sin \varphi_1 = \frac{15 - 3.375}{15.95} = 0.72$$

$$x_2 = 6,75 \text{ m} \quad \sin \varphi_2 = \frac{15 - 6.75}{15.95} = 0.51$$

$$x_3 = 10,125 \text{ m} \quad \sin \varphi_3 = \frac{15 - 10.125}{15.95} = 0.3$$

$$x_4 = 13,5 \text{ m} \quad \sin \varphi_4 = \frac{15 - 13.5}{15.95} = 0.09$$

$$x_C = 15 \text{ m} \quad \sin \varphi_C = \frac{15 - 15}{15.95} = 0$$

$$x_5 = 18,75 \text{ m} \quad \sin \varphi_5 = \frac{15 - 18.75}{15.95} = -0.23$$

$$x_6 = 22,5 \text{ m} \quad \sin \varphi_6 = \frac{15 - 22.5}{15.95} = -0.47$$

$$x_7 = 26,25 \text{ m} \quad \sin \varphi_7 = \frac{15 - 26.25}{15.95} = -0.7$$

$$x_B = 30 \text{ m} \quad \sin \varphi_B = \frac{15 - 30}{15.95} = -0.94$$

$$2. \cos \varphi = \frac{y + R - f}{R} = \frac{y + 15.95 - 10.5}{15.95} = \frac{y + 5.45}{15.95}$$

$$y_A = 0 \quad \cos \varphi_A = \frac{0 + 5.45}{15.95} = 0.34$$

$$y_1 = 5.45 \text{ m} \quad \cos \varphi_1 = \frac{5.45 + 5.45}{15.95} = 0.68$$

$$y_2 = 8,2 \text{ m} \quad \cos \varphi_2 = \frac{8.2 + 5.45}{15.95} = 0.85$$

$$y_3 = 9.73 \text{ m} \quad \cos \varphi_3 = \frac{9.73 + 5.45}{15.95} = 0.95$$

$$y_4 = 10.42 \text{ m} \quad \cos \varphi_4 = \frac{10.42 + 5.45}{15.95} = 0.99$$

$$\begin{aligned}
y_C &= 10.5 \text{ m} & \cos \varphi_C &= \frac{10.5 + 5.45}{15.95} = 1 \\
y_5 &= 10.05 \text{ m} & \cos \varphi_5 &= \frac{10.05 + 5.45}{15.95} = 0.97 \\
y_6 &= 8.62 \text{ m} & \cos \varphi_6 &= \frac{8.62 + 5.45}{15.95} = 0.88 \\
y_7 &= 5.85 \text{ m} & \cos \varphi_7 &= \frac{5.85 + 5.45}{15.95} = 0.7 \\
y_B &= 0 & \cos \varphi_B &= \frac{0 + 5.45}{15.95} = 0.34
\end{aligned}$$

Eguvchi momentni topamiz: $M_K = M_K^0 - H \cdot y_K$

$$\begin{aligned}
M_A &= M_A^0 - H \cdot y_A = 0 - 26,46 \cdot 0 = 0 \\
M_1 &= M_1^0 - H \cdot y_1 = 69.1 - 26,46 \cdot 5.45 = -75.11 \text{ kN} \cdot \text{m} \\
M_2 &= M_2^0 - H \cdot y_2 = 138.2 - 26,46 \cdot 8.2 = -78.77 \text{ kN} \cdot \text{m} \\
M_3 &= M_3^0 - H \cdot y_3 = 197.18 - 26,46 \cdot 9.73 = -60.27 \text{ kN} \cdot \text{m} \\
M_4 &= M_4^0 - H \cdot y_4 = 256.16 - 26,46 \cdot 10.42 = -19.55 \text{ kN} \cdot \text{m} \\
M_C &= M_C^0 - H \cdot y_C = 277.87 - 26,46 \cdot 10.5 = 0 \\
M_5 &= M_5^0 - H \cdot y_5 = 292.77 - 26,46 \cdot 10.05 = 26.85 \text{ kN} \cdot \text{m} \\
M_6 &= M_6^0 - H \cdot y_6 = 251.43 - 26,46 \cdot 8.62 = 23.35 \text{ kN} \cdot \text{m} \\
M_7 &= M_7^0 - H \cdot y_7 = 153.84 - 26,46 \cdot 5.45 = -0.95 \text{ kN} \cdot \text{m} \\
M_B &= M_B^0 - H \cdot y_B = 0 - 26,46 \cdot 0 = 0
\end{aligned}$$

Qirquvchi kuchni topamiz: $Q_K = Q_K^0 \cdot \cos \varphi_K - H \cdot \sin \varphi_K$

$$\begin{aligned}
Q_A &= Q_A^0 \cdot \cos \varphi_A - H \cdot \sin \varphi_A = 20,475 \cdot 0.34 - 26,46 \cdot 0.94 = -17.9 \text{ kN} \\
Q_1 &= Q_1^0 \cdot \cos \varphi_1 - H \cdot \sin \varphi_1 = 20,475 \cdot 0.68 - 26,46 \cdot 0.72 = -5.1 \text{ kN} \\
Q_2^{chap} &= Q_2^0 \cdot \cos \varphi_2 - H \cdot \sin \varphi_2 = 20,475 \cdot 0.85 - 26,46 \cdot 0.51 = -6.1 \text{ kN} \\
Q_2^{o'ng} &= Q_2^0 \cdot \cos \varphi_2 - H \cdot \sin \varphi_2 = 17,475 \cdot 0.85 - 26,46 \cdot 0.51 = 1.36 \text{ kN} \\
Q_3 &= Q_3^0 \cdot \cos \varphi_3 - H \cdot \sin \varphi_3 = 17.475 \cdot 0.95 - 26,46 \cdot 0.3 = 8.67 \text{ kN} \\
Q_4 &= Q_4^0 \cdot \cos \varphi_4 - H \cdot \sin \varphi_4 = 17.475 \cdot 0.99 - 26,46 \cdot 0.09 = 14,9 \text{ kN} \\
Q_C &= Q_C^0 \cdot \cos \varphi_C - H \cdot \sin \varphi_C = 11.475 \cdot 1 - 26,46 \cdot 0 = 11,475 \text{ kN} \\
Q_5 &= Q_5^0 \cdot \cos \varphi_5 - H \cdot \sin \varphi_5 = -3.525 \cdot 0.97 - 26,46 \cdot (-0.23) = 2.68 \text{ kN} \\
Q_6 &= Q_6^0 \cdot \cos \varphi_6 - H \cdot \sin \varphi_6 = -18,525 \cdot 0.88 - 26,46 \cdot (-0.47) = -3.86 \text{ kN} \\
Q_7 &= Q_7^0 \cdot \cos \varphi_7 - H \cdot \sin \varphi_7 = -33.525 \cdot 0.7 - 26,46 \cdot (-0.7) = -4.93 \text{ kN} \\
Q_B &= Q_B^0 \cdot \cos \varphi_B - H \cdot \sin \varphi_B = -48.525 \cdot 0.34 - 26,46 \cdot (-0.94) = 8.58 \text{ kN}
\end{aligned}$$

Bo`ylama kuchni aniqlaymiz: $N_K = Q_K^0 \cdot \sin \varphi_K + H \cdot \cos \varphi_K$


$$\begin{aligned}
N_A &= Q_A^0 \cdot \sin \varphi_A + H \cdot \cos \varphi_A = 20,475 \cdot 0.94 + 26,46 \cdot 0.34 = 28,25 \text{ kN} \\
N_1 &= Q_1^0 \cdot \sin \varphi_1 + H \cdot \cos \varphi_1 = 20,475 \cdot 0.72 + 26,46 \cdot 0.68 = 32,7 \text{ kN} \\
N_2^{chap} &= Q_2^0 \cdot \sin \varphi_2 + H \cdot \cos \varphi_2 = 20,475 \cdot 0.51 + 26,46 \cdot 0.85 = 32.9 \text{ kN} \\
N_2^{o'ng} &= Q_2^0 \cdot \sin \varphi_2 + H \cdot \cos \varphi_2 = 17.475 \cdot 0.51 + 26,46 \cdot 0.85 = 31.4 \text{ kN} \\
N_3 &= Q_3^0 \cdot \sin \varphi_3 + H \cdot \cos \varphi_3 = 17,475 \cdot 0.3 + 26,46 \cdot 0.95 = 30.37 \text{ kN} \\
N_4 &= Q_4^0 \cdot \sin \varphi_4 + H \cdot \cos \varphi_4 = 17,475 \cdot 0.09 + 26,46 \cdot 0.99 = 27.76 \text{ kN} \\
N_C &= Q_C^0 \cdot \sin \varphi_C + H \cdot \cos \varphi_C = 17,475 \cdot 0 + 26,46 \cdot 1 = 26,46 \text{ kN}
\end{aligned}$$

$$N_5 = Q_5^0 \cdot \sin \varphi_5 + H \cdot \cos \varphi_5 = -3.525 \cdot (-0.23) + 26,46 \cdot 0,97 = 26,48 \text{ kN}$$


$$N_6 = Q_6^0 \cdot \sin \varphi_6 + H \cdot \cos \varphi_6 = -18,525 \cdot (-0.47) + 26,46 \cdot 0,88 = 31.98 \text{ kN}$$

$$N_7 = Q_7^0 \cdot \sin \varphi_7 + H \cdot \cos \varphi_7 = -33,525 \cdot (-0,7) + 26,46 \cdot 0,7 = 41,98 \text{ kN}$$

$$N_B = Q_B^0 \cdot \sin \varphi_B + H \cdot \cos \varphi_B = -48.525 \cdot (-0,94) + 26,46 \cdot 0,34 = 54.61 \text{ kN}$$



Berilgan k_2 kesim uchn eguvchi moment ta'sir chizig'i quramiz.



$$y_c = \sqrt{15.95 - (15 - 10.5)^2} - 15.95 + 10.5 = 9.85$$

$$x_k = 10.5$$

$$U_m = \frac{2f \cdot x_k \cdot l}{l \cdot y_k + 2x_k - f} = \frac{2 \cdot 10.5 \cdot 10.5 \cdot 30}{30 \cdot 9.85 + 2 \cdot 10.5 \cdot 10.5} = 12.8$$

$$U_m = 12.8$$

$X_{KN} (X_{KN}) -$	K va N nuqtalari o'zaro gorizontal yaqinlashishi (musbat) yoki uzoqlashishi (manfiy).
$y_{KN} (y_{KN}) -$	K va N nuqtalarini o'zaro vertikal yaqinlashishi (musbat) yoki uzoqlashishi (manfiy).
$\Delta_{KN} -$	KN to'g'ri chizig'i bo'ylab o'zaro yaqinlashishi (musbat) yoki o'zaro uzoqlashishi (manfiy).
$\varphi_{KN} -$	K va N nuqtalarida kesimning o'zaro buralish burchagi.

Plastinka, plita va qobiqlardan tashkil to'gan inshootlar – bir o'lchami qolgan ikki o'lchamiga nisbatan ancha kichik bo'lgan inshootlar plita yoki plastina deyiladi. O'rta tekisligi egri sirtidan iborat plastina qobiq deb ataladi.

Tugun-bir necha stejenlarni birikkan nuqtasi tushiniladi.

Kinematik belgisiga ko'ra:-geometrik o'zgaruvchan, geometrik o'zgarmas statik aniq, geometrik o'zgarmas statik aniqmas.

Geometrik o'zgaruvchan -yetarli bog'lanishga ega bo'lmagan sistemalar.

Statik aniq geometrik o'zgarmas - yetarli bog'lanishga ega bo'lgan sistemalar.

Geometrik o'zgarmas statik aniqmas-ortqcha bog'lanishga ega bo'lgan sistemalar.

Inshootlar elementlarining o'zaro bog'lanishlariga ko'ra qo'yidagicha bo'linadi:

SHarnirli bog'lanishli inshootlar, biker bog'lanishli inshootlar, kombinatsiyali bog'lanishli inshootlar.

Inshoot elementlarining joylashishiga ko'ra: yassi sistemalar, fazoviy sistemalar.

Yassi sistemalar-Inshoot va unga qo'yiladigan yuklar bir tekislikda joylashgan sistemaga aytiladi.

Fazoviy sistemalar-inshootlar elementlari turli tekisliklarda joylashgan sistemaga aytiladi.

Inshootlar tayanch reaksiyalarining yo'nalishiga ko'ra havonli va havonsiz sistemaga bo'linadi.

Vertikal yuklar ta'sirida bo'lgan inshootlarning tayanchlarida vertikal va gorizontal yo'nalishlarda reaksiya kuchlari hosil bo'lsa, u **havonli** sistema deyiladi.

Vertikal yuklar ta'sirida bo'lgan inshootlarning tayanchlarida faqat vertikal yo'nalishda reaksiya kuchlari hosil bo'lsa, u **havonsiz** sistema deyiladi.

Ta'sir qilish vaqtiga ko'ra tashqi yuklar **doimiy** va **vaqtinchalik** yuklarga bo'linadi.

Doimiy yuklar inshootga doim ta'sir qilib turuvchi yuklardir. Masalan, temir yo'l ko'prigining o'z og'irligi doimiy yuk, uning ustidan o'tayotgan o'ezdning og'irligi vaqtinchalik yuk bo'ladi. Vaktinchalik yuklar ham o'z navtida ikkiga bo'linadi. **Qo'zg'almas va harakatdagi yuklar** Qo'zg'almas yuklarga inshootga qo'yilgan asbob- uskunaning og'irligi, harakatdagi yuklarga esa

trans'ort vositalarining ta'siri misol bo'ladi.

Inshootlarning og'irligi. Inshootlarni hisoblayotganda foydali yuklar qatorida **uning o'z og'irligini** hisobga olish shart. Chunki inshootning yuqori qismidagi konstruksiyalarining og'irligi pastdagi konstruksiyalarga ta'sir qiladi. Inshootning og'irligi uning 'oydevoriga tashqi yuk sifatida uzatiladi.

Atmosfera yuklari. Bu yuklarga **qor, shamol, haroratning issiq, yoki sovuqligi** va boshqalar kiradi. Ushbu yuklar mamlakatimizning tabiiy xududi sharoitini va inshoot shaklini g'isobga oluvchi qurilish qoidasi va me'yorlarida berilgan bo'ladi.

Inshootga ta'sir etuvchi barcha yuklar **sirtki va xajmiy yuklarga** bo'linadi. Inshoot sirtining bir qismiga yoki hammasiga ta'sir qilayotgan yuklar **sirtqi yuklar**, inshootning barcha ichki qismlariga ta'sir qilayotgan kuchlar **hajmiy yuklar** deb ataladi. Hajmiy yuklarga inshootning o'z og'irligi misol bo'ladi.

Tashqi yuklar qo'yilishiga, ta'sir etish vaqtiga, ta'sir qilish harakteriga, vazifasiga va boshqa belgilariga qarab bir necha turlarga bo'linadi. Yuklar **to'plangan va yoyilgan, doimiy va vaqtinchalik, kuzg'aluvchan va ko'zg'almas, statik va dinamik** kuchlarga ajraladi.

Tashqi yuklar qo'yilishiga ko'ra **to'plangan va yoyilgan** yuklarga bo'linadi. Inshootning o'z o'lchamlariga nisbatan juda kichik sirtiga ta'sir qiluvchi kuchlar **to'plangan yuklar** deb ataladi. To'plangan yuklar birliklar tizimini SI sistemasi buyicha N (Nyuton)da o'lchanadi. $1\text{kg} \approx 9.81\text{N}$, $1\text{N} \approx 10\text{kg}$. Inshoot sirtining biror qismiga yoki uzunligi buyicha ta'sir qilgan kuchlar **yoyilgan yuklar** deb ataladi. Yoyilgan yuklar intensivlik bilan o'lchanadi. Intensivlik deganda inshootning 1 m^2 yuzasi yoki 1 m uzunligiga to'g'ri kelgan yuk miqdori tushuniladi. Uzunlik buylab yoyilgan yuk N/m bilan, sirt buylab yoyilgan yuk esa N/m^2 bilan o'lchanadi.

Inshootga ta'sir etuvchi barcha yuklar tabiati (harakteri)ga ko'ra tashqi yuklar **statik va dinamik** yuklarga bo'linadi. Agar yuk inshootga asta-sekin qo'yilib, o'z qiymatiga yetkazilsa u **statik yuk** deyiladi. **Dinamik yuk** ta'siridan inshootda tezlanishlar hosil bo'ladi va natijada inertsia kuchlari vujudga keladi. Inertsia kuchlari vaqtning hosilasi hisoblanadi. Statik yuk ta'siridan inshootda hech qanday inertsia kuchi hosil bo'lmaydi.

Birlik kuch – chiziqli ko'chishni to'ishda ko'chish yo'nalishida kesimga qo'yilgan moduli birga teng bo'lgan o'lchamsiz $F=1$ kuch.

Birlik moment – Burchakli ko'chishni to'ishda shu ko'chish yo'nalishida kesimga qo'yilgan o'lchamsiz $M=1$ moment.

Birlik epyura – Birlik kuchdan yoki birlik momentdan qurilgan M_i eguvchi moment epyurasi.

Bikrlik – konstruksiyalar (qurilmalar)ning deformatsiyaga qarshilik qila olish tushuniladi

Bo'ylama kuch – cho'zilgan (siqilgan) sterjinning ko'ndalang kesimlarida (ichki kuch)- N_x – bo'ylama kuch hosil bo'ladi. Bo'ylama kuch ko'ndalang kesimdan bir tomonda qolgan tashqi kuchlarning algebraik yig'indisiga teng.

$$N_x = \sum (F_i)X.$$

Agar kuch kesimdan tashqari tomonga qarab yo'nalsa, unda (musbat) cho'zuvchi, agar kesimga tomon qarab yo'nalsa (manfiy) siquvchi bo'ladi.

Deformatsiya - tashqi kuchlar ta'sirida jism o'lchamlari va shaklining o'zgarishi deformatsiya deb ataladi. Deformatsiyalar chizikli va burchakli bo'ladi.

Dinamik kuchlar – amalda foydalanish sharoitida qurilmalarning Ko'p qismlariga dinamik kuchlar ta'sir qiladi. Bularga inertsia kuchlari, oniy va zarbiy kuchlar kiradi.

Doimiy kuchlar - konstruksiyaga doimiy ta'sir qiluvchi kuchlar, masalan konstruksiyani o'z og'irligi.

Eguvchi moment M_x , kesuvchi kuch Q_u va yoyilgan kuch orasidagi bog'lanishlar.

Kesuvchi kuchdan abtssisa o'qi bo'yicha olingan birinchi hosila yoyilgan kuch jaddaligiga teng.

$$\frac{\partial Q_y}{\partial x} = q$$


Eguvchi momentdan abtsissa o‘qi bo‘yicha olingan birinchi hosila kesuvchi kuchga teng.

$$\frac{dM_x}{dx} = Q$$

Egilish – deb, bo‘ylama o‘qqa perpendikulyar yo‘nalgan yoki shu o‘q orqali o‘tuvchi kuchlar jufti ta‘sirida deformatsiyalanishiga aytiladi. Egilishni umumiy holatlarida to‘sinning ko‘ndalang kesimlarida ichki kuchlardan, M_z - eguvchi moment, Q_z -kesuvchi kuch hosil bo‘ladi.

Eguvchi moment - (M_z) to‘sin kesimini og‘irlik markaziga nisbatan kesimning bir tomonida joylashgan barcha tashqi kuchlar momentlarini algebraik yig‘indisiga teng (7-rasm)

$$M_z = \sum m_0(F_i)$$



7-rasm

Agar to‘sinning qabariq tomoni pastga qarasa, bunday eguvchi moment musbat hisoblanadi, aks holda manfiy hisoblanadi.

Epyura - sterjen, val va balkalarni ichki kuchlarini bir kesimidan keyingi kesimlarigacha ularning o‘qlari bo‘yicha o‘zgarish grafigiga aytiladi. Demak, sterjenni, valni va balkani mustahkamligini ta‘minlashda xavfli kesimni topish zarur, buning uchun N-bo‘ylama, Q-kesuvchi kuch, M –eguvchi va T –burovchi moment epyuralari chiziladi. Hisoblar natijasida hamda normal kuchlanish σ va ko‘chishlar δ epyuralari yasaladi

Ichki kuchlar – tashqi kuchlar ta‘siridan to‘sin (sterjen) deformatsiyalanadi va uning kesimlarida ichki kuchlar hosil bo‘ladi. Deformatsiya natijasida to‘sinning kesimidagi zarrachalar bir-biridan qochishga o‘zaro yaqinlashishga intiladi, ana shu jarayonda hosil bo‘lgan reaksiya kuchlari zarrachalar muvozanatini saqlaydi. Zarrachalar muvozanatini saqlovchi reatssiya kuchlari ichki kuchlar yoki zo‘riqish kuchlari deyiladi.

Kansol balka – bir tomoni bo‘sh, ikkinchi tomoni maxkam qistirilgan to‘sin.

Ko‘p quloqli to‘sin bir necha tayanchda yotgan statik aniqmas to‘sin. Bunday to‘sinning tayanchlardan biri qo‘zg‘almas yoki qisilgan, boshqa tayanchlari sharnirli qo‘zg‘aluvchan bo‘lib, bir sathda joylashgan. To‘sinning bikrligi butun uzunligi bo‘yicha o‘zgarmas.

Kanonik tenglama – kuchlar ta‘sirining bir – biriga halal bermaslik shartidan foydalanib bosh ko‘chishlar Δ va yordamchi ko‘chishlar δ ni ma‘lum qonun asosida tuzilgan tenglamaga aytiladi.

Kesish usuli – materiallar qarshiligida ichki kuchlarni aniqlash uchun qo‘llaniladi. Uni tartibi quyidagicha: a) muvozanatda turgan jism bir tekislik bilan xayolan ikki qismga bo‘linadi; b) qismlardan biri shartli ravishda tashlab yuboriladi; d) tashlab yuborilgan qismning qolgan qismga ta‘sirini ichki kuchlar bilan almashtiriladi; e) qolgan qism uchun tuzilgan statik tenglamalarning biridan ichki kuchlar to‘iladi.

Kuch usuli – statik aniqmas sistemalarni umumiy yechish usuli. Bu usul bo‘yicha berilgan statik aniqmas sistema “ortiqcha” noma‘lumlarni tashlash yo‘li bilan statik aniq sistemaga aylantiriladi va ularni ta‘siri ortiqcha noma‘lum kuchlar va momentlar bilan almashtiriladi.

Statik aniqmas sistemalarda, xususan ramalarni hisoblaganda ortiqcha noma'lumlarni to'ish uchun qo'shimcha tenglamalar sifatida kuch usulining kanonik tenglamalari yoziladi.

$$\delta_{11}x_1 + \delta_{12}x_2 + \delta_{13}x_3 + \Delta_{1p} = 0$$

$$\delta_{21}x_1 + \delta_{22}x_2 + \delta_{23}x_3 + \Delta_{2p} = 0$$

$$\delta_{31}x_1 + \delta_{32}x_2 + \delta_{33}x_3 + \Delta_{3p} = 0$$

Bu tenglamalarning koeffisienti va ozod sonlari Vereshagin formulasidan aniqlanadi.

Ko'chishlar – jism deformatsiyalanganda uning qismlari va nuqtalari o'zining joyini o'zgartirib tekislik yoki fazoda ko'chadilar. Ko'chishlar chiziqli δ va burchakli θ bo'ladilar.

Ko'ndalang (kesuvchi) kuch – to'sinning qoldirilgan qismini tashlab yuborilgan qismiga nisbatan kesuvchi kuch, ko'ndalang kuch (Q_y) deb ataladi. Ko'ndalang kuch Q_y kesimdan bir tomonda qolgan barcha tashqi kuchlarning to'sin o'qiga normal proeksiyalari yig'indisiga teng.

$$Q_y = \sum (F_i)_y.$$

Agar to'sinning chap qismi o'ng qismiga nisbatan yuqoriga surilsa yoki to'sinning o'ng qismi chap qismiga nisbatan pastga surilsa, ko'ndalang kuch musbat, aks holda manfiy hisoblanadi.

Ko'chishlarning o'zaro aloqadorlik teoremasi – Maksvel teoremasi.

$$\delta_{12} = \delta_{21}.$$

Ikkinchi birlik kuch ta'siridan birinchi birlik kuch yo'nalishida hosil bo'lgan ko'chish, birinchi birlik kuch ta'siridan ikkinchi birlik kuch yo'nalishida hosil bo'lgan ko'chishga tengdir.

O.Mor integrali. O.Mor mashhur nemis olimi bo'lgan.

$$\Delta = \sum \int_0^l \frac{M_i \cdot M_k}{EI_z} dx$$

Bu Mor formulasi bo'lib, har qanday elastik (chiziqli deformatsiyalangan) sistemaning istalgan nuqtasidagi umumlashgan ko'chishlarini aniqlaydi.

Mustahkamlik – konstruksiya qismlarining yemirilmasdan turishiga qarshilik ko'rsata olish qobiliyati.

Mustahkamlik nazariyalari – materialni xavfli holatini aniqlovchi asosiy omil.

Ortiqcha noma'lum reaksiya kuchlari – berilgan elastik sistema ortiqcha bog'lanishdan ozod qilinadi. Yo'qotilgan bog'lanishlar ortiqcha noma'lum reaksiya kuchlari bilan almashtiriladi.

Statik kuchlar - Jismga asta-sekin qo'yiladigan, jismni tebratmagan holda noldan eng katta qiymatigacha o'sib borib, keyin o'zgarmay qoladigan kuchlar

Statik aniq sistemalar - noma'lum reaksiya kuchlarini statik tenglamaridan to'ladigan sistemalar.

Statik aniqmas sistemalar - zo'riqish yoki reaksiya kuchlarini yolg'iz statikaning muvozanat tenglamalari yordamida to'ib bo'lmaydigan sistemalar.

Statik moment- ma'lum o'qqa nisbatan shakl yuzasining statik momenti deb elementar yuzachalardaning shu o'qqacha masofa ko'paytmalari yig'indisiga aytiladi.

$$S_y = \int_A z \cdot dA$$

$$S_z = \int_A y \cdot dA$$

To'sin salqiligi – kesim og'irlik markazining to'sin o'qiga perpendikulyar yo'nalishidagi ko'chishi.

Tayanch reaksiyalari - tayanchlarni tashlab ularni reaksiyalar bilan almashtirilgan kuchlar.

To'plangan kuch – konstruksiyaning juda kichik yuzasiga ya'ni nuqtaga ta'sir qiladigan kuchlar. Ular n'yutonlarda (N) da o'lchanadi.

To'plangan moment – kuchlarni sxemalashtirganda to'plangan momentlar, kuchlar jufti m paydo bo'ladi, ular metrga n'yutonlarda (N.M) da o'lchanadi.

Ustivorlik – deformatsiyalanadigan jism yuk ostida o'zini dastlabki muvozanatdagi shaklini saqlash xususiyatiga ustivorlik (turg'un) deb ataladi.

Uch moment tenglamasi – yordamida ko'p tayanchli statik aniqmas sistemalarni hisoblashda ishlatiladi:

$$M_{n-1} \cdot l_n + 2 M_n (l_n + l_{n+1}) + M_{n+1} l_{n+1} = -6EJ(\theta_{cn} + \theta_{Bn+1})$$

Uch moment tenglamalar soni qirilmagan to'sinning statik aniqmaslik darajasiga bog'liq va uning oraliq tayanchlari soniga teng. Tenglamalar sistemasini yechib, noma'lum tayanch momentlarini to'amiz. So'ngra har qaysi qulochni berilgan yuk va tayanch momentlari bilan yuklab, ularni alohida-alohida hisoblaymiz.

Vereshchagin usuli – «epyuralarni ko'paytirish usuli» yoki Vereshchagin usuli deb ataladigan grafoanalitik usulidan foydalanilganda Mor integralini hisoblash ancha soddalashadi

$$\Delta = \sum \frac{\varpi_k \cdot M_c^0}{E \cdot I_z}$$

bunda: ϖ - har bir uchastkaga to'g'ri kelgan tashqi kuch ta'siridan hosil bo'lgan eguvchi moment epyurasining yuzi.

M_c^0 - birlik kuch epyurasining tashqi kuchlardan hosil bo'lgan eguvchi moment epyurasi og'irlik markaziga to'g'ri kelgan ordinatasi.

SHarnirli qo'zg'almas tayanch – bunday tayanchlar balka uchining hech qanday chiziqli ko'chishiga yo'l qo'ymaydi, faqat to'sining tiralgan nuqtasiga xos kesimning burilishiga imkon beradi.

SHarnirli qo'zg'aluvchan tayanch – bunday tayanchlar to'sin uchining gorizonta ko'chishiga va to'sin ko'ndalang kesimining burilishiga qarshilik ko'rsatmaydi.

Hisoblash tarhi- inshootning soddalashtirilgan tasviri bo'lib, unda yuk ta'siridagi inshootning asosiy ko'rsatkichlari mujassamlashtirilgan bo'ladi. Ularda sterjenlar-o'qlar bilan, plastinkalar o'rta sirtlar bilan, real tayanchlar ideal tayanchlar bilan almashtiriladi.

Sterjen-ko'ngdalang kesim o'lchamlari uzunligiga nisbatan ancha kichik bo'lgan elementga aytiladi.

Tayanch-inshootning poydevor yoki zamin bilan birikkan qismiga aytiladi.

Intensivlik- uzunlik birligiga to'g'ri keladigan yuk miqdori tushuniladi va u kN/m bilan o'lchanadi.

Sterjenli sistemalar- alohida sterjenlarning tugunlarda o'zaro biriktirish yo'li bilan hosil qilingan qurilmalarga aytiladi.

Geometrik o'zgarmas sterjenlar-o'zining geometrik shaklini alohida sterjenlarning deformatsiyalanishii hisobiga o'zgartiradigan sistemalarga aytiladi. Uchburchak sistema eng oddiy geometrik o'zgarmas sistema hisoblanadi.

O'niy o'zgaruvchan sistemalar- bir o'q ustida yotuvchi ikki sterjen va uch sharnirdan tashkil to'gan sistemalarga aytiladi.

Erkinlik darajasi- Nuqta yoki sistemaning holatini belgilovchi geometrik parametrlar soni erkinlik darajasi deyiladi. Sterjenli sistemaning erkinlik darajasini aniqlaydigan formula quyidagicha ifodalanadi: $W = 3D - 2III - C$

Bog‘lanish- Disk yoki sterjenning erkinlik darajasiga chek qo‘yadigan har qanday qurilmaga aytiladi. SHarnirlar va tayanch sterjenlari bog‘lanish hisoblanadi.

Umumlashgan epyura-Zo‘riqishlarni aniqlangan qiymatlarini yagona masshtabda bir o‘q ustiga joylashtiriladi va tutash chiziq bilan birlashtirilishidan hosil bo‘lgan tasvirdir.

Ta’sir chiziqlar- Inshoot bo‘ylab birlik kuch ($P = 1$) harakatlanganda, inshoot qismlarida kuch omillarining o‘zgarishini ifodalovchi grafik. Ta’sir chiziqlarni chizishning statik va kinematik usullari mavjud.

Ko‘p oraliqli statik aniq balkalar- bir oraliqli konsolli balkalarni sharnirlar vositasida birlashtirish yo‘li bilan hosil qilinadi. Ko‘p oraliqli sharnirli balkalar yondosh oraliqlarni yo‘ishda qo‘llaniladi.

Ferma-bikr tugunlarni sharnirlar bilan almashtirilganda, o‘zining geometrik o‘zgarmasligini saqlab qoluvchi sterjenli sistemalarga aytiladi. Fermalar balkalarning takomillashgan bir ko‘rinishi bo‘lib, balkalar o‘taydigan vazifani bajaradi.

Yassi fermalar- fermaning barcha sterjenlari yoki ularning o‘zlari bir tekislikda joylashsa, teiks yoki yassi fermalar deb, bir tekislikda joylashmasa fazoviy fermalar deyiladi.

Uch sharnirli sistema-uch diskni uch sharnir yordamida birlashtirish tufayli hosil bo‘lgan sistemaga aytiladi. Bunda uchinchi disk sifanida yer qabul qilinadi.

Kerkili sistema-uch sharnirli sistema tayanchlarida vujudga keladigan gorizontaal bosim va unga qarshi reaksiya kerki nomi bilan yuritiladi. Sistemaning o‘zi esa kerkili sistema deyiladi.

Maqbul o‘qli arka- eguvchi momentlari nolga teng bo‘lgan arka o‘qi maqbul o‘q deyiladi. Arkaning o‘zi esa maqbul o‘qli arka deyiladi.

Klapeyron teoremasi- Tashqi kuchlar bajargan haqiqiy ish kuch bilan shu kuch vujudga keltirgan ko‘chishning ko‘paytmasining yarmiga teng.

$$A = \frac{1}{2} \sum P_i \Delta_i$$

Asosiy sistema-statik aniq va geometrik o‘zgarmas bo‘lib, u berilgan sistemadagi ortiqcha bog‘lanishlarni tashlab yuborish yo‘li bilan hosil qilinadi. Har qanday statik aniqmas sistemani yechishda asosiy sistema tanlab olinadi.

Bosh ko‘chishlar- bir xil indeksli birlik ko‘chishlar (δ_{11}, δ_{22}) ning ishoralari hamisha musbat bo‘ladi. SHu sababli ular g‘ech qachon nolga aylanmaydi va hamma vaqt tenglamada ishtirok etadi.

Ikkinchi darajali ko‘chishlar-turli indeksli ko‘chishlar (δ_{12}, δ_{21}) esa musbat va manfiy ishoralarga ega bo‘lishi va demak, nol bo‘lishi ham mumkin. SHuning uchun ular ikkinchi darajali ko‘chishlar deyiladi.

Deformatsion tekshirish- ortiqcha noma’lumlarni aniqlashda yo‘l qo‘yilgan xatolarni payqash imkonini beradi. Hisob natijalarini deformatsion tekshirishda asosiy sistemalarga qurilgan birlik epyuralar ramaning tugal M epyurasi bilan navbatma-navbat ko‘paytiriladi. Agar ortiqcha noma’lumlar to‘g‘ri aniqlanib, epyura to‘g‘ri qurilgan bo‘lsa, bunday ko‘paytma nolga teng bo‘ladi.

Uzluksiz balka- bir necha oraliqlardan tashkil to‘gan va chekka tayanchlardan biri sharnirli qo‘zg‘almas yoki bikr bo‘lgan balkaga aytiladi. Bunday balkalarning statik aniqmaslik darajasi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$n = 2III + C - 3D$$

Qurilish mexanikasi- konstruksiya va inshootlarning mustahkamligi, bikrligi va ustivorligini g'isoblash tamoyillari hamda metodlari to'g'risidagi fandir.

Tekshirish hisobi- Agar inshoot elementlarining materiali va o'lchamlari ma'lum bo'lsa, aniqlangan ichki zo'riqish kuchlari va deformatsiyalar miqdoriga ko'ra har bir element va butun inshootning mustahkamligi, bikrligi va ustivorligini tekshirish mumkin. Bunday hisoblash usuli tekshirish hisobi deyiladi.

Loyihalash hisobi- Agar inshoot elementlarining o'lchamlari noma'lum bo'lsa, aniqlangan ichki zo'riqish kuchlari va deformatsiyalar miqdoriga ko'ra har bir element va butun inshootning mustahkamligi, bikrligi va ustivorligini tekshirish mumkin. Bunday hisoblash usuli loyihalash hisobi deyiladi

Massiv- Massivning uzunligi va ko'ngdalang kesim o'lchamlari bir xil bo'ladi. Massiv inshootlar jumlasiga to'g'onlar, tirgak devorlar kiradi.

Rama- bir-biriga biki qilib birlashtirilgan sterjenlardan tashkil to'gan sistemaga aytiladi.

Kombinatsiyalashgan inshootlar- bir –biri bilan g'ikr va sharnirli birikma orqali bog'langan elementlardan tuzilgan inshootga aytiladi.

Qistirib mahkamlangan tayanch-bunday tayanchlar kinematik nuqtai nazardan chiziqli va burchakli ko'chishlarga qarshilik ko'rsatadi. Qistirib mahkamlangan tayanchlarda statik jihatdan vertikal va gorizontal tuzuvchilarga ajraluvchi reaksiya kuchi bilan reaktiv moment hosil bo'ladi.

Ekvivalent yuk- Inshoot ustidagi harakatlanuvchi kuchlar sistemasi noqulay vaziyatda turgan vaqtidagi ekstremal zo'riqishga yetng bo'lgan zo'riqish hosil qiluvchi tekis taralgan yuk ekvivalent yuk deyiladi.

Shprengelli fermalar- agar ferma belbog'lari tugunlarining orasidagi masofa katta bo'lsa, belbog'ning har bir sterjenini mustaqil fermachalar bilan almashtirish mumkin. Bunday fermalar Shprengelli fermalar deyiladi.

Statik aniqmas sterjenli sistemalar- elemenlarida tashqi kuchlardan hosil bo'ladigan zo'riqish va reaksiya kuchlarini faqatgina statikaning muvozanat tenglamalari yordamida aniqlab bo'lmaydigan sistemalariga aytiladi. Statik aniqmas sistemaning ortiqcha bog'loqchilar soni shu sistemaning aniqmaslik darajasi deyiladi.

Tutash balkalarning statik aniqmaslik darajasi quyidagi formula orqali aniqlanadi:
 $C_A = 2III + C_T - 3D$, $C_A = n - 1$, $S_A = S_T - 3$

Erkin ramalar- Tugunlari burchakli va chiziqli ko'chishlarga ega bo'lgan ramalar

Statik noaniq sistemalar quyidagi xossalarga ega: Bunday sistemalar o'ziga xos statik aniq sistemalariga nisbatan tejamkor bo'ladi.

Bunday sistemalarda biror ortiqcha bog'lanishning shikastlanishi inshootning butunlay ishdan chiqishiga olib kelmaydi. Bunday sistemalar statik aniq sistemalariga nisbatan bikrligi yuqoriroq bo'ladi. Bunday sistemalarda hororatni o'zgarishi natijasida qo'shimcha zo'riqishlar aydo bo'ladi.

Moment fokusi-tutash balkaning yuklanmagan prolyotlaridagi tayanch momentlarining miqdori yuklangan prolyotdan boshlab kamayib boradi va moment chizig'i har bir prolyotni ma'lum nuqtada kesib o'tadi hamda bu nuqtada eguvchi moment nolga teng bo'ladi. Yuklanmagan prolyot dagi eguvchi moment $M(x)$ nolga teng bo'lgan nuqta moment fokusi deyiladi.

Ikki sharnirli arka-ikki uchi sharnir vositasida tayanchlarga tiralgan egri brus bo'lib, u bir marta statik aniqmas sistemadir. Statik aniqmas arkalar temir yo'llar va oddiy ko'priklarning konstruksiyalari sifatida qo'llaniladi.

Erkinmas ramalar- Bunday ramalar tugunlarining chiziqli ko'chishi nolga teng bo'ladi ($n_\delta = 0$). Erkinmas ramalarning kinematik aniqmaslik darajasi ular tugunlarining burchakli ko'chishlari soniga teng bo'ladi.

Ko'chishlar usulining kanonik tenglamasi-

$$r_{11}Z_1 + r_{12}Z_2 + r_{13}Z_3 + R_{1p} = 0;$$

$$r_{21}Z_1 + r_{22}Z_2 + r_{23}Z_3 + R_{2p} = 0;$$

$$r_{31}Z_1 + r_{32}Z_2 + r_{33}Z_3 + R_{3p} = 0;$$

Ekvivalent sistema – asosiy sistemaga tashqi yuklarni va olib tashlangan ortiqcha bog'g'lanishlarda hosil bo'lgan zo'riqish kuchlarini qo'yib hosil qilingan sistemaga aytiladi.

Ekstsensivitet – kuch qo'yilgan nuqta qutbdan kesimning og'irlik markazigacha bo'lgan masofa.

Ichki kuchlarni ishi – jism deformatsiyalanish jarayonida ichki elastik kuchlar ish bajaradi. Ichki kuchlarni ishlarini ishorasi manfiy, chunki ular ko'chishlarga teskari yo'nalgan. Bo'ylama kuch N doimiy, elastiklik moduli E, ko'ndalang kesim yuzasi A bo'lsa, ichki kuchlarning ishi

$$W_f = \frac{N^2 \cdot l}{2EA} - \text{ga teng.}$$

Ishlarni o'zaro aloqadorlik teoremasi (Betti). Birinchi holatdagi kuchlarning ikkinchi holatdagi ko'chishlarga sarflangan ishi ikkinchi holatdagi kuchlarning birinchi holatdagi ko'chishlarga sarflangan ishiga tengdir.

$$F_1 \cdot \Delta_{12} = F_2 \cdot \Delta_{21}$$

Fazoviy fermalar- geometrik o'zgarimas bo'lganda bitta jismni tashkil qilgan uchun u bir-biriga bog'liqmas holda o'zgara oladigan 6 ta geometrik parametrga (uchta kooordinatalar o'qi atrofida burilish va shu o'qlar yo'nalishida ko'chish) imkoniy ega bo'ladi. Bunda fazoviy fermaning erkinlik darajalar soni 6 ga tengdir.

Statik aniqmas sistemalarni statik tekshirish- Ramadan tugunlar qirqib olinib, qolgan qismining unga ta'siri tegishli zo'riqishlar M, Q, N bilan almashtiriladi-da. Muvozanat tenglamasi tuziladi.

$$\sum X = 0, \quad \sum Y = 0, \quad \sum M = 0$$

Balka-ikki tomonitayanchlar bilan mahkamlangan sterjenga aytiladi.

Murakkab sharnir- Ikki diskni birlashtiruvchi sharnir oddiy, ikkilan ortiq diskni birlashtiruvchi sharnir esa murakkab sharnir deyiladi. Murakkab sharnirda sharnirlar soni disklar sonidan bitta kam bo'ladi.

$$SH=D-1$$

prolyot- ikki tayanch orasidagi masofa.

Burchakli bog'lanishlar-rama tugunlarining burchakli ko'chishlariga qarshilik ko'rsatuvchi bog'lanishlarga aytiladi.


CHiziqli bog'lanishlar-rama tugunlarini ko'chishlariga qarshilik ko'rsatuvchi bog'lanishlarga aytiladi.

Foydali yuklar- inshoot qabul qilishi lozim bo'lgan yuklar. Bularga misol qilib odamlar, asbob-uskunalar, avtomobillar, stanoklarni kiritish mumkin.

Keyslar banki





1-keys

Hisoblamasdan uchala moment epyuralaridan to'g'risi ko'rsatilsin va nima uchun qolganlari noto'g'riligi tushuntirilsin.




2-keys

Hisoblamasdan uchala moment epyuralaridan to'g'risi ko'rsatilsin va nima uchun qolganlari noto'g'riligi tushuntirilsin.



Hisoblamasdan uchala moment epyuralaridan to'g'risi ko'rsatilsin va nima uchun qolganlari noto'g'riligi tushuntirilsin.



4. ILOVALAR

4.1. FAN DASTURI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI



FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	700 000 – Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari
Ta'lim sohasi:	730 000 – Arxitektura va qurilish
Ta'lim yo'nalishi:	60730800 – Yo'l muhandisligi

NAMANGAN 2024

Fan/modul kodi QMK15(6)12	O'quv yili 2024-2025	Semestr 5, 6	Kreditlar 5-sem- 6; 6-sem - 6	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 5-sem- 6; 6-sem - 6	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Qurilish mexanikasi va konstruksiyalari	44+46=90 46+44=90	90 90	180 180
2.	<p style="text-align: center;">I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanning o'qitilishidan maqsad - talabalarga inshoot elementlarida, konstruksiyalarida hosil bo'ladigan zo'riqishlar va deformatsiyalarni aniqlash usullarini, hamda mustahkamlikka, bikirlikka va ustivorlikka mazkur konstruksiyalarni hisoblash usullari hamda bino, inshootlar konstruksiyalarini loyihalash va hisoblash asoslari va ularning konstruktiv elementlari bo'yicha nazariy va amaliy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi - talabalarda inshootlarni loyihalash jarayonida asosiy masalalardan biri hisoblangan loyiha-konstruktorlik hisoblari hamda talabalarga binolarni qurish va barpo etishda bino loyihasidan foydalana olishni, qurilish amaliyotida bino va inshootlar konstruksiyalarini iqtisodiy jihatdan samarali yechim variantini topa olishni o'rgatishdan iborat.</p> <p style="text-align: center;">II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p style="text-align: center;">II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p style="text-align: center;">5-semestr (Qurilish mexanikasi)</p> <p>1-mavzu. Qurilish mexanikasi faniga kirish Qurilish mexanikasi fanining mohiyati va usullari. Qurilish mexanikasi fanining qisqacha rivojlanish tarixi va boshqa fanlar bilan uzviy bog'liqligi.</p> <p>2-mavzu. Inshootlar hisoblash sxemalari va ularning turlari Inshootlar hisoblash sxemalarini tanlash. Inshootlar klassifikatsiyasi. Inshootlarga ta'sir etuvchi yuklar va ularning klassifikatsiyasi.</p> <p>3-mavzu. Inshootlar hisoblash sxemalarining kinematik analizi Tayanchlar va ularning turlari. Geometrik o'zgarimas, o'zgaruvchan va oniy o'zgaruvchan sistemalar. Sistemalarning erkinlik darajasi. Sterjenli sistemalarning geometrik o'zgarimasligining zaruriy sharti.</p> <p>4-mavzu. Oddiy va konsol balkalarda zo'riqishlarning ta'sir chiziqlari Harakatlanuvchi yuklar va ta'sir chiziqlari haqida tushuncha. Oddiy va</p>			

konsol balkalarda zo'riqishlarning ta'sir chiziqlari. Ta'sir chiziqlari yordamida zo'riqishlarni aniqlash.

5-mavzu. Ko'p oraliqli statik aniq balkalarni qo'zg'almas yuklar ta'siriga hisoblash

Umumiy tushunchalar. Ko'p oraliqli statik aniq balkalar uchun qavatlararo sxemalarini chizish. Ko'p oraliqli balkalar uchun eguvchi moment va ko'ndalang kuchlar epyuralarini chizish.

6-mavzu. Ko'p oraliqli statik aniq balkalarni harakatlanuvchi yuklar ta'siriga hisoblash

Ko'p oraliqli balka zo'riqishlarining ta'sir chiziqlarini chizish. Ko'p oraliqli balka zo'riqishlarini ta'sir chiziqlari yordamida aniqlash.

7-mavzu. Statik aniq tekis fermalarni qo'zg'almas yuklar ta'siriga hisoblash

Fermalar haqida umumiy tushuncha. Fermalarning turlari. Fermalarni hisoblash usullari. Tugun ajratish, moment nuqta va proektsiyalash usullari. Ferma sterjenlaridagi zo'riqishlarni aniqlash.

8-mavzu. Statik aniq tekis fermalarni harakatlanuvchi yuklar ta'siriga hisoblash

Ferma sterjenlari zo'riqishlari uchun ta'sir chiziqlarini chizish. Ta'sir chiziqlari orqali sterjenlardagi zo'riqish kuchlarini aniqlash.

9-mavzu. Shprengelli fermalarni hisoblash

Shprengelli fermalar to'g'risida tushunchalar. SHprengelli ferma sterjenlarini toifalari. SHprengelli fermalarni harakatlanuvchi yuklar ta'siriga hisoblash.

10-mavzu. Uch sharnirli arkalarni qo'zg'almas va harakatlanuvchi yuklar ta'siriga hisoblash

Uch sharnirli sistemalar to'g'risida umumiy tushunchalar. Uch sharnirli arkalarni qo'zg'almas yuklar ta'siriga hisoblash. Uch sharnirli arka zo'riqish kuchlarining ta'sir chiziqlari.

11-mavzu. Elastik sistemalardagi ko'chishlarni aniqlash

Elastik sistemalarda ko'chishlar. Qurilish mexanikasining ba'zi asosiy teoremlari. Ko'chishlarni aniqlash formulalari.

12-mavzu. Statik noaniq sistemalar va ularning xususiyatlari

Statik noaniq sistemalar to'g'risida umumiy tushunchalar. Statik noaniq sistemalarning xususiyatlari. Statik noaniq sistemalarni hisoblash usullari. Statik noaniqlik darajasi.

13-mavzu. Statik noaniq ramalarni kuchlar usulida hisoblash

Kuchlar usulining mohiyati va noma'lumlari. Kuchlar usulining asosiy

sistemasi. Kuchlar usulining kanonik tenglamalari. Kuchlar usulining kanonik tenglama koeffitsientlari va ozod hadlarini aniqlash.

14-mavzu. Kuchlar usulining kanonik tenglama koeffitsientlari va ozod hadlarini tekshirish

Natijaviy eguvchi moment, ko'ndalang va bo'ylama kuchlarni aniqlash.

15-mavzu. Simmetrik ramalarni kuchlar usulida hisoblash

Umumiy tushunchalar. Statik noaniq simmetrik ramalarni simmetrikligidan foydalanish. Simmetrik rama noma'lumlarini guruhlash usuli. Simmetrik ramaga quyilgan tashqi yuklarni simmetrik va nosimmetrik yuklarga ajratish usuli.

16-mavzu. Statik noaniq arkalarni hisoblash

Umumiy tushunchalar. Ikki sharnirli arkalarni kuchlar usulida hisoblash. Sharnirsiz arkalarni kuchlar usulida hisoblash.

17-mavzu. Statik noaniq fermalarni hisoblash

Statik noaniq fermalar to'g'risida umumiy tushunchalar. Statik noaniq fermalarni hisoblash usullari.

18-mavzu. Uzluksiz balkalarni hisoblash

Uzluksiz balkalar to'g'risida umumiy tushunchalar. Uzluksiz balkalar hisobiga kuchlar usulining tadbig'i. Asosiy sistemani tanlash. Uch moment tenglamasi. Uzluksiz balkalardagi eguvchi moment, ko'ndalang kuch va tayanch reaksiyalarini aniqlash.

19-mavzu. Uzluksiz balkalarni hisoblashning moment fokuslar usuli

Uzluksiz balkalarni hisoblashning moment fokuslar usuli hakida tushuncha. Chap va o'ng fokuslar nisbatlarini aniqlash. Uzluksiz balka yuklangan oraliq'ining tayanch momentlarini aniqlash. Fokus nisbatlaridan foydalanib tayanch momentlarini aniqlash.

20-mavzu. Statik noaniq ramalarni ko'chishlar usulida hisoblash

Ko'chishlar usulining mohiyati va noma'lumlari. Kinematik noaniqlik darajasi. Ko'chishlar usulining asosiy sistemasi. Ko'chishlar usulining kanonik tenglamalari.

21-mavzu. Ko'chishlar usulining kanonik tenglamasi

Ko'chishlar usulining kanonik tenglama koeffitsientlarini va ozod hadlarini aniqlash. Kuchlar usulining kanonik tenglama koeffitsientlari va ozod hadlarini tekshirish.

22-mavzu. Natijaviy eguvchi moment epyuralarini chizish va tekshirish

Natijaviy eguvchi moment epyurasini chizish va tekshirish. Ko'ndalang va bo'ylama kuchlar epyuralarini chizish.

6-semestr (Qurilish konstruksiyalari)

1-mavzu: Qurilish konstruksiyalarini hisoblash va loyihalash tartibi

Qurilish konstruksiyalarini hisoblash va loyihalashning maqsadi va vazifalari. Qurilish konstruksiyalarini hisoblash va loyihalash. Hisoblash bosqichlari. Qurilish konstruksiyalarga qo'yilgan talablar: funktsional, texnik, iqtisodiy va konstruktiv.

2-mavzu: Qurilish konstruksiyalarni chegaraviy holatlar bo'yicha hisoblash. Yuklar va ta'sirlar

Qurilish konstruksiyalarini hisoblashning rivojlanish tarixi. Birinchi guruh chegaraviy holat bo'yicha hisoblash. Ikkinchi guruh chegaraviy holat bo'yicha hisoblash. Chegaraviy holatlar usulining mohiyati. Qurilish konstruksiyalarga ta'sir etadigan yuklarning turlari. Doimiy yuklar. Me'yoriy yuklar. Hisobiy yuklar. Yuklar jamlamasi.

3-mavzu: Temirbeton konstruksiyalar haqida umumiy ma'lumotlar

Temirbetonning mohiyati. Temirbeton konstruksiyalar rivojlanish tarixi. Temirbetonning afzallik va kamchiliklari. Temirbeton konstruksiyalarning ishlatilish soxalari.

4-mavzu: Betonning fizik-mexanik xossalari

Betonning mustahkamligi. Betonning kub mustahkamligi. Betonning prizma mustahkamligi. Betonning deformatsiyasi. Betonning sinfi va markalari. Betonlarning mustahkamlik va deformativ xarakteristikalari.

5-mavzu: Armaturaning fizik-mexanik xossalari

Temirbeton konstruksiyalar kesim yuzasida bajaradigan vazifasiga ko'ra armaturalarning turlari. Armaturaning sortamenti. Armaturaning fizik-mexanik xossalari. Armaturalash usullari. Po'lat armaturaning mustahkamlik va deformativ xarakteristikalari.

6-mavzu: Temirbeton konstruksiyalarning kuchlanish deformatsiyalanish holatining uch bosqichi

Temirbeton konstruksiyalarning kuchlanish deformatsiyalanish holatining birinchi bosqichi. Temirbeton konstruksiyalarning kuchlanish deformatsiyalanish holatining ikkinchi bosqichi. Temirbeton konstruksiyalarning kuchlanish deformatsiyalanish holatining uchinchi bosqichi.

7-mavzu: Oldindan zo'riqtirilgan temirbeton konstruksiyalar haqida umumiy ma'lumotlar va ularni. Oldindan zo'riqtirilgan temirbeton konstruksiyalarni loyihalash

Oldindan zo'riqtirilgan temirbetonning mohiyati. Oldindan zo'riqtirilgan temirbetonning afzalliklari. Armaturani taranglash usullari: mexanik, termik va termomexanik. Oldindan zo'riqtirilgan temirbeton elementlar armaturasidagi kuchlanishlarni yo'qotilishi. Oldindan zo'riqtirilgan temirbeton elementlardagi kuchlanishlarni aniqlash.

8-mavzu: Egiluvchi temirbeton elementlarini loyihalashning o'ziga xos usullari

Plitalar to'g'risida umumiy ma'lumotlar va ularni loyihalash. To'sinlar to'g'risida umumiy ma'lumotlar. Oldindan zo'riqtirilgan temirbeton elementlarni loyihalash.

9-mavzu: Egiluvchi temirbeton elementlarni normal kesimlar bo'yicha mustahkamlikka hisoblash

Yakka armaturali to'g'ri to'rtburchak kesimli elementlar. To'g'ri to'rtburchakli kesimlarni jadval bo'yicha hisoblash. Tavr shakl kesimli elementlarni hisoblash. Qo'sh armaturali kesimlarni hisoblash. Armaturalash foizini belgilash.

10-mavzu: Egiluvchi temirbeton elementlarni og'ma kesimlar bo'yicha mustahkamlikka hisoblash

Og'ma kesimlarga ko'ndalang kuchlarni ta'siri. Og'ma kesimlarga eguvchi momentlar ta'siri. Armaturalash.

11-mavzu: Siqilishga ishlaydigan temirbeton elementlarni loyihalashning o'ziga xos xususiyatlari

Siqiluvchi elementlar to'g'risida umumiy ma'lumotlar. Siqilishga ishlaydigan elementlarni loyihalash va armaturalash. Ko'ndalang armatura. Element egilishini hisobga olish. Tasodifiy yelkali elementlarni loyihalash

12-mavzu: Siqilishga ishlaydigan temirbeton elementlarni mustahkamlikka hisoblash

Normarkaziy siqilgan temirbeton elementlarni hisoblash. Siqiluvchi elementlar armaturasining talab etilgan ko'ndalang kesim yuzasini aniqlash. Siqiluvchi elementlarning hisobiy sxemalari.

13-mavzu: Qobirg'ali monolit temirbeton orayopmalar. Yassi temirbeton orayopmalar

Monolit plita hisobi va uni armaturalash. Ikkinchi darajali to'sin hisobi va uni armaturalash. Bosh to'sin hisobi va uni armaturalash. To'sinli yig'ma orayopmalar. Yig'ma yopmaning tuzilishini belgilash (kompanovka qilish). To'sinli yig'ma orayopmaning konstruktiv sxemasi. Yig'ma temirbeton panellarni hisoblash va loyihalash.

14-mavzu: Zamin va poydevorlar

Zamin va poydevorlarni loyihalash va hisoblash asoslari. Zaminlarni yuk ko'tarish qobiliyati bo'yicha hisoblash. Poydevor turlari. Sayoz joylashgan poydevorlarni loyihalash qoidalari. Markaziy yuk ta'siridagi bikir poydevorlarni tag yuzasi o'lchamlarini hisoblash. Nomarkaziy yuklangan poydevorlar va egilishga ishlaydigan poydevorlarni hisoblash asoslari.

15-mavzu: Tosh-g'isht va armatosh konstruksiyalar

Tosh-g'isht konstruktsiyalarni rivojlanish tarixi. Tosh-g'isht konstruktsiyalar uchun ishlatiladigan materiallar. Tosh-g'isht konstruktsiyalarni hisoblash. Armotosh konstruktsiyalarning o'ziga xos konstruktiv xossalari. Armotosh konstruktsiyalarni hisoblash asoslari. To'rsimon armaturalanadigan elementlarni hisoblash.

16-mavzu: Metall konstruktsiyalar to'g'risida umumiy ma'lumotlar. Metall konstruktsiyalarida ishlatiladigan po'latning asosiy xususiyatlari

Metall konstruktsiyalarning rivojlanish tarixi. Metall konstruktsiyalarni ishlatish sohalari. Metall konstruktsiyalarning o'ziga xos xususiyatlari. Loyihalashtirishning tashkiliy shakli. Po'lat asosiy xususiyatlari. Uglerodli po'latlar. Ishlov berilgan po'latlar. Ishlab chiqarilishiga ko'ra turlari. Kafolatlanish guruhlari. Po'lat tarkibidagi ishlov beruvchi qo'shimchalar, zararli aralashmalar. Po'latning markalanishi. Po'latning mustahkamligi bo'yicha turlari.

17-mavzu: Po'latning statik yuk ostida ishlashi. Po'lat sortamenti

Po'lat asosiy xususiyatlari. Uglerodli po'latlar. Ishlov berilgan po'latlar. Ishlab chiqarilishiga ko'ra turlari. Kafolatlanish guruhlari. Po'lat tarkibidagi ishlov beruvchi qo'shimchalar, zararli aralashmalar. Po'latning markalanishi. Po'latning mustahkamligi bo'yicha turlari. Po'latning statik yuk ostida cho'zilish va siqilishga ishlashi. Turli toifadagi po'latlarning cho'zilish diagrammasi. Po'latning me'yoriy va hisobiy qarshiliklari. Po'lat sortamenti xaqida umumiy ma'lumotlar. Prokat profillar: burchakliklar, qo'shtavrlar, shvellerlar. Po'lat listlar: yupqa listli, qalin listli, universal. Egib tayyorlanadigan profillar.

18-mavzu: Metall konstruktsiyalarni hisoblash asoslari

Cho'zilishga ishlaydigan elementlarni hisoblash. Markaziy siqilishga ishlaydigan elementlarni hisoblash va egilishga ishlaydigan elementlarni hisoblash.

19-mavzu: Metall konstruktsiya birikmalari. Payvand birikmalar va ularni hisoblash

Payvand birikmalar turlari: tutash, ustma-ust, burchak, tavr va murakkab. Payvandlash usullar to'g'risida qisqacha ma'lumot. Elektr yoyi yordamida dastaki, avtomatik va yarim avtomatik payvandlash. Elektroshlak usuli bilan payvandlash. Himoyalovchi gazlar muhitida payvandlash. Gaz alangasida payvandlash. Tutash chokni hisoblash. Burchak chokli payvand birikmalarni bo'ylama va ko'ndalang kuchlar ta'siriga chok bo'yicha va chok chegarasi bo'yicha hisoblash.

20-mavzu: Boltli va parchin mixli birikmalar

Boltli birikmalar va ularning turlari. Parchin mixli birikmalar va ularning turlari. Boltli birikmalarni hisoblash. Boltlarni birikmalarda joylashtirilishi.

21-mavzu: Metall to'sinlarni loyihalash va hisoblash

Metall to'sinli konstruktsiyalar. Prokat to'sinlarni hisoblash tartibi. Alohida

elementlardan tayyorlangan to‘sinlarning hisobi.

22-mavzu: Metall ustunlarni loyihalash va hisoblash

Ustunlarni asosiy o‘rta qismlari (tana) ni loyihalash va hisoblash. Ustunlarni bosh qismlarini loyihalash va hisoblash. Ustunlarning asosini loyihalash va hisoblash.

23-mavzu: Metall fermalarni loyihalash va hisoblash

Metall fermalarni turlari. Ferma elementlarida hosil bo‘ladigan kuchlarni aniqlash. Ferma tugunlarini hisoblash.

III. Amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

5-semestr (Qurilish mexanikasi)

1. Inshootlar hisoblash sxemalarining kinematik analizi.
2. Ko‘p oraliqli statik aniq balkalarni qo‘zg‘almas yuklar ta‘siriga hisoblash.
3. Oddiy va konsol balkalarda zo‘riqishlarning ta‘sir chiziqlarini statik usulda chizish.
4. Ta‘sir chiziqlari yordamida zo‘riqishlarni aniqlash.
5. Ko‘p oraliqli statik aniq balkalarni harakatlanuvchi yuklar ta‘siriga hisoblash.
6. Statik aniq tekis fermalarni qo‘zg‘almas yuklar ta‘siriga hisoblash.
7. Statik aniq tekis fermalarni harakatlanuvchi yuklar ta‘siriga hisoblash.
8. Bir pog‘onali shprengelli fermalarni hisoblash.
9. Ikki pog‘onali shprengelli fermalarni hisoblash.
10. Uch sharnirli arkani qo‘zg‘almas yuklar ta‘siriga hisoblash.
11. Harakatlanuvchi yuklar ta‘sirida bo‘lgan uch sharnirli arka zo‘riqishlarini ta‘sir chiziqlari yordamida aniqlash.
12. Statik aniq oddiy sistemalarda ko‘chishlarni aniqlash.
13. Statik noaniq ramalarni kuchlar usulida hisoblash.
14. Kuchlar usulining asosiy sistemasini tanlash va kanonik tenglamalarini yozish.
15. Kanonik tenglama koeffitsientlari va ozod hadlarini aniqlash. Kanonik tenglama koeffitsientlari va ozod hadlarini tekshirish.
16. Natijaviy eguvchi moment, ko‘ndalang va bo‘ylama kuchlarni aniqlash.
17. Simmetrik ramalarni kuchlar usulida hisoblash.
18. Uzluksiz balkalarni qo‘zg‘almas yuklar ta‘siriga hisoblash.
19. Uzluksiz balkalarni fokuslar usuli bilan bilan hisoblash.
20. Statik noaniq ramalarni ko‘chishlar usulida hisoblash.
21. Ko‘chishlar usulining asosiy sistemasini tanlash va kanonik tenglamalarini yozish.

22. Kanonik tenglama koeffitsientlari va ozod hadlarini aniqlash.
23. Natijaviy eguvchi moment, ko'ndalang va bo'yama kuchlarni aniqlash.

6-semestr (Qurilish konstruksiyalari)

1. Qurilish konstruksiyalarini hisoblash tartibi.
2. Qurilish konstruksiyalarni chegaraviy holatlar bo'yicha hisoblash. Yuklar va ta'sirlar.
3. Temirbeton konstruksiyalar haqida umumiy ma'lumotlar.
4. Betonning fizik-mexanik xossalari
5. Armaturaning fizik-mexanik xossalari va ularning turlari
6. Temirbeton konstruksiyalarning kuchlanish-deformatsiyalanish holati
7. Oldindan zo'riqtirilgan temirbeton konstruksiyalarni tayyorlash usullari va ularni hisoblash.
8. Egiluvchi elementlarni normal kesim bo'yicha mustahkamlikka hisoblash. Yakka armaturali kesimlar.
9. Qo'sh armaturali kesimlar. Tavr shaklidagi kesimlar.
10. Egiluvchi elementlarni qiya kesim bo'yicha mustahkamligini hisoblash.
11. Markaziy siqiluvchi temirbeton elementlar hisobi.
12. Nomarkaziy siqiluvchi temirbeton elementlar hisobi.
13. Temirbeton orayopma plitasi hisobi.
14. Poydevorlarni hisoblash, loyihalash va armaturalash
15. Tosh-g'isht konstruksiyalarni hisoblash
16. Po'lat qurilmalarida ishlatiladigan materiallarning asosiy xususiyatlari.
17. Po'latning statik yuk ostida ishlashi. Metall konstruksiyalarni loyihalash asoslari
18. Metall konstruksiyalarni chegaraviy holatlar bo'yicha hisoblashning asosiy holatlari.
19. Payvand birikmalar. Payvand birikmalarning hisobi.
20. Boltli birikmalar hisobi.
21. Metall to'sinlar va to'sinli konstruksiyalarni loyihalash. Metall to'sinlarni hisoblash.
22. Metall ustunlarni hisoblash.

IV. Hisob-grafik ishlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar (5-semestr)

Hisob-grafik ishlarni bajarishning asosiy maqsadi - talabalarning olgan nazariy bilimlarini amalda qo'llash bo'yicha ko'nikmalar hosil qilishi va ularning mustaqil ishlashini shakllantirishdir.

Fan bo'yicha har bir talaba individual topshiriq asosida hisob-grafik ishlarini bajaradi. Ularni bajarishda kafedrada mazkur hisob-grafik ishlarini bajarish bo'yicha ishlab chiqilgan uslubiy ko'rsatmalardan va mustaqil

ishlash uchun tayyorlangan masalalardan foydalanish tavsiya etiladi.

Tavsiya etilgan hisob-grafik ishlarining mavzulari:

1. Ko'p oraliqli statik aniq balka hisobi.
2. Statik aniq oddiy ferma hisobi.
3. Uch sharnirli arka hisobi.
4. Statik noaniq ramani kuchlar usulida hisoblash.
5. Uzluksiz balka hisobi.
6. Statik noaniq ramani ko'chishlar usulida hisoblash.

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar:

5-semestr (Qurilish mexanikasi)

10. Inshootga ta'sir etuvchi yuklar va ularning turlari, inshootlar hisoblash sxemalarining kinematik, ta'sir chiziqlarini chizishning kinematik usulini tahlili bo'yicha taqdimot tayyorlash

11. Oddiy va konsol balka hamda ko'p oraliqli balkalarning biror kesimi uchun ichki zo'riqishlarning ta'sir chiziqlarining ta'sir chiziqlarini va mavzuga doir taqdimot tayyorlash.

12. Murakkab fermalarning geometrik o'zgarmasligini tadqiq etish va fermalarning rattsional shakllarini tanlash bo'yicha taqdimot tayyorlash.

13. Statik aniq sistemalarda ichki zo'riqishlarni aniqlashga doir misollar yechish va taqdimot tayyorlash.

14. Uch sharnirli arkasimon fermalarni harakatlanuvchi va qo'zg'almas yuklar ta'siriga hisoblash.

15. Fermalarni tugun qirqish usulida, to'liq kesim usulida, qo'shma kesim usulida, sterjenlarni almashtirish usulida, yopiq kontur usulida, grafik usulda hisoblash.

16. Statik aniq va noaniq sistemalarni temperatura ta'siriga va tayanchlarning cho'kishiga hisoblash.

17. Statik noaniq sistemalarni kuchlar usuli yordamida hisoblashning soddalashtirish usulidan foydalanib hisoblash.

18. Ko'chishlar usulida statik noaniq sistemalarni hisoblash.

19. Statik noaniq sistemalarni aralash usulda hisoblash.

6-semestr (Qurilish konstruksiyalari)

1. Qurilish konstruksiyalarni chegaraviy holatlar usuli hamda yuklar va ta'sirlar bo'yicha hisoblashga doir taqdimot tayyorlash.

2. Po'latning me'yoriy va hisobiy qarshiligi. Materialning ishonchlilik koeffisienti. Binoning vazifasi bo'yicha ishonchlilik koeffisienti bo'yicha taqdimot tayyorlash.

3. Metall ustunlar, ularning hisobiy sxemasi va ularni hisoblash, metall yaxlit ustunlar uchun kesim tanlash, yaxlit metall ustunlar, ularning kesimi,

